

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI**

**J.R. QULMUHAMEDOV, S.Z. ASOMIDDINOV,
K.M. NAZAROV**

**XUSUSIY AVTOTRANSPORT
VOSITALARIDA YO‘LOVCHILAR
TASHISHNI TASHKIL ETISH**

Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma

4-nashri

TOSHKENT — «ILM ZIYO» — 2016

UO'K: 629.34 (075)
KBK 39.335.5
Q-79

*Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi ilmiy-metodik
birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash
tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

Qo'llanmada bozor iqtisodiyotining (shu jumladan, transport xizmati bozorining) asosiy tushunchalari, uni hayotga tatbiq etishda «o'zbek modeli»ning o'ziga xos xususiyatlari, avtotransportni monopoliyadan chiqarish va boshqaruvni yanada takomillashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini litsenziyalash asoslari, ochiq tenderlarni tashkil etish va ularda tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qarorlari va Farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar va yo'riqnomalarning ahamiyati, iqtisodiyotni boshqarishda davlatning roli kabi masalalar yoritilgan.

Taqrizchilar: **Y.X. XOLMATOV** — TAYI «Logistika» kafedrasida dotsenti, texnika fanlari nomzodi.
R.S. HIKMATOV — Shayxontohur transport kolleji direktori, texnika fanlari nomzodi, dotsent.

ISBN 978-9943-16-353-9

© J.R. Qulmuhamedov va boshq., 2016-y.
© «ILM ZIYO» nashriyot uyi, 2016-y.

KIRISH

Bugungi kunda xalq xo'jaligining hech bir tarmog'ini avtomobil transportisiz tasavvur etib bo'lmaydi. 90-yillargacha avtomobil transportining oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri iste'molchi tashkilotlar bo'yicha taqsimlangan reja ko'rsatkichlarini, shu jumladan, tonna va tonna km.da belgilangan tashish hajmlarini bajarishdan iborat bo'lib, uni hal etish ma'muriy buyruqbozlikka va yuqoridan rejalashtirishga asoslangan edi.

Tajribalardan ma'lumki, ma'muriy buyruqbozlik davrida hamma ishlarning markazdan rejalashtirilishi sababli barcha avtotransport korxonalari (ATK) mijozlar, tashiladigan yuk va yo'lovchilar hajmi ro'yxatini yuqoridan olar va uni bajarish shart edi. Mijozlar ham faqat yuqoridan biriktirib qo'yilgan ATK xizmatidan foydalana olar edilar.

Respublikaning mustaqillikka erishishi va bozor iqtisodiyotiga o'tishining dastlabki natijalari ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan bunday rejalashtirish noto'g'ri ekanligini ko'rsatdi.

Avtotransport faoliyatini bozor iqtisodiyotiga o'tkazish uchun respublika, avvalo, bozor iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlarini va uning qonunlarini yaxshi biladigan, o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati qarorlari va boshqa hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq amalga oshira oladigan yuqori malakali ishchi kuchiga va mutaxassislariga ega bo'lishi kerak.

O'quv qo'llanma Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi asosida avtomobillarda tashishni tashkil etish va harakatni boshqarish yo'nalishida ta'lim olayotgan o'quvchilarga o'z sohasi bo'yicha chuqur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar berishga qaratilgan. Bundan tashqari, qo'llanmada mutaxassislarni o'z faoliyatini davlatning tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq amalga oshira oladigan, ularga rioya qiladigan va ertangi kunni ko'ra oladigan qilib tayyorlash asosiy maqsad qilib qo'yilgan.

O'quv qo'llanmada bozor iqtisodiyotining (shu jumladan, transport xizmati bozorining) asosiy tushunchalari, uni hayotga tatbiq etishda «o'zbek modeli»ning o'ziga xos xususiyatlari, avtotransportni monopoliyadan chiqarish va boshqaruvni yanada takomillashtirish, xususiy avtotransport korxonalarini tashkil etish, ochiq tenderlarni tashkil etish va ularda tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha mavjud qonunchilik hujjatlarining ahamiyati yoritilgan.

1. AVTOMOBIL TRANSPORTI SOHASIDA MONOPOLIYADAN CHIQRISH VA BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH

1.1. Avtomobil transporti sohasidagi iqtisodiy islohotlar

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi qaror topishi biz va bizning kelajak avlodlarimiz uchun chinakam tarixiy hodisa bo'ldi. Xalqimiz necha yillardan beri orzu qilib kelayotgan maqsadiga erishdi. Yangi suveren davlat mustaqilligining huquqiy asosini 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan «Davlat mustaqilligi to'g'risida»gi Qonun tashkil etdi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq respublikada davlat va iqtisodiyotni qayta qurish boshlandi.

Mamlakatimizning birinchi Prezidenti I.A. Karimovning «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» nomli kitobida qayta qurishning pirovard maqsadlari aniq belgilab berildi. Bu «barqaror ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishdir».

Bu maqsadga mazmun va tuzilish jihatdan sobiq Ittifoq davridagi siyosiy-iqtisodiy tizimni butunlay isloh qilmay turib erishib bo'lmas edi.

Sobiq Ittifoq davrida shunday siyosiy tizim mavjud ediki, u jamiyatning hokimiyatdan begonalashuvi, hokimiyatning kommunistik partiya apparati qo'lida to'planishi, partiyaning monopol hukmron tashkilotga aylanishiga olib kelgan edi. Bunday tizim oxir-oqibatda xalqning hokimiyatdan begonalashuvigagina emas, balki odamlarning mulkdan ham begonalashuviga olib kelgan edi.

Ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan xo'jalik davrida shaxsiy tashabbus va tashabbus ko'rsatib mehnat qilishdan moddiy manfaatdorlik deyarli yo'qqa chiqqan edi.

Buyruqqa asoslangan, odamlarning manfaatlari bilan hisoblashmaydigan tizim faqat iqtisodiy munosabatlar mohiyatini buzibgina qolmay, balki huquqiy boshqarishni ham buzib keldi.

Sobiq Ittifoqdan qolgan salbiy oqibatlarni faqat ijtimoiy hayotning barcha sohalarini va birinchi galda siyosiy tizimni demokratlash-tirish orqali bartaraf etish mumkin edi.

Respublikamizda demokratiyalashtirish jarayoni markaziga inson va uning huquqlari bo'lgan yashash, erk, qadr-qimmat huquqlarini ta'minlash masalalari qo'yildi.

«Demokratiya» so'zi yunoncha bo'lib (*demos* — xalq, *kratos* — hokimiyat), «xalq hokimiyati» degan ma'noni anglatadi.

Demokratik jamiyat qurish uchun qo'yilgan birinchi qadam deb 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini ko'rsatish mumkin. Konstitutsiya shakllanib borayotgan huquqiy davlatning asosiy tamoyillarini qonun yo'li bilan mustahkamlab qo'ydi (1992-yil 8-dekabrda O'n ikkinchi chaqiriq Respublika Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasi O'zbekiston Konstitutsiyasini qabul qildi. 8-dekabr umumxalq bayrami — «Konstitutsiya kuni» deb e'lon qilindi).

Konstitutsiya asosida bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi va yangilari ishlab chiqilyapti, mavjud qonunlar davr talablaridan kelib chiqqan holda yanada takomillashtirilib borilyapti. Bunday qonunlarga bozor xo'jaligini yaratish va rivojlantirishga qaratilgan mulkchilik, yer, tadbirkorlik faoliyati, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish, ijara, bank tizimi to'g'risidagi va boshqa ko'pgina qonunlarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan qonunlar asosida ijtimoiy yo'naltirilgan bozor xo'jaligi iqtisodiy-siyosiy konsepsiyasi huquqiy davlat kafolatlaydigan erkinlik, shu jumladan, iqtisodiy erkinlik va ijtimoiy himoyalangan va ijtimoiy adolat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy davlat ideallarining birlashtirib yuborilishiga tayanadi.

Bozor iqtisodiyotining afzalligi, eng avvalo shundaki, unga shaxsni iqtisodiy rag'batlantirish, insonning o'z mehnati sifati va unumli bo'lishidan manfaatdorligini rag'batlantirish xosdir.

Bozor nima? Sodda qilib aytganda, sotuvchi va xaridor uchra-shadigan joy bozor deb ataladi.

Bozor o'zini o'zi boshqaradigan tizim bo'lib, u oldindan belgilab qo'yilgan reja, tashqaridan beriladigan buyruqlarga bo'ysunmaydi. Bozorning o'zi iqtisodiy munosabatlarni boshqaradi, xaridorlarning ehtiyojlarini aniqlaydi va hisobga oladi, mahsulotlarning sifatini, uning miqdori va narxini belgilaydi.

Tarix shuni ko'rsatadiki, bozorga qo'qqisdan, sakrab o'tilganda jamiyat uning salbiy ko'rinishlari qarshisida himoyasiz qoladi. Bozorga o'tish faqat birgina xo'jalik sohasini o'zgartirish bilan cheklanmaydi. Unga ijtimoiy hayotning bir-biri bilan chambarchas bog'liq barcha jabhalarini, shu jumladan, siyosiy, ma'naviy-

axloqiy, maishiy va boshqa sohalarni ham tubdan o'zgartirish orqali erishiladi.

Bozorga keskin sur'atda o'tish muqarrar ravishda ijtimoiy hayotning beqarorlashuvi, ishsizlikning o'sishi, ba'zi birovlarining boyib, qolganlarning qashshoqlanib qolishi (jamiyatning keskin tabaqalanishi), an'anaviy tarkib topgan munosabatlar va o'zaro aloqalarning buzilib ketishi kabi salbiy oqibatlariga olib keladi.

Shuning uchun bozor iqtisodiyotiga o'tishda davlatning boshqaruvchi rolini bajarishi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning eng muhim shartidir.

Tabiiyki, har bir mamlakatning, har bir xalqning faqat o'ziga xos bo'lgan tarixiy, ijtimoiy va milliy qadriyatlari va xususiyatlari mavjud. Masalan, o'zbek millati o'zining an'anaviy og'ir-bosiqiligi, puxta o'ylab qaror qabul qilishga ruhiy moyilligi hamda tinchlik-sevarligi tufayli bir holatdan ikkinchisiga, ayniqsa, turmush tarzida sakrab o'tishga rag'bati yo'qligi bilan ajralib turadi.

Respublikada ishlab chiqilgan huquqiy islohotlar dasturida huquqiy davlatni shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan murakkabliklarni bir zarb bilan hal etib bo'lmazligi hisobga olindi. Shuning uchun huquqiy islohotlar sohasidagi chora-tadbirlarni evolyutsion, ya'ni tadriijiy yo'l bilan, asta-sekin va izchil ro'yobga chiqarish tarixiy zarurat edi.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar mamlakat iqtisodiyotini markazlashtirilgan tartibda boshqarib kelgan davlat tuzilmalarini tugatishdan boshladi. Shu maqsadda Davlat rejalashtirish qo'mitasi, Davlat narx qo'mitasi, Davlat ta'minot qo'mitasi, Davlat agrosanoat qo'mitasi tugatilib, ularning o'rniga Davlat istiqbolni belgilash va statistika qo'mitasi, Respublika ulgurji va birja savdo aksiyadorlik jamiyati, monopoliyadan chiqarish va monopol yuqori narxlar ustidan nazorat qilish bosh boshqarmalari tashkil etildi.

Qisqa muddat ichida Davlat soliq qo'mitasi, Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitalari tuzildi.

Olib borilayotgan ishlar bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun keng imkoniyatlar ochib berish bilan birga, bozor munosabatlariga o'tishning umumiy bo'lgan jihatlari mavjud bo'lishiga qaramay, barcha davlatlar uchun yagona bo'lgan usuli yo'q ekanligini ko'rsatdi.

Xususiy mulk shakllarining xilma-xilligi, xo'jalik subyektlarining tenghuquqliligini ta'minlash va ularning o'zaro raqobatlashuv muhitini yaratish, monopoliyaga qarshi siyosat har qanday mamlakatning bozor iqtisodiyotiga o'tishidagi umumiylik hisoblandi. Shu bilan birga, har bir mamlakat o'zining tarixiy rivojla-

nishi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi, millatning o'ziga xos mentaliteti bilan bir-biridan farq qiladi.

O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o'tishining o'ziga xos yo'li mamlakatimizning birinchi Prezidenti Islom Karimov nomi bilan bog'liq bo'lib, «o'zbek modeli» deb atalmoqda.

Respublikamizning bozor iqtisodiyotiga o'tishi I. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi beshta muhim tamoyilga asoslangan:

1. Iqtisodiyotni mafkuradan to'la xoli qilish va uning siyosatdan ustun turmog'i. Bu tamoyilga ko'ra, iqtisodiyot va uni barqaror hamda yuqori sur'atlar bilan rivojlantirish davlat siyosatining mazmunini tashkil etadi.

2. Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlatning o'zi bosh islohotchi vazifasini bajaradi, ya'ni davlat bu davrda butun xalq manfaatlaridan kelib chiqib, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining yetakchi va ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi, ya'ni islohotlarning tashabbuskori rolini bajaradi.

3. Barcha ijtimoiy-iqtisodiy jabhalarda qonun ustuvorligini ta'minlash taqozo etiladi. Mazkur tamoyilning mohiyati shundaki, iqtisodiy o'zgarishlar va jamiyatning yangilanish jarayoni mamlakatda amal qiluvchi qonunlarga tayangan holda amalga oshiriladi.

4. Bozor munosabatlariga o'tish aholining kam ta'minlangan qismini moddiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan talablarni amalga oshirish bilan qo'shib olib boriladi. Buning uchun davlat kishilarni islohotlarga ruhan tayyorlash va ularni ijtimoiy himoyalashga qaratilgan kuchli va ta'sirchan siyosat olib boradi.

5. Yangi iqtisodiy munosabatlarga o'tish puxta o'ylab, bosqichma-bosqich, ya'ni inqilobiy sakrashlarsiz amalga oshiriladi. Boshqacha qilib aytganda, bir bosqich tamomlangandan keyingina va zarur shart-sharoitlar yaratilgandan so'ng keyingi bosqichga o'tiladi. Iqtisodiy islohotlar bozor munosabatlarining mexanizmlarini qadam-baqadam shakllantirib boradi.

Islohotlarning «o'zbek modeli» mavjud «Turkiya modeli», «Yaponiya modeli», «Janubiy Koreya modeli»ga o'xshamaydi va strategik jihatdan to'g'ri tanlanganligi xo'jalik hayotimizning barcha sohalarida o'z tasdig'ini topyapti.

«O'zbek modeli»ning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundan iboratki, bu modelga binoan mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va ko'p ukladli iqtisodiyotni barpo etish islohotlarning ustuvor yo'nalishi deb belgilanadi.

Avtomobil transporti sohasida ham iqtisodiy o'zgarishlar «o'zbek modeli» asosida evolutsion yo'l bilan amalga oshirilyapti. Bunday islohotlarga misol qilib islohotlar taraqqiyotining birinchi bosqichida O'zbekiston Avtomobil transporti vazirligining tugatilib, uning negizida «O'zavtotrans» davlat aksiyadorlik korporatsiyasining tuzilishi, keyingi bosqichda esa bu korporatsiyaning ham tugatilishi va boshqaruv vakolatlarining mahalliy hokimiyat organlariga yuklatilishi, xususiy mulk sifatida yuk avtomobillari va avtobuslarning paydo bo'lishi, tashish bo'yicha tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun jismoniy shaxslarga ham ruxsat berilishi, va, nihoyat yo'lovchilar va yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash maqsadida yo'lovchilarni tashish bo'yicha tadbirkorlik bilan shug'ullanishga ruxsat faqat yuridik shaxslarga berilganini ko'rsatib o'tish mumkin.

1.2. Avtomobil transporti sohasida monopoliyadan chiqarish va boshqaruvni takomillashtirish

Avtomobil transporti sohasida monopoliyadan chiqarish bo'yicha islohotlar «o'zbek modeli»ni tashkil etgan tamoyillarga muvofiq amalga oshirilmoqda. Islohotlar boshidanoq respublikada avtomobil transportini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish jarayoni monopoliyaga barham berish hamda turli mulkchilik shakllaridagi tadbirkorlik uchun raqobatni rag'batlantiradigan sharoitlarni yaratish yo'nalishida olib borildi.

Davlat tomonidan monopoliyaga qarshi tartiblashning me'yoriy-huquqiy asosini 1992-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Monopolistik faoliyatni cheklash to'g'risida»gi Qonuni tashkil etadi.

1993-yil fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra monopoliyaga qarshi siyosatni o'tkazish bo'yicha vazifalar Moliya vazirligi zimmasiga yuklandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 15-maydagi Farmoniga binoan ushbu vazirlik qoshida Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish bosh boshqarmasi asosida qo'mita tashkil etildi. Farmonda belgilab qo'yilganidek, qo'mita raqobatni rivojlantirish, monopolistik faoliyatni cheklash hamda iste'molchilarning huquqlarini muhofaza qilish sohasidagi siyosatni o'tkazish bo'yicha Davlat boshqaruv organi hisoblanadi.

Monopoliya deganda, ko'pchilik o'quvchilar uning lug'aviy ma'nosidan kelib chiqqan holda, respublikada yagona bo'lgan katta

korxonalar faoliyatini tushunadi. Haqiqatan ham yo'lovchi tashuvchi transportni oladigan bo'lsak, sobiq Ittifoq davrida u eng yirik va yagona monopolist edi. Yo'nalishlarda va yengil avtomobillarda yo'lovchi tashish huquqi faqat unga berilgan edi. Bugungi kunda xususiy tashuvchi kichik korxonalarining vujudga kelishi shuni ko'rsatyaptiki, amalda kichik bo'lgan korxonalar ham monopolist bo'la olar ekan. Hozirda bunday korxonalar transport xizmatini ko'rsatish narxiga sezilarli darajada ta'sir o'tkaza oladi.

Monopoliyaga qarshi kurashda monopolistik birlashmalarni bo'lib tashlash asosida maydalashtirish usuli ijobiy natijalar berishi mumkinligi amalda isbotini topyapti. Shuning uchun ham bugungi kunda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonida monopol xo'jalik tuzilmalari yoki korxonalarini kichik korxonalariga aylantirish ishlari amalda qo'llanilyapti.

Avtomobil transporti sohasida monopoliyadan chiqarish jarayonlarini chuqurlashtirish, bozor munosabatlarini shakllantirish va transport xizmatlari bozorida raqobat muhitini yaratish ishlari shu to'g'ridagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 4-iyundagi 2871-sonli Farmoni asosida amalga oshirilmoqda.

Farmonda eng asosiy masalalardan biri qilib avtotransportda yo'lovchilar va yuk tashish sohasida bozor munosabatlari va raqobat muhitini yanada rivojlantirish, avtomobil transporti tashkilotlarini va korxonalarini keng xususiylashtirish, xususiy avtomobil tashuvchilar faoliyati sohasini kengaytirish, transport xizmatlari bozorida mulkchilikning barcha shakllaridagi avtomobillarda tashuvchilar uchun teng shart-sharoitlarni yaratish asosiy maqsad qilib qo'yildi. Shunga ko'ra avtomobil transportida boshqaruvning ortiqcha bo'g'inlarini tugatish maqsadida O'zbekiston avtomobil transporti davlat aksionerlik korporatsiyasini tugatish to'g'risida qaror qabul qilindi. Bugungi kunda sobiq «O'zavtotrans» davlat aksionerlik korporatsiyasi tarkibida bo'lgan konsernlar avtomobillarda tashuvchilarning hududiy uyushmalariga aylantirilgan bo'lib, ular Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari ixtiyorida faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Avtomobil transportini rivojlantirishning kompleks mintaqaviy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, iqtisodiyotga va mintaqa aholisiga barqaror avtotransport xizmatini ko'rsatish uchun shart-sharoitlarni yaratish, raqobat muhitini shakllantirish, mulkchilikning barcha shakllaridagi avtomobilda tashuvchilar uchun

faoliyat ko'rsatishning teng sharoitlarini yaratish, tarif siyosatini amalga oshirishni nazorat qilish va boshqalar Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining asosiy vazifalari qilib belgilandi.

Farmonda avtomobil transportining hududiy uyushmalari zimmasiga ham muayyan vazifalar yuklatilgan. Avtomobil transporti sohasida bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, avto-transport korxonalarini xususiylashtirish va aksiyalashtirish jarayonlarini rivojlantirish, yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish madaniyatini va sifatini oshirish, zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish, ta'mirlash bazasini rivojlantirish, zamonaviylashtirish va boshqalar shular jumlasidandir.


O'zbekiston avtomobil transporti davlat aksionerlik korporatsiyasining tugatilishi munosabati bilan avtomobil va daryo transportida yo'lovchilar va yuk tashish xavfsizligini tashkil etish va ta'minlashga doir normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash, boshqaruv organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ularga rioya etilishi ustidan nazorat o'rnatish, yo'lovchilar va yuk tashish yo'nalishlarini tender asosida realizatsiya qilish mexanizmini joriy etish, raqobatda teng shart-sharoitlarni yaratish, avtomobil transportida tashuvchilar faoliyatini litsenziyalashni tashkil etish, litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini nazorat qilish ishlari O'zbekiston Avtomobil va daryo transporti agentligiga yuklatildi. (O'zbekiston Avtomobil va daryo transporti agentligi markaziy apparati tuzilmasi 1-rasmda ko'rsatilgan.)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika Davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi 2003-yil 9-dekabrda 3358-sonli Farmonini bajarish yuzasidan hamda avtomobil va daryo transporti faoliyatini takomillashtirish maqsadida 2004-yil 10-martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 118-sonli qarorini qabul qildi. Qarorda O'zbekiston Avtomobil va daryo transporti agentligining asosiy vazifalari belgilab berildi. Shu bilan bir paytda agentlikning hamda uning hududiy bo'limlarining tashkiliy tuzilmasi va nizomi tasdiqlandi.

Toshkent shahrida shahar yo'lovchi transporti korxonalarini alohida uyushmalarga aylantirish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 11-yanvardagi 3713-sonli Farmoni hamda 2006-yil 18-yanvardagi 262-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining bir qator qarorlari asosida amalga oshirildi.

O‘zbekiston Avtomobil va daryo transporti agentligi markaziy apparati

T U Z I L M A S I



1-rasm. O‘zbekiston Avtomobil va daryo transporti agentligi markaziy apparati tuzilmasi.

1.3. Toshkent shahrida yo'lovchi transporti holati va uni takomillashtirish

Keyingi yillarda Toshkent shahri aholisiga transport xizmati ko'rsatishni yaxshilash bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirildi. Avtobuslar parki izchil yangilanmoqda, servis xizmati tarmog'i tashkil etilgan va bu yo'lovchilar tashish xavfsizligini oshirish imkonini bermoqda.

Shahar yo'lovchi transportining yangi, muntazam yo'nalishlari ochildi, xususi yo'lovchi tashuvchilar ko'rsatayotgan xizmatlar hajmini oshirish imkonini beradigan qonunchilik va me'yoriy-huquqiy baza yaratilganiga qaramay, jamoat transportida aholiga xizmat ko'rsatish tizimida bozor mexanizmlarini joriy etish jarayoni sust bormoqda edi. Xususi yo'lovchi tashuvchilarning tender savdolarida ishtirok etishida va yo'lovchilarga transport xizmati ko'rsatishidagi turli cheklashlar transport xizmatlari bozori rivojiga to'sqinlik qilib kelar edi. «Toshshaharyo'lovchitrans» aksiyadorlik kompaniyasida korxonalarining nizom jamg'armasidagi davlat ulushini qisqartirish bo'yicha maqsadli ishlarning amalga oshirilmayotgani avtobus parklari, haydovchilar va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, yo'nalishlarda vaqtida va ishonchli harakatlanish hamda harakatlanuvchi tarkibni saqlash va yo'lovchi tashish tannarxini pasaytirish borasidagi mustaqilligi, moddiy manfaatdorligi va mas'uliyatini oshirish imkonini bermayapti. Bu kamchiliklarni zudlik bilan hal etish maqsadida 2013-yil 9-oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Toshkent shahrida yo'lovchi tashish transportini tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2048-sonli Qarori e'lon qilindi. Ushbu Qarorni bajarish yuzasidan hamda oraliq bo'g'inlarni bartaraf etish, boshqaruv xodimlari sonini qisqartirish, avtobus saroylarini joylashtirish sxemasini takomillashtirish, ishlab chiqarish infratuzilmasini tartibga solish va transport tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish yo'li bilan shahar yo'lovchi tashish transportini boshqarish tuzilmasini maqbullashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 13-noyabrda 308-son qarori e'lon qilindi. Ushbu qarorga ko'ra:

1. Quyidagilar «Toshshahartransxizmat» aksiyadorlik kompaniyasining asosiy vazifalari etib belgilansin:

— mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, kompaniya tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlarning shahar yo'lovchilar tashish

transporti tomonidan ko'rsatiladigan sifatli xizmatlarga bo'lgan aholi ehtiyojlarini eng to'liq qondirishga, shuningdek ular ishining samaradorligini va moliyaviy barqarorligini oshirishga yo'naltirilgan faoliyatini muvofiqlashtirish;

— yo'lovchilar tashuvlari xavfsizligini va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish madaniyatining yuqori darajasini ta'minlash, jamoat transporti qatnovlarida transport vositalari harakatlari maromiga, belgilangan jadvaliga va intervallariga rioya etish;

— axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, harakat tarkibining navigatsiya nazorati tizimlarini (GPS) keng joriy etish, oxirgi qatnovlarda transport vositalarining yetib kelish va jo'nab ketish vaqtini qayd etadigan elektron terminallar o'rnatish, «on-layn» rejimidagi qatnov liniyalarida dispetcherlik boshqaruvi darajasini oshirish yo'li bilan shahar yo'lovchilar tashuvlarini tashkil etish tizimida intizomni mustahkamlash;

— transport vositalaridan foydalanish bo'yicha yagona texnik siyosat va talablarni amalga oshirish, har tomonlama qulay, zamonaviy transport vositalarining saqlanishi, ulardan ehtiyotlab, maqsadli va samarali foydalanilishi yuzasidan doimiy monitoring olib borish, sutkaning turli vaqtlaridagi yo'lovchilar oqimini hisobga olgan holda ko'p va o'rtacha sig'imli avtobuslar qatnovlarini oqilona uyg'unlashtirish, transportni ta'mirlash va unga servis xizmati ko'rsatish bo'yicha infratuzilmani rivojlantirish;

— transport tashkilotlarini, eng avvalo, haydovchilar tarkibini transport vositalarini ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha yuqori malakali kadrlar bilan mustahkamlash, ularning malakasini tizimli ravishda oshirishni ta'minlash, shahar yo'lovchilar tashish transporti xodimlarini moddiy rag'batlantirishning samarali tizimini joriy etish.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 9-oktabrdagi PQ-2048-son Qarori bilan tashkil etilgan «Toshshahartransxizmat» uyushmasi faoliyatini tanqidiy tahlil qilish hamda yo'lovchilar tashish xarajatlarini maqbullashtirish va kamaytirishga doir takliflarni ishlab chiqish bo'yicha Idoralararo komissiyaning, Toshkent shahar hokimligining, «Toshshahartransxizmat» uyushmasining:

— tashuvchilar tomonidan yo'lovchilar tashish qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish funksiyalarini Toshkent shahar hokimligining Barcha turdagi yo'lovchi tashish transporti harakatini litsenziyalash va muvofiqlashtirish departamentiga bergan holda «Transport xizmatlari sifatini nazorat etish boshqarmasi» davlat

unitar korxonasini harakatdagi tarkibni «on-layn» real vaqt rejimida uzoqdan nazorat qilish (GPS) va shahar yo'lovchi tashish transportini avtomatlashtirilgan tarzda boshqarish tizimlarini qo'llagan holda tartibga solish uchun «Toshtransdispetcherxizmat» unitar korxonasiga aylantirish;

— «Toshshahartransxizmat» aksiyadorlik kompaniyasi tarkibida «2-tramvay deposi», «3-son tramvay-trolleybus deposi», «Tosh-tatraservis texnik markazi», «Yo'l xizmati» va «Shahar elektr transportiga xizmat ko'rsatish sho'basini» davlat unitar korxonalarini birlashtirish hisobiga «Toshkent tramvayi» unitar korxonasi shaklida yagona tramvay kompleksi tashkil etish;

— «O'ninchi avtosaroy» MCHJ bazasida «2-avtobus saroyi» OAJning filialini tashkil etgan holda ishlab chiqarish infratuzilmasidan oqilona foydalanish va avtobus saroylarini joylashtirish sxemasini maqbullashtirish;

— «Toshshahartransxizmat» uyushmasining sho'ba korxonalarini — «Mercedes-Bens» markaziy xizmat ko'rsatish stansiyasi, «Birinchii avtota'mirservis», «Ikkinchi avtota'mirservis», «Uchinchi avtota'mirservis» sho'ba korxonalarini avtobus saroylarida 3 ta filiali bo'lgan «Toshavtota'mirxizmat» unitar korxonasiga aylantirish;

— «Yo'lovchitransservis» xo'jalik hisobidagi markaz» davlat unitar korxonasini «Toshyo'lovchitransxizmat» unitar korxonasiga aylantirish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin.

3. Belgilab qo'yilsinki, «Toshkent tramvayi» unitar korxonasi «2-tramvay deposi», «3-son tramvay-trolleybus deposi», «Tosh-tatraservis texnik markazi», «Yo'l xizmati» va «Shahar elektr transportiga xizmat ko'rsatish sho'basini» davlat unitar korxonalarining huquqlari va majburiyatlari bo'yicha huquqiy voris hisoblanadi.

4. Idoralararo komissiya (R.S. Azimov) tomonidan Toshkent shahar hokimligi, «Toshshahartransxizmat» aksiyadorlik kompaniyasi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar ishtirokida ishlab chiqilgan:

— 2014—2015-yillar davrida Toshkent shahrida shahar yo'lovchi tashish transportini tashkil etish tizimini yanada takomillash-tirish chora-tadbirlari kompleks dasturi 1-ilovaga (barcha ilovalar qarorda keltirilgan) muvofiq;

— 2013—2015-yillar davrida «Toshshahartransxizmat» aksiyadorlik kompaniyasi tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishga doir chora-tadbirlar kompleksi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Ushbu qaror bilan tasdiqlangan Toshkent shahrida yo'lovchi tashish transportini tashkil etish tizimini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar kompleksi bajarilishining tizimli monitoringini olib borish bo'yicha 3-ilovaga muvofiq tarkibda muvofiqlashtiruvchi guruh tuzilsin.

5. Toshkent shahar va Toshkent viloyati hokimliklarining 2014-yil 1-yanvardan boshlab shahar va shahar atrofi yo'nalishlarini maqbullashtirish, shahar atrofi yo'nalishlarining oxirgi to'xtash punktlarini Toshkent halqa avtomobil yo'li bo'ylab joylashtirish va yo'lovchilarning shahar atrofi yo'nalishlaridan shahar yo'nalishlariga o'tishlari uchun, eng qulay joylarda shahar atrofida qatnovchi yo'nalishli taksilar to'xtab turishi uchun maydonchalar tashkil etgan holda, sakkizta yo'lovchi tashish transporti avtostan-siyalari qurish haqidagi taklifi 4-ilovaga muvofiq qabul qilinsin.

6. Toshkent shahrida yo'nalishli xususiy taksilarda yo'lovchilar tashish tartibi to'g'risidagi Nizom 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. «Toshshahartransxizmat» aksiyadorlik kompaniyasi:

— bir oy muddatda xodimlarning moddiy manfaatdorligi va mas'uliyatini oshirishni, jamoat transporti korxonalarini boshqarish tizimini takomillashtirishni va yo'lovchi tashuvlari tannarxini pasaytirishni nazarda tutgan holda avtobus saroylari, tramvay deposi va tegishli xizmatlarning boshqaruv xodimlari sonini maqbullashtirsin;

— o'z tuzilmasiga kiradigan tashkilotlarni qayta tashkil etishda kompaniyaning bo'shab qoladigan xodimlarini ishga joylashtirishga O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi bilan birgalikda, belgilangan tartibda ko'maklashsin.

8. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Moliya vazirligi hamda Iqtisodiyot vazirligining 2014-yil 1-yanvardan boshlab «Toshshahartransxizmat» aksiyadorlik kompaniyasi tashkilotlarida, eng avvalo, haydovchilar tarkibining samarali mehnat natijalariga erishishdan, shu jumladan daromadlar bo'yicha prognozning bajarilishidan, harakat jadvaliga qat'iy rioya qilishdan, xavfsizlikni va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini ta'minlashdan, transport vositalaridan ehtiyotlab va samarali foydalanishdan manfaatdorligini oshirishning muhim omili sifatida mehnatga haq to'lashning bazaviy tarif stavkasiga rag'batlantiruvchi to'lovlar ulushini oshirishga yo'naltirilgan mehnatga haq to'lashning yangilangan tizimini joriy etish to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin.

9. «Toshshahartransxizmat» uyushmasini, «Toshavtobustrans», «Toshyo'lovchi-ta'mirservis» aksiyadorlik kompaniyalarini va

«Toshelektrotrans» davlat kompaniyasini tugatish komissiyasi 6-ilovaga muvofiq tarkibda tasdiqlansin.

Tugatish komissiyasi «Toshshahartransxizmat» uyushmasini, «Toshavtobustrans», «Toshyo‘lovchita‘mirservis» aksiyadorlik kompaniyalarini va «Toshelektrotrans» davlat kompaniyasini tugatishni ikki oy muddatda, belgilangan tartibda amalga oshirsin.

«Toshshahartransxizmat» uyushmasi, «Toshavtobustrans», «Toshyo‘lovchi-ta‘mirservis» aksiyadorlik kompaniyalari va «Toshelektrotrans» davlat kompaniyasi ularni tugatish tartibotlari boshlangungacha huquq va majburiyatlarning yangidan tashkil etilayotgan «Toshshahartransxizmat» aksiyadorlik kompaniyasiga o‘tkazilishini amalga oshirsinlar.

10. O‘zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, «Toshshahartransxizmat» aksiyadorlik kompaniyasi belgilangan tartibda:

— 7-ilovaga muvofiq aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarining davlat ulushini nominal qiymati bo‘yicha, shuningdek boshqa tashkilotlarning mol-mulkinini balans qiymati bo‘yicha berish hisobiga «Toshshahartransxizmat» aksiyadorlik kompaniyasining boshlang‘ich ustav fondini shakllantirsinlar;

— tugatilayotgan «Toshshahartransxizmat» uyushmasi, «Toshavtobustrans», «Toshyo‘lovchita‘mirservis» aksiyadorlik kompaniyalari, «Toshelektrotrans» davlat kompaniyasi mol-mulkining qolgan balans qiymatini, mehnat huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan hamda budjetga, davlat maqsadli jamg‘armalariga, Ta‘lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash budjetdan tashqari jamg‘armasiga to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblar tugagandan keyin, «Toshshahartransxizmat» aksiyadorlik kompaniyasining ustav fondiga o‘tkazsinlar;

— «Toshshahartransxizmat» aksiyadorlik kompaniyasining aksiyalari chiqarilishini ta‘minlasinlar;

— «3-son tramvay-trolleybus deposi» va «Shahar elektr transportlariga xizmat ko‘rsatish sho‘basi» unitar korxonalarining 8-ilovaga muvofiq bo‘shab qolayotgan binolari va inshootlarini kimoshdi savdolarida sotsinlar.

«Toshshahartransxizmat» aksiyadorlik kompaniyasi aksiyalar chiqarilishining davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi uchun yig‘imlar to‘lashdan va chiqarilayotgan aksiyalarning Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysida hisobga qo‘yilishi bo‘yicha xizmatlarga haq to‘lashdan ozod qilinsin.

11. Belgilansinki:

— tashkil etilayotgan «Toshshahartransxizmat» aksiyadorlik kompaniyasi aksiyalarining davlat paketi o'zgalarga berilmaydi, shuningdek garovga qo'yilmaydi va ikkilamchi qimmatli qog'ozlarni chiqarishni ta'minlashga xizmat qilmaydi;

— «3-son tramvay-trolleybus deposi» va «Shahar elektr transportlariga xizmat ko'rsatish sho'basini» unitar korxonalarining qayta tashkil etilishi natijasida bo'shab qoladigan binolar va inshootlarga tutash hudud bilan birga, yangi mulkdorga sotilgunga qadar, mol-mulk solig'i va yer solig'i solinmaydi.

12. O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi, Toshkent shahar hokimligi Yo'lovchi transportining barcha turlari harakatini litsenziyalash va muvofiqlashtirish departamenti O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda:

— qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiquvchi o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsinlar;

— idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

1.4. Toshkent shahar hokimligi Yo'lovchi transportining barcha turlari harakatini litsenziyalash va muvofiqlashtirish departamenti

Toshkent shahri 260 km² maydonda joylashgan bo'lib, unda 2 mln.dan ko'p aholi yashaydi. Islom madaniyati markazi deb e'tirof etilgan Toshkent shahri Markaziy Osiyo mintaqasining yirik sanoat, ta'lim va madaniyat markazi bo'lib, rivojlangan transport-kommunikatsiya tizimiga ega.

Toshkent shahar yo'lovchilar transporti ijtimoiy-iqtisodiy muhitning muhim elementi hisoblanadi. Bozor munosabatlariga o'tish chog'ida yo'lovchilar transportining ahamiyati keskin oshib borib, jamoat transportidan aholi foydalanishi uchun keng imkoniyat yaratish ijtimoiy-iqtisodiy tartibga solish vositasi bo'lib xizmat qiladi va bozor munosabatlariga o'tish davrida muqarrar ravishda yuzaga keladigan jamiyatning mulkiy tabaqalanishi jarayonini yengillashtiradi.

Toshkent shahar hokimligi Yo'lovchi transportining barcha turlari harakatini litsenziyalash va muvofiqlashtirish departamenti

(keyingi o‘rinlarda Departament¹ deb ataladi) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqorida zikr etilgan «Toshkent shahrida yo‘lovchi tashish transportini tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2048-sonli Qarori va ««Toshshahartransxizmat» uyushmasi hamda Toshkent shahar hokimligi Yo‘lovchi transportining barcha turlari harakatini litsenziyalash va muvofiqlashtirish departamenti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi 262-sonli Qaroriga muvofiq tashkil etilgan bo‘lib, Toshkent shahar hokimligining transport sohasida litsenziyalash, boshqarish va muvofiqlashtirish, marketing tadqiqotlarini tashkil etish va yo‘nalishlar tarmog‘ini maqbullashtirish, yo‘lovchilar tashish bozorida mulkchilikning barcha shakllaridagi yo‘lovchi tashuvchilarning erkin raqobati uchun shart-sharoitlar yaratish, yo‘lovchilar tashish xavfsizligini ta‘minlagan holda ko‘rsatila-yotgan xizmatlarning sifat standartlariga va yo‘nalishlarning ish jadvallariga rioya qilish, haydovchilar tarkibining transport vositalarini saqlashdan manfaatdorligini oshirish masalalarini hal qilish uchun vakolatli tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi.

Departament o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati qarorlari va boshqa hujjatlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qarorlari va Farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga hamda departament to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq amalga oshiradi.

Departament yuridik shaxs hisoblanadi, alohida mulkka, mustaqil balansga, bank muassasalarida hisob-kitob va boshqa hisob raqamlariga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi yozilgan shtampga, ramzga va boshqa xizmat atributlariga, shuningdek, o‘z faoliyati uchun zarur bo‘lgan rekvizitlarga ega.

Departament o‘z nomidan shartnomalar tuzishi, mulkiy va nomulkiy huquqlarni olishi va amalga oshirishi, javobgar bo‘lishi, sudda da‘vogar va javob beruvchi bo‘lishi mumkin.

Barcha transport turlari harakatini muvofiqlashtirish, yo‘nalishlar tarmog‘ini tartibga solish va maqbul holga keltirish, litsenziyalar berish va yo‘lovchi tashish yo‘nalishlarini qat’iy tender asosida

¹ Departament fransuzcha (*departement*) so‘z bo‘lib, AQSH va Shveysariya davlatlarida vazirliklar shu nom bilan ataladi, bizda va boshqa ko‘pgina davlatlarda departament so‘zini davlat boshqarish organining bir bo‘lagi ma‘nosida qo‘llash qabul qilingan.

belgilash huquqiga ega bo'lgan holda shaharda yo'lovchi tashish bo'yicha buyurtmachi funksiyalarini bajarish, raqobat muhitini vujudga keltirish va barcha yo'lovchi tashuvchilar, shu jumladan, xususiy yo'lovchi tashuvchilar uchun transport xizmatlari bozorida teng sharoitlar yaratish, jamoat transporti ishi natijasi va samaradorligini baholash, Toshkent shahar hokimligiga shahar avtobus va elektr transportida yo'lovchilar tashishga cheklangan tariflar belgilash bo'yicha moliya organlari bilan kelishilgan takliflar kiritish va ularga rioya etilishini nazorat qilish, Toshkent shahrida yo'lovchilar tashishning avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini joriy etish, shu jumladan, yerusti yo'lovchi transportida yo'l haqi to'lash hisob-kitobi tizimini avtomatlashtirish va shahar yo'lovchi transporti harakat yo'nalishlarida nazorat o'rnatish Departamentning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Departament o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

— Toshkent shahrida yo'lovchi transporti barcha turlari faoliyatini muvofiqlashtiradi;

— shaharda yo'lovchi tashishning yagona buyurtmachisi vazifasini bajaradi, yo'lovchilar oqimi bo'yicha marketing tadqiqotlari olib borish asosida avtobus va mikroavtobus yo'nalishlarining zarur miqdorini belgilaydi, yo'nalishli va yengil avtomobil taksilarning maqbul sonini, shuningdek, shahar elektr transporti va metropoliten harakati yo'nalishlari bilan uzviy bog'lagan holda asosiy yo'lovchilar oqimlarini tartibga soladi, yo'nalishlarni belgilangan tartibda tasdiqlaydi;

— Toshkent shahrida avtomobil transportida yo'lovchilar tashish faoliyatiga litsenziya beradi;

— shahar yo'lovchi tashish yo'nalishlarini joylashtirish bo'yicha ochiq tenderlar tashkil qiladi va o'tkazadi, tender g'oliblari bilan yo'nalishda shahar transportida yo'lovchilar tashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish yuzasidan kontraktlar tuzadi;

— «Toshshahartransxizmat» uyushmasi taqdimnomasiga binoan transport tashkilotlarining yo'lovchilar tashish rejasini kelishib oladi;

— Toshkent shahrida yo'lovchi transportini rivojlantirish kompleks dasturlarini ishlab chiqishni tashkil etadi va ularning amalga oshirilishini nazorat qiladi;

— xalqaro normalarni hisobga olgan holda shaharda yo'lovchilar tashish faoliyatini tartibga solish standartlari, qoidalari, shakllari va metodlari bo'yicha ma'lumotlarning yagona axborot bazasini shakllantiradi;

— transport harakatini muvofiqlashtirishni va uning bir ma-romda faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, shuningdek, yo'lovchi tashuvchilarning yo'nalishlarda harakatlanishga rioya etishlarini nazorat qilish uchun shaharda yo'lovchilar tashuvlarini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etishni tashkil qiladi;

— Toshkent shahar hokimligi bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi bilan kelishgan holda yo'lovchi transportida yo'l haqi tariflarini shakllantiradi, yo'lovchi transportining zarar ko'rmasdan faoliyat ko'rsatishini hisobga olgan holda transportda yurish kartochkalariga chegirmalar miqdorini belgilaydi;

— yerusti yo'lovchi transportining barcha turlari uchun (taksi-dan tashqari) yo'l chiptalari, kartochkalar, shuningdek, fuqarolarning ayrim toifalari uchun avtobuslar, tramvaylar, trolleybuslar va metroda imtiyozli yurish huquqini beradigan hujjatlarning yagona shakllarini belgilangan tartibda ishlab chiqadi va tasdiqlaydi, yo'l kartochkalari miqdori va turlarini, shuningdek, yo'l kartochkalarini tarqatuvchi korxonalar ro'yxatini kelishadi;

— harakatdagi tarkib parkini yangilash, xizmatning normativ amortizatsiya muddatida yuqori darajada faol foydalanishni hisobga olgan holda transport vositalarining o'z xarajatlarini o'zi qoplashi bo'yicha prognoz hisob-kitoblarni amalga oshirish loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslashlarini ishlab chiqishda yo'lovchi tashuvchilarga metodologik va konsultativ yordam ko'rsatadi;

— yo'lovchi tashuvchilarning belgilangan shakllar bo'yicha hisobotlarini yig'ish va umumlashtirishni tashkil qiladi, yo'lovchi tashuvchilarning transportdan foydalanish va moliya-xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlarini ular tomonidan shartnomaviy majburiyatlarining bajarilishini tahlil qiladi, O'zbekiston Avtomobil va daryo transporti agentligiga hamda Toshkent shahar hokimligiga zarur hisobotlarni taqdim etadi.

Departament o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun:

— tender savdolari natijalari bo'yicha tuzilgan kontraktlar shartlariga rioya etilishini nazorat qilish;

— favqulodda vaziyatlarda, shuningdek, xizmat ko'rsatish huquqini yo'qotgan bitta tashuvchidan yo'nalishlarga xizmat ko'rsatish huquqlarini tender asosida aniqlanadigan boshqa tashuvchiga berish o'rtasidagi davrda ko'rsatib o'tilgan yo'nalishlarga


(tendersiz) to'liq yoxud qisman xizmat ko'rsatish huquqini va-
kolatli tashuvchilarga vaqtinchalik berish;

— yo'lovchi tashuvchiga aniqlangan buzilishlarni bartaraf
etish vazifasini yuklaydigan qarorlar chiqarish va buzilishlarni
bartaraf etish muddatlarini belgilash;

— transport vositalaridan foydalanish qoidalari buzilishida
aybdor bo'lgan shaxslarni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan
javobgarlikka tortish to'g'risida davlat tegishli organlariga takliflar
kiritish huquqiga ega.

Departamentni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
bilan kelishgan holda Toshkent shahar hokimi tomonidan lavozimga
tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan boshliq boshqaradi.
Departament boshlig'i maqomi va moddiy-maishiy ta'minoti
bo'yicha Toshkent shahar hokimi o'rinbosariga tenglashtiriladi.

Toshkent shahar hokimligi yo'lovchi transportining barcha
turlari harakatini litsenziyalash va muvofiqlashtirish departamenti
ijroiya apparatining tuzilmasi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Toshkent shahar hokimligi yo'lovchi transportining barcha turlari harakatini litsenziyalash va muvofiqlashtirish departamenti ijroiya apparatining tuzilmasi.

Bu o'rinda yana shuni ham eslatib o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Farmoni kuchga kirgunga qadar xususiy yo'lovchi tashuvchi (jismoniy shaxs sifatida) rasmiylashtirilgan bo'lib, yo'nalish hujjatlariga, tegishli haydovchilik malakasiga, yo'lovchilar tashish huquqini beruvchi litsenziyaga ega

**Litsenziya varaqalari bilan ta'minlangan avtomobillar
to'g'risida 01.10.08-yil holatiga ko'ra**

MA'LUMOT

№	Xo'jalik yurituvchi subyektlar	Toshkent shahri ro'yxatidan o'tgan avtotransport vositalari soni				Litsenziya varaqalari bilan ta'minlangan avtotransportlar soni			
		Yengil avtomobil	Kichik hajmdagi avtobus	Avtobuslar	Jami	Yengil avtomobil	Kichik hajmdagi avtobus	Avtobuslar	Jami
		«DAMAS»				«DAMAS»			
1	Yuridik shaxslarga tegishli avtotransport vositalari soni	19102	544	3206	22138	1323	123	1679	3125
		3036				152			
2	MCHJ, XK va boshqalar (xususiy avtomobillarni jalb qilib faoliyat ko'rsatayotganlar soni)	235474	1455	390	245219	923	1215	56	2194
		6056				542			
3	Viloyatlarda ro'yxatdan o'tgan avtotransportlar soni	—	—	—	—	94	110	7	211
						73			
4	HAMMASI	250826	1999	3596	267357	2246	1338	1735	5319
		10936				694			

Eslatma. Bugungi kunda Toshkent shahrida «Damas» rusumli yengil avtomobillardan faqat yo'nalishsiz taksi sifatida foydalanilmoqda.

bo'lishi, patent uchun haq to'lashi, shuningdek, (yuridik shaxs sifatida) soliqlar to'lashi va ta'mirlash bazasiga ega bo'lishi lozim edi. Haydovchini tibbiy ko'rikdan va transport vositasini texnik ko'rikdan o'tkazishga ko'pincha rasmiyatchilik sifatida qaralar, pirovard punktga «mutaxassis» kelib, har oyda beriladigan yo'l varaqalariga tibbiy va texnik ko'rik o'tkazilgani haqida shtamp bosar edi.

2006-yil aprelda davlat organlari tomonidan o'tkazilgan monitoringlar natijasida quyidagilar aniqlandi:

1. Yo'nalish hujjatlariga ko'ra 12 mashina ishlashi kerak bo'lgan joyda 20 mashina ishlayapti (shahar avtobus yo'nalishlaridagi yo'l kira haqini to'laydigan yo'lovchilarni olib ketyapti).

2. Ko'pchilik litsenziyasiz va boshqa ruxsatnomalarsiz ishlayapti.

3. Oldindan qo'yilgan tibbiy va texnik ko'rikdan o'tganlik haqidagi belgilar bilan ishlayapti, natijada, yo'l-transport hodisalari soni ko'paymoqda, yo'lovchilar hayoti xavf ostida qolmoqda.

4. Ayrim 13 o'rindiqli mashinalarga 15 o'rindiq o'rnatilgan, o't o'chirgich va zaxira ballonlar bo'lmagan.

5. Xohlagan paytda ishni boshlaydilar va tugatadilar.

Departament o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni a'lo darajada bajarishga intilib, yaxshi natijalarga erisha bordi. Bunga 2008-yil to'qqiz oyi davomida departament tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarga berilgan litsenziya varaqlari va kartochkalari miqdori dalil bo'la oladi.

2. YO'LOVCHI TASHUVCHI AVTOTRANSPORT KORXONALARI FAOLIYATI VA UNI TASHKIL ETISH

2.1. Avtomobil transportida mulkchilik shakllari va xo'jalik yurituvchi subyektlar

Iqtisodiy faoliyat erkinligi, xo'jalik yurituvchi subyektlarning turliligi va teng huquqliligi, ular o'rtasidagi raqobat, tadbirkorlik tashabbuskorligi, o'zini o'zi boshqarish va moliyalashtirish kabi bozor tamoyillari, o'z navbatida, ularga mos keluvchi mulkchilik shakllari va munosabatlarini shakllantirishni talab qiladi.

Har qanday tadbirkorlik faoliyatida ishlab chiqarish omillari (pul, ishchi kuchi, ishlab chiqarish vositalari) kimningdir mulki bo'ladi.

Mulk o'zi nima? Mulk — ishlab chiqarilgan moddiy ne'matlarni o'zlashtirishning ijtimoiy shaklidir.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish, avvalambor, xususiy mulkchilik shakllari va munosabatlarini joriy etishni va shu maqsadda davlat mulkini xususiylashtirishni taqozo etadi.

Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishi bilan xususiy mulkchilik huquqini rivojlantirish maqsadida fuqarolik qonun hujjatlariga mutlaqo yangi me'yorlar kiritildi.

Mulkchilik huquqi isloh qilingandan keyingina O'zbekistonda ishlab chiqarish vositalari, boshqa mol-mulklar haqiqiy egalari qo'lga topshirilishi va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun asos bo'lishi mumkin edi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida «O'zbekistonning bozor munosabatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan iqtisodiyotning asosini xilma-xil shakllardagi mulkchilik tashkil etadi» deb belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 19-noyabrda qabul qilingan «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi Qonuni mulkchilik haqidagi qonunni ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni ta'minladi, davlat mulkini turli xil jamoa va xususiy mulklarga aylantirish jarayonini tezlatdi.

Bu yerda yana shuni eslatib o'tish joizki, davlat mulkini xususiy-
lashtirish davlat mulkining yo'q bo'lib ketishini anglatmaydi.
Har qanday jamiyatda ham davlat mulki saqlanib qoladi va u
ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash va aholi ehtiyojlarini
qondirish uchungina emas, balki davlatning o'zini yashab turishi
uchun ham zarurdir.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonun hujjatlariga
muvofiq mulkchilik xususiy va ommaviy shakllarga bo'linadi.

Yangi fuqarolik qonun hujjatlari bo'yicha joriy etilgan
chegaralashga ko'ra, fuqarolar va yuridik shaxslar xususiy mulk-
dorga, davlat va boshqa ommaviy tuzilmalar esa ommaviy
mulkdorga aylandilar.

O'zbekiston davlat mulkining yangi huquqiy maqomi Fuqarolik
kodeksida mustahkamlab qo'yildi. Ushbu kodeksga muvofiq
respublika mulkidan va ma'muriy-hududiy tuzilmalar mulkidan
iborat davlat mulki ommaviy mulk deb ataldi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga muvofiq
yer, yerosti boyliklari, suv, havo bo'shlig'i, o'simlik va hayvonot
dunyosi va boshqa tabiiy resurslar Respublika mulki hisoblanadi.

Mahalliy budjet mablag'lari, munitsipal uy-joy fondi, kom-
munal xo'jaligi va boshqa mulkiy komplekslar Davlat hokimiyati
mahalliy organlarining mol-mulki hisoblanadi.

Alohida shaxslarga va xo'jalik yurituvchi subyektlarga tegishli
bo'lgan mol-mulklar xususiy mulk deb ataladi.

Xususiy mulk, asosan, bir shaxsga tegishli mulk, oila mulki,
jamoat mulki, shirkat mulki, qo'shma mulk, hissadorlik mulki kabi
shakllarda bo'ladi.

Respublikada iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida, aso-
san, kichik korxonalar, maishiy xizmat muassasalari xususiy-
lashtirila boshlandi. 1994-yilga kelib esa o'rta va yirik korxonalar
ham xususiylashtirila boshlandi.

Xususiylashtirishning dastlabki paytlaridan boshlab, mulk-
chilikning barcha shakllariga mansub korxonalarining amalda teng
huquqliligini joriy etishni ta'minlaydigan huquqiy va tashkiliy
chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqildi. Masalan:

— 1997-yil 25-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respub-
likasining «Shahar yo'lovchi transporti to'g'risida»gi Qonunining
4-moddasida «Shahar yo'lovchilar transporti ommaviy yoki xu-
susiy mulk asosida ishlashi mumkin» deb qayd qilingan;

— 1998-yil 29-avgustda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining «Avtomobil transporti to‘g‘risida»gi Qonunining 4-moddasi «Avtomobil transportining mulk shakllari» deb nomlanadi va unda «O‘zbekiston Respublikasida avtomobil transporti xususiy va ommaviy mulk asosida faoliyat ko‘rsatishi mumkin. Avtomobil transportining barcha mulkdorlari teng huquqlarga egadirlar va qonun himoyasidan bab-baravar foydalanadilar» deb yozib qo‘yilgan.

Bozor iqtisodiyotida mulkchilikning har xil shakllari orasidagi erkin raqobatni ta‘minlash uchun birinchi galda monopoliyaga qarshi iqtisodiy islohotlarni o‘tkazish va ularni huquqiy ta‘minlash zarur edi.

Bozorlarni monopoliyadan chiqarish deganda monopoliyani butunlay yo‘qotish tushunilmasligi kerak. Ijtimoiy zarur, lekin ziyon ko‘rib ishlaydigan tarmoqlarning davlat monopoliyasi bo‘lib qolishi va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi shart. Yonilg‘i-energetika, tog‘-kon sanoati, paxtani qayta ishlash va h.k. davlat monopoliyasi saqlanib qolishi kerak.

Xalq xo‘jaligining ko‘pchilik tarmoqlarini atroflicha o‘ylanmagan holda xususiylashtirish va monopoliyadan chiqarishlar tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmining keskin pasayib ketishiga, hatto to‘xtatib qo‘yishgacha olib kelganiga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Shu bilan bir qatorda, tarmoqlarning ba‘zi turlari davlat tasarrufidan chiqarilganidan keyin ham ular tomonidan monopol hukmronlik saqlanib qolganligi natijasida ko‘proq foyda ko‘rish ishtiyoqi narxlarni o‘z bilganicha belgilashiga, o‘z tovar va xizmatining sifatini oshirishga urinmasligi keyinchalik ularning o‘zini iqtisodiy qiyinchiliklarga olib kelib qo‘ydi. Bunday voqealar boshqa sohalar kabi avtomobil transportida ham sodir bo‘ldi (narxlarning yuqoriligi va transport xizmati sifatining pastligi ko‘pgina avtokorxonalarining yo‘q bo‘lib ketishiga, ko‘pchilik tarmoqlar esa o‘z tarkibida alohida transport bo‘limlarini tashkil etishiga olib keldi).

Avtomobil transporti sohasida monopoliyadan chiqarish va boshqaruvni takomillashtirish ishlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 4-iyundagi «Avtomobil transporti sohasida monopoliyadan chiqarish va boshqaruvni takomillashtirish to‘g‘risida»gi Farmonidan so‘ng tez sur‘atlar bilan amalga oshirila boshlandi.

O‘zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligi to‘g‘risida»gi Qonunining asosiy vazifasi fuqarolarning tadbirkorlik

faoliyatida erkin ishtirok etishi va manfaatdorligi uchun kafolatlar hamda sharoitlar yaratishdan, ularning ishchanlik faoliyatini oshirishdan, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat deb belgilab qo'yilgan.

Qonunda tadbirkorlik faoliyatiga quyidagicha ta'rif berilgan: tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat.

Tadbirkorlik faoliyati mulkiy munosabatlarni taqozo etadi va ular doirasida amalga oshiriladi. Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti sharoitida shakllangan va tobora rivojlanib borayotgan tadbirkorlik mulkchilikning quyidagi shakllariga:

- tadbirkorning o'z mol-mulki;
- boshqa jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulki;
- davlat va jamoat tashkilotlari mol-mulkini ijaraga olish;
- yuqoridagi mulkchilik shakllarining kombinatsiyasiga asoslanadi.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlariga belgilangan tartibda ro'y-xatdan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar kiradi.

O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik to'g'risida»gi Qonuniga binoan tadbirkorlik faoliyatining quyidagi turlari mavjud:

- yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati;
- xususiy tadbirkorlik faoliyati (yollanma ishchi kuchidan foydalanib olib boriladigan tadbirkorlik);
- shirkat tadbirkorligi;
- aralash tadbirkorlik.

O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun korxonalar tashkil etilishi kerak va ular quyidagilarga bo'linadi:

- to'liq shirkat;
- kommandit shirkat;
- aksiyadorlik kommanditi;
- mas'uliyati cheklangan jamiyat;
- qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat;
- aksiyadorlik jamiyati.

Ishtirokchilari shirkat nomidan o'zaro tuzilgan shartnomaga muvofiq tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan va uning

majburiyatlari bo'yicha o'zlariga tegishli barcha mulk bilan javobgar shirkat to'liq shirkat deb ataladi.

Shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan va uning majburiyatlari bo'yicha o'zlariga tegishli barcha mulk bilan javobgar bo'lgan ishtirokchilar (to'liq sheriklar)dan tashqari shirkat faoliyati bilan bog'liq zararni qoplash uchun qo'shilgan summa yoki badallar chegarasida tavakkal qiladigan va shirkat amalga oshiradigan tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etmaydigan bir yoki bir necha ishtirokchilari (omonatchilar, kommanditlar) bor shirkat kommandit shirkat deb hisoblanadi.

Shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan va shirkat majburiyatlari bo'yicha butun mulki bilan javobgar hisoblangan bir yoki bir nechta ishtirokchi (to'liq sherik)dan tashqari shirkatning aksiyalarga joylashgan Ustav (nizom) fondining bir qismini shakllantirishda qatnashadigan va shirkat faoliyati bilan bog'liq zararlarni qoplash uchun o'zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida tavakkal qiladigan ishtirokchilari (kommandit aksiyalar) ham mavjud shirkat aksiyadorlik kommanditi deb e'tirof etiladi.

Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilishning eng keng tarqalgan (xususan, avtotransportda ham) shakllaridan biri mas'uliyati cheklangan jamiyat hisoblanadi va ularning nomiga aksariyat hollarda LTD, ya'ni «limited» (cheklangan) so'zi qo'shiladi. Yo'lovchi tashish maqsadida tashkil etiladigan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarni tuzish tartibi keyingi bo'limda to'liq bayon etiladi.

2.2. Yo'lovchi tashuvchi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 9-martdagi «Avtomobil transportida yo'lovchilar tashish sohasidagi tadbirkorlik faoliyatining alohida turlarini amalga oshirishni tartibga solish to'g'risida»gi 303-sonli Qaroriga ko'ra, avtomobil transportida yo'lovchilarni shahar, shahar atrofi, shaharlararo, xalqaro yo'nalishlarda tijorat asosida tashish faoliyati faqat yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladi deb ta'kidlab qo'yilgan.

Tadbirkorlik subyektlari (jismoniy shaxslar) tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari, o'z huquqlarini hamda manfaatlarini himoya qilish maqsadida o'z mol-mulki asosida yoki jalb etilgan mol-mulk asosida o'zaro birlashib tashkil etgan jamiyatlar mas'uliyati cheklangan jamiyatlar (MCHJ) deb ataladi va ular O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 39-moddasiga ko'ra, yuridik shaxs hisoblanadi.

MCHJ ta'assischilarning jamiyatga qo'shgan ulushlari asosida tashkil topadi va u quyidagi usullar orqali tarkib topishi mumkin:

- xususiy avtomobillarni jismoniy shaxslardan ijaraga olib;
- bankdan olingan kreditga avtomobillar xarid qilib;
- lizing kompaniyalaridan avtomobillarni lizing shartnomasini tuzish orqali olib.

Bugungi kunda MCHJning asosiy qismi jismoniy shaxslarning avtomobillarini ijaraga olish orqali tashkil etilyapti. Buning uchun avtomobil egasi (ijaraga beruvchi) va MCHJ (ijaraga oluvchi) o'rtasida ijara shartnomasi tuziladi.

Ijara shartnomasida quyidagilar qayd qilinishi kerak:

1. «Ijaraga beruvchi» «Ijaraga oluvchi»ga ijaraga berilayotgan avtomobilga (transport vositasi) o'z vaqtida texnik xizmat ko'rsatish sharti bilan vaqtinchalik egalik qilish va foydalanish uchun topshirilishi.

2. Ijara muddati.

3. Ijara haqining miqdori va uni to'lash bilan bog'liq bo'lgan shartlar (ijara haqini to'lash sanasi).

4. «Ijaraga beruvchi»ning majburiyatlari.

5. «Ijaraga oluvchi»ning majburiyatlari va huquqlari.

6. Shartnoma muddatini uzaytirish yoki bekor qilish tartibi va h.k.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ustav fondi aksiyadorlik jamiyatlariga qaraganda bir necha marta kam bo'ladi. Bunday jamiyat ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydi va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zi qo'shgan badal qiymati doirasida tavakkal qiladi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ta'assischilari imzolagan shartnoma ta'assischilar tasdiqlagan ustav hisoblanadi. Agar mas'uliyati cheklangan jamiyatni bir kishi ta'assis qilsa, uning ta'assis hujjati ustav hisoblanadi.

Ustav fondining miqdori ta'assischilarning qo'shgan ulushi orqali aniqlanadi va Ustav fondida qayd qilinadi. Ustav fondining miqdorini faqat davlat hisobga olish reyestrda qayd qilinganidan keyingina o'zgartirish mumkin.

Toshkent shahrida MCHJning ustavi Toshkent shahar hokimining 2006-yil 27-martdagi «Toshkent shahrida avtomobil transportida yo'lovchilar tashish sohasidagi tadbirkorlik faoliyatining alohida turlarini amalga oshirishni tartibga solish to'g'risida»gi 146-sonli qarorining 2-ilovasida keltirilgan shaklda tuzilishi mumkin.

Qarorda tavsiya etilgan ilovaga ko'ra, mas'uliyati cheklangan jamiyatning Ustavi uning titul varag'idan boshlanadi. Titul varag'ining yuqori chap tomonida MCHJning qaysi davlat organida ro'y-xatga olingani va reyestr raqami ko'rsatiladi. Varaqning yuqori o'ng burchagida ta'sischilarning yig'ilishi o'tkazilgan va tasdiqlangan sanasi hamda bayonnoma raqami ko'rsatiladi va umumiy yig'ilish raisi tomonidan tasdiqlanadi.

Titul varag'ining o'rtasida mas'uliyati cheklangan jamiyat nomi yoziladi.

MCHJning ustavi bir qancha bo'limlardan iborat bo'ladi.

Ustavning birinchi bo'limi umumiy qoidalar deb nomlanib, unda ta'sischilar to'g'risidagi (ta'sischilarning ism-sharifi, yashash manzili, MCHJning nomi, filiallari, joylashgan manzili hamda qaysi qonun yoki hujjatlar asosida faoliyat ko'rsatishi) ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Ustavning ikkinchi bobida uni tashkil etishdan iborat bo'lgan asosiy maqsad foyda olish ekanligi, buning uchun esa u qanday faoliyat turlari bilan shug'ullanishi (litsenziya asosida aholiga transport xizmatini ko'rsatish, tashqi iqtisodiy aloqalarni o'rnatish, O'zbekiston qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari) sanab o'tiladi.

Ustavning uchinchi bo'limida ko'pchilik MCHJ o'zining Ustav fondi bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni, masalan, Ustav fondining umumiy miqdori, manbalari, ta'sischilarga tegishli bo'lgan ulushning nominal qiymati va ularning ulush miqdorlari, bu ulushlarni ular qaysi muddatda kiritishlari kerakligi, Ustav fondini oshirish yoki kamaytirish tartibi, qatnashchilarni jamiyatga a'zo qilish yoki undan chiqarib yuborish tartibi va boshqalarni ko'rsatadi. Jamiyatning Ustav fondi miqdorini faqat ta'sischilar o'z ulushlarini to'liq kiritganlaridan so'nggina ko'paytirishlari mumkinligi alohida qayd qilinadi. Bunda Ustav fondining miqdori ta'sischilarning qo'shimcha ulushlari yoki jamiyat hisobidan ko'paytirilishi mumkin. Jamiyat ta'sischilarga tegishli bo'lgan ulushlarning nominal qiymatini yoki Jamiyatga tegishli bo'lgan ulushlarni to'lash yo'li bilan Ustav fondi qiymatini kamaytirishi ham mumkin. Jamiyatning Ustav fondini kamaytirish yoki ko'paytirish to'g'risida qaror qabul qilinganida, shu kundan boshlab 30 kun davomida bu to'g'rida barcha kreditorlar ogohlantirilishi va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi kerak. Ustavning ushbu moddasiga ko'ra,

ta'sischi o'z Ustav fondidagi ulushlaridan voz kechishlari yoki boshqa ta'sischi o'z ulushlarini sotishlariga ham ruxsat etiladi.

Jamiyat Nizom fondidagi ulushlarning kamida 10 % ga ega bo'lgan ta'sischi jamiyat oldida o'z majburiyatlarini qo'pol ravishda buzgan yoki uning faoliyat ko'rsatishiga xalaqit berayotgan ta'sischini sud orqali jamiyatdan chiqarilishini talab etishi mumkin. Jamiyatdan chiqqan ta'sischi ulushi jamiyat hisobiga o'tadi.

Ustavning 5-bo'limida Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati natijasida vujudga kelgan sof foyda ta'sischi o'rtasida ularning Nizom fondiga kiritilgan ulushlariga teng miqdorda moliyaviy yil natijalari bo'yicha taqsimlanishi, foydani taqsimlash to'g'risida qaror ta'sischi ulushlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinishi ta'kidlanadi.

Ta'sischi ulushlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi Ustavning 6-bo'limida sanab o'tiladi.

Ustavning 7-bo'limida uning boshqaruv organi, uning huquqlari, majburiyatlari va vakolatlari qayd qilinadi.

Jamiyat faoliyatini yuritish, hisob, hisobot va nazorat masalalari Ustavning keyingi 8-bobida, Jamiyat hujjatlarini yuritish tartibi 9-bobda, Jamiyatni qayta tashkil etish yoki tugatish tartibi 10-bobda qayd qilingan.

2.3. Avtomobil transportida raqobat, uning turlari va transport xizmati bozori

Har qanday ijtimoiy tuzumda raqobat muayyan ijtimoiy vazifalarni bajaradi.

Raqobat deganda bir maqsad sari ijtimoiy subyektlarning faol musobaqadagi o'zaro munosabatlari tushuniladi.

Raqobat tufayli uning ishtirokchilari raqobatda yutib chiqishi uchun boshqa raqobatchilarning faoliyatini kuzatib boradi, tahlil qiladi va qiyoslash natijalariga qarab maqsadga erishishning eng maqbul yo'llarini tanlaydi.

Demak, raqobat mahsulot (xizmat) birligiga mehnat sarfini kamaytirishga, eng mukammal texnologiyalarni ishlab chiqishiga va qo'llashga, mahsulot sifatini yaxshilash va narxini kamaytirishga olib keladi.

Asrimizning eng buyuk tadbirkorlaridan biri — mashhur «Soni» kompaniyasining boshlig'i yaponiyalik Akio Morita shunday deydi:

«Yapon biznesining shuhrati ham, keskir qilichi ham, sanoatimizni harakatlantiruvchi kuch — bu o'sha marhamatli kuch — marhamatli raqobat hisoblanadi».

Bugungi kunda raqobatning to'rt modeli mavjud:

1. Mukammal (sof) raqobat. Sof raqobat bozorda o'z tovar yoki xizmatlarini subyektlar va ularga ehtiyoji bo'lgan talabgorlarning ko'pligi bilan tavsiflanadi. Masalan, yengil avtomobillarda xizmat ko'rsatuvchilar (taksistlar) va mijozlarning ko'pchiligi to'plangan joy. Bu yerda avtotransport egalarining hech biri transport xizmati narxiga alohida ta'sir eta olmaydi, aks holda uning xizmatidan hech kim foydalanmay qo'yishi mumkin. Ijtimoiy nuqtayi nazardan xalqimiz uchun shunday raqobatli bozorning mavjudligi juda ham maqsadga muvofiqdir.

2. Monopolistik raqobat. Bunday raqobatda raqobatchilar anchagina bo'lishiga qaramay, bozor narxlarini nazorat qilish imkoniyati bo'lmasa-da, unga qisman ta'sir etishlari mumkin. Monopolistik raqobatga xos bo'lgan muhim belgilardan biri tovarlarni tabaqalashtirishga intilishdir. Masalan, avtobus o'rindiqlarining qattiq yoki yumshoqligi, avtobusning yangi yoki eskiligi, xuddi shunday boshqa transport vositalarining ham ayrim belgilariga qarab transport xizmati narxini belgilash.

3. Oligopoliya raqobati sharoitida tarmoqda bir necha taklif etuvchi subyektlar bo'lib, ularning har biri bozorning katta qismini egallaydi. Bunday sharoitda subyektlar o'zaro bog'lanib qoladi. Ularning har biri o'z harakati bilan raqiblarga bevosita ta'sir ko'rsatadi va ularning ta'sirida bo'ladi.

Masalan, bir yo'nalishda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatayotgan transport korxonasi har xil mulkchilik subyektlariga tegishli bo'lsalar, ular transport xizmatini ko'rsatish narxini o'zgartirish orqali boshqalariga ta'sir o'tkazadilar. Yana shuni ham eslatib o'tish joizki, oligopoliya raqobatida subyektlar o'zaro til biriktirib olishlari ham mumkin.

Xo'jalik subyektlarining raqobatni jiddiy cheklashga olib keladigan noqonuniy kelishuvlariga yoki o'zaro kelishilgan faoliyatiga qarshi kurashish bozor iqtisodiyoti davlatlarida antimonopol qonun hujjatlari yordamida hal qilinishi kerak bo'lgan eng asosiy vazifalardan biridir.

4. Mukammal (sof) monopoliya. Bu raqobatda bir-biriga yaqin bo'lmagan mahsulot ishlab chiqaruvchi subyekt faoliyat ko'rsatadi. Bu yerda bozor tanho yoki ularga o'xshaganlarning soni deyarli

sanoqli bo'radi. Shuning uchun monopoliya bozorda mahsulotning hajmi (taklif hajmi) va narxiga hech bir qiyinchiliklarsiz ta'sir o'tkazadi.

Bugungi kunda barcha davlatlarda jamiyatning eng muhim ehtiyojlariga xizmat ko'rsatadigan tarmoqlar: elektr ta'minoti, havo va temiryo'l transporti va shu kabilar tabiiy monopoliyalar qatoriga kiradi.

Bulardan ko'rinib turibdiki, monopoliyalar (mahsulot ishlab chiqaruvchi subyektlar xoh davlat yoki xoh nodavlat mulkchiligida bo'lsin) davlat tomonidan boshqarilishi kerak.

Monopoliyalarning davlat tomonidan boshqarilishi, bir tomondan, monopolistga mahsulot birligini ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlarni ta'minlashga, ikkinchi tomondan, xarajatlarning iqtisod qilinishidan ishlab chiqaruvchigina emas, balki, birinchi navbatda, iste'molchilar foyda ko'rishiga xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi va mukammallashtirib borilgan sari raqobatning shakli va usullari ham o'zgarib boradi.

Jahondagi barcha mamlakatlarda qonuniy hisoblangan va amalda keng qo'llanib kelinayotgan raqobatning quyidagi shakllari mavjud.

Narx bilan raqobatlashuv. Bu shaklning bir nechta usullari mavjud bo'lib, ulardan eng asosiysi «narxlar jangi» deb ataladi. Bu usulda yirik ishlab chiqaruvchilar raqiblarini tarmoqdan siqib chiqarish maqsadida narxlarni vaqt-vaqti bilan yoki uzoq muddatga pasaytirib turadi. «Narxlar jangi»da baquvvat firma tovarning sotilishi hajmini ko'paytirish hisobiga ko'proq daromad ko'rishni ko'zlaydi. Masalan, ko'pgina MCHJlarning yo'nalishli taksilardagi yo'l kira haqi shu yo'nalishda qatnashayotgan avtobuslarning yo'l kira haqiga teng bo'lgani uchun yo'lovchilar ulardan ko'proq foydalanib keldilar. Yo'lovchilar dastlab tarmoqdagi «narxlar jangi»dan foyda ko'radilar, ammo keyinchalik bunday monopoliyalashtirishning «jabrini tortishlari» ham mumkin. Masalan, yo'lovchilar yo'nalishli taksilardan ko'proq foydalanayotgani sababli ko'pgina yo'nalishlarda ishlash uchun zarur bo'lgan avtobus soni kamayadi. Buning natijasida avtobuslarning harakat intervali ortib ketadi. Bu esa, birinchi galda, davlat tomonidan yo'lovchilarning ba'zi toifalariga berilgan imtiyozlardan foydalanish samarasining keskin kamayishiga, boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy himoyani yo'qqa chiqarib qo'yishi mumkin.

Demping, amal qilish va maqsadlariga ko'ra «narxlar jangi»ga yaqin bo'lib, narx bilan raqobatlashuv usuliga kiradi. Uning

mohiyati shundaki, yirik tovar ishlab chiqaruvchilar boshqa mamlakatlar hududida korxonalar qurmaydilar, ammo uning bozorlariga o'z ichki bozoridagi narxlardan, ayrim hollarda hatto mahsulotning tannarxidan ham past bahoda mahsulotlarini kiritadilar. Dampingning ma'nosi shuki, tovar ishlab chiqaruvchi mamlakatning ichki bozorida narxlarni sotilayotgan ortiqcha mollarni yo'qotish va yangi bozorlarga so'zsiz qoniqtirishi bilan birga, mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilarning rivojlanishiga keskin to'sqinlik holatlari vujudga kelganida davlat bu jarayonni savdo cheklashlarini joriy qilish, muayyan turdagi tovarlarni kiritish uchun bojlarini ko'tarish bilan nazorat qilishi mumkin (chetdan kiritilayotgan avtomobillar uchun bojxona narxi).

Narx bilan raqobatlashuv usullariga yana quyidagilarni misol qilib ko'rsatish mumkin:

- muayyan toifadagi iste'molchilar uchun imtiyozli narxlar;
- vaqti va joyiga qarab narxlarni tushirish va yoki ko'tarish (transport xizmati takliflari talabga qaraganda sezilarli darajada kam bo'lgan vaqt va joylarda);
- ko'rsatilgan xizmat hajmiga qarab narxni pasaytirish;
- xaridorlar uchun kreditlar tashkil etish va boshqalar «narxsiz raqobat».

Narx bilan raqobatlashuvga kirmaydigan raqobat usullari «narxsiz raqobat» deb ataladi:

- ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hisobiga ko'proq foyda olishni ta'minlash;
- bozorda yuqori sifatli tovarlar (xizmat) bilan ishtirok etib, boshqa raqiblardan o'zib ketish;
- xizmat ko'rsatish sifatini oshirish orqali ko'proq foyda olishni ta'minlash;
- sotilgan tovar uchun ma'lum muddat servis xizmatini ko'rsatish orqali yutib chiqish va boshqalar.

Har qanday tuzumda jamiyatning tovarlar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyoji «talab» deb ataladi. Ana shu ehtiyojlarni unga bo'lgan takliflar vositasida qondirish mumkin. Avval aytib o'tilganidek, talab bilan taklif uchrashgan har qanday joy «bozor» deb yuritiladi. Demak, bozor ikki xil ishtirokchilar uchrashadigan joy bo'lib, ulardan birinchisi tovar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchilar bo'lsa, ikkinchisi ularni sotib oluvchilar ekan.

Hozirgi paytda tovarlarning oldi-sotdi jarayoni mijozlarga buyurtmalarni telefon orqali yig'ib olib, zamonaviy yer yo'ldosh-

lari orqali amalga oshiriladigan aloqa vositalari yordamida ham sotish mumkinligini hisobga olib, o'zbek marketing olimlaridan biri bo'lgan S.A. Salimov rivojlangan jamiyatda bozor, bu, albatta, xaridor va sotuvchilar uchrashadigan jismoniy joy emasligini ta'kidlaydi.

Bugungi kunda bozorlarning bir-biridan har xil belgilari bilan farq qiluvchi turlari mavjud. Joylashishiga qarab bozor ichki va tashqi bozorlarga bo'linadi. Biron-bir ma'muriy hudud (respublika, viloyat, shahar va hokazo) ichidagi barcha bozorlar ichki bozorlar toifasiga kiradi. Tashqi bozorlar toifasiga O'zbekistonning tashqarisidagi bozorlar kiradi. Savdo-sotiq shakliga qarab bozorlar ko'tara va chakana savdo bozorlariga bo'linadilar. Ma'lum tovarlarni sotishga ixtisoslashganiga qarab bozorlar quyidagi turlarga ajratilishi mumkin:

- buyum bozori;
- dehqon bozori;
- mehnat bozori;
- qimmatbaho qog'ozlar bozori;
- avtomobillar bozori;
- transport xizmati bozori va hokazo.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish boshlanguniga qadar transport ishi-ning samaradorligi bajarilgan ish hajmi (tonna va tonna-kilometrlar yoki yo'lovchi va yo'lovchi-kilometr) bilan baholanar edi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida transport ishiga yangicha yondashish zarurligi, ya'ni bozor iqtisodiyotining asosiy tushunchalaridan biri bo'lgan «xizmat» tushunchasidan foydalanish zarur ekanligini ko'rsatdi.

ISO 8402-86 standartida «xizmat» deb materiallashtirilmagan mahsulot yaratish faoliyati va jarayonlariga aytiladi.

Yo'lovchi avtomobili transportining xizmatlariga quyidagilar kiradi:

- vokzallar, shohbekatlar va oraliq bekatlarda bilet sotish;
- o'rinlarni avvaldan band qilish;
- yo'lovchilarga harakat jadvali bo'yicha ma'lumotlar berish;
- qo'l yuki, bagaj va yo'lovchilarni tashish;
- bagajni rasmiylashtirish bo'yicha ma'lumotlar berish;
- yo'lovchilarga tibbiy xizmat ko'rsatishni tashkil etish;
- yo'lovchilarni avtobuslarga chiqarish va tushirish ishlarini bajarish;
- yuklarni saqlash xizmatlari;

— yo‘lovchilar transportda ketayotganida dam olib ketishini ta‘minlash;

— harakatlanuvchi tarkibni tashishga tayyorlash;

— transport-ekspeditsion xizmatlari va boshqalar.

Xo‘jalik yurituvchi turli-tuman subyektlar (shirkatlar, AJ, MCHJ, XK va hokazo)ning bo‘lishi transport xizmati bozori shaklining ham o‘zgarishiga olib keldi. Bugungi kunda mavjud transport xizmati bozorini quyidagicha tasvirlash mumkin (3-rasm).


Rasmdan ko‘rinib turibdiki, transport xizmati bozorida O‘zbekiston Respublikasida mavjud bo‘lgan barcha transport turlari o‘z xizmatlarini taklif etishlari mumkin. Shuning uchun raqobat, birinchi galda, mavjud transport turlari orasida vujudga keladi.

Agar ma‘lum bir hududdagi, masalan, Toshkent shahridagi transport xizmatlari bozorini ko‘radigan bo‘lsak, bu yerda quyidagi transport turlari orasida raqobat vujudga keladi (metropoliten, tramvay, trolleybus, avtobus va yengil avtomobillar). Respublikamizning ba‘zi bir shaharlarida yo‘lovchilarni trolleybuslarda ham tashish yo‘lga qo‘yilgan. Bunday shaharlarda, tabiiyki, avtomobil va trolleybus transportlari orasida raqobat mavjud bo‘ladi.

Rasmdan ko‘rinib turganidek, tashish bilan shug‘ullanuvchi transport korxonalari ham har xil bo‘lganligi sababli tarmoq ichida ham raqobat vujudga keladi. Tarmoq ichidagi raqobatning eng afzal tomoni shundan iboratki, u tadbirkorlik subyektlaridan transport xizmati ko‘rsatish turlarini ko‘paytirish va sifatini yaxshilash, ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyalarni joriy qilishni talab etadi.


Avval aytib o‘tilganidek, davlat tasarrufidagi korxonalarni xususiylashtirish jarayonida ularning asosida o‘rta va kichik korxonalar vujudga kelishi hamda xususiy mulkchilikning vujudga kelishi oqibatida kichik va o‘rta biznesning rivojlanishi uchun keng istiqbolli imkoniyatlarning ochilishi yo‘lovchi tashishda xususiy tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi subyektlarning qaror topishiga olib keldi. Bu esa avtomobillarda yo‘lovchi tashuvchi korxonalar orasidagi raqobatning yanada kuchayishiga olib keldi. Avtomobillarda yo‘lovchilar tashishda transport xizmatini ko‘rsatish sifatining eng asosiy ko‘rsatkichlari 4-rasmda ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 9-martdagi «Avtomobil transportida yo‘lovchilar tashish sohasidagi tadbirkorlik faoliyatining alohida turlarini amalga oshirishni tartibga solish to‘g‘risida»gi 303-sonli Farmoniga ko‘ra, faqat yuridik shaxslarga



37

3-rasm. Transport xizmati bozori sxemasi.



4-rasm. Aholiga transport xizmati ko'rsatish sifatining turlari va ko'rsatkichlari.

tijorat asosida yo'lovchilar tashishga ruxsat berilishi MCHJ sonining yanada ortishiga olib keldi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda endilikda MCHJni tuzish va ularning faoliyatini tashkil etish eng muhim masalalardan biriga aylanganini ko'rish mumkin.

Xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari kabi avtotransportning bozor iqtisodiyotiga o'tishi ishni yangicha tashkil etish, transport xizmati bozorining tashkil topishi, har xil turdagi transport turlari va mulkchilikdagi egalari orasidagi raqobatning vujudga kelishi bilan tavsiflanadi.

Ayonki, hech bir korxonalar bozor talablarini bilmay turib, o'z ishini to'g'ri tashkil eta olmaydi va ko'rsatgan transport xizmatlari uchun yuqori foyda olmaydi, demak, raqobatda yutib chiqa olmaydi. Buni avtotransport korxonalarining o'tgan davrdagi faoliyatidan ham ko'rish mumkin. Bir paytlar 2000—3000 dona avtotransport vositasiga ega bo'lgan korxonalar juda kichik korxonalariga aylanib qoldi, ba'zilar esa butunlay yo'q bo'lib ketdi.

Bozorni tadqiq qilish obyektlariga transport xizmatini ko'rsatuvchi subyektlar (korxonalar), transport xizmati turlari, transport xizmatidan foydalanuvchilar, transport xizmatiga bo'lgan talab va transport xizmati bozoridagi raqobatni o'rganish va bashorat qilish kiradi.

Transport xizmatini ko'rsatuvchi subyektlar (korxonalar)ga transport xizmati turlari, transport xizmatidan foydalanuvchilar, transport xizmatiga bo'lgan talab va transport xizmati bozoridagi raqobatni o'rganish va bashorat qilish kiradi.

Transport xizmatini ko'rsatuvchi subyektlar (korxonalar)ni tadqiq qilish ularning faoliyatidagi ustunliklar va zaif tomonlarni aniqlash uchun o'tkaziladi.


Transport xizmatidan foydalanuvchilarni tadqiq qilish ularning transport xizmatiga bo'lgan tilak va istaklarini aniqlashga yordam beradi.

Transport xizmati turlarini tadqiq qilish bugungi kunda mavjud bo'lgan transport xizmati turlari va ularning sifatini aniqlash bilan birga, yangi transport xizmati turlarini aniqlashda qo'l keladi.

Raqobatchilarni tadqiq qilishdan bozorda ustuvorlikka erishish uchun kerak bo'lgan ma'lumotlarni tahlil qilish asosida unda yutib chiqish taktikasi va strategiyasini ishlab chiqish uchun foydalaniladi.

Bozorni o'rganishda ularni bir qancha belgilariga qarab segmentlarga ajratish qabul qilingan, masalan, xaridor tomonlarni har

xil belgilariga qarab turlarga ajratish: geografik-mintaqaviy (respublika, viloyat, shahar va hokazo), demografik (yoshi, oilasi), iqtisodiy-ijtimoiy mezonga qarab va boshqalar (5-rasm).



5-rasm. Bozor segmentlarining turlari.

S.A. Salimov bozorni segmentlarga ajratishning 6 bosqichini taklif etadi. Uning tavsiyasi asosida transport xizmati bozorini segmentlarga quyidagicha ajratish mumkin:

- transport xizmati bozorini segmentlash mezonlarini shakllantirish;
- transport xizmati bozorini segmentlashni amalga oshirish;
- transport xizmati bozori segmentlarini tahlil qilish;
- transport xizmati bozorining maqsadli segmentlarini tanlash;
- taklif etilayotgan transport xizmati turlarining bozordagi o'rnini aniqlash;
- marketing rejasini ishlab chiqish.

2.4. Avtomobil transportida tadbirkorlik faoliyatini litsenziyalash tartibi

Litsenziya — lotincha so'z bo'lib, «*licentia*», ya'ni ruxsatnoma ma'nosini anglatadi. Barcha turdagi xo'jalik yurituvchi subyektlar tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun ular davlat tomo-

nidan berilgan maxsus ruxsatnomaga, ya'ni litsenziyaga ega bo'lishlari kerak.

Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash tartibi ko'pgina davlatlarning qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan.

Rossiya Federatsiyasida «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash» bo'yicha qabul qilingan 128-F3 federal qonuniga ko'ra, 8 tadan ko'p odam tashishga mo'ljallangan barcha avtomobillarda yo'lovchilar tashish uchun litsenziya olinishi kerak. Bu davlatda litsenziya yuridik shaxslar bilan bir paytda jismoniy shaxslarga ham berilishi mumkin. Moskva shahar hukumati bulardan tashqari, shahar ichida yo'lovchilar tashishni amalga oshiradigan avtomobillar uchun avtomobilning sanitar pasportini ham talab etadi.

Rossiya Federatsiyasida avtomobil transporti sohasida litsenziyalash ishlari 1995-yil 10-dekabrda qabul qilingan «Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida»gi qonun hamda «Rossiya Federatsiyasida transport jarayonini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan transport-ekspeditsion tashishlar, avtomobil transportida ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish va boshqa faoliyatni litsenziyalash to'g'risida»gi farmon asosida amalga oshirilmoqda. Rossiya poytaxti Moskva shahrida esa uning meri 1998-yil 9-iyundagi 451-sonli qarori bilan tasdiqlagan «Moskva shahrida transport-ekspeditsion xizmat ko'rsatayotgan yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyatini litsenziyalash to'g'risida»gi nizom asosida amalga oshirilyapti.

Nizomda transport-ekspeditsion xizmatlarni ko'rsatish deyilganda, tashish bilan bog'liq bo'lgan: tashishlarni tashkil etish va yuklarni ekspeditsiya qilish, tashish hujjatlarini rasmiylashtirish, ortish-tushirish ishlarini bajarish, yuklarni saqlash va saqlash uchun omborxonalarni ajratish kabi operatsiyalar tushunilishi qayd qilingan.

Nizomda, shuningdek, litsenziyalarni berish tartibi va uni iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish, monopoliyaga qarshi qonunlarning bajarilishini ta'minlash, bozorning normal holatda faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, texnika xavfsizligi va ekologik norma talablarining bajarilishida davlat boshqaruvini tashkil etish maqsadlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilganligi hamda litsenziyalarning qaysi organ tomonidan berilishi, muddatlari (3 oy, 1 yil, 5 yil) va litsenziya olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar (8 tadan 11 tagacha) ko'rsatib o'tilgan.

Ba'zi bir davlatlarda avtomobil transportida tadbirkorlik faoliyati uchun litsenziya olib berish bilan shug'ullanuvchi yuridik muassasalar ham mavjud bo'lib, ular tashuvchilarga yaqindan yordam beradilar.

Bizning respublikamizda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini litsenziyalash tartibi O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 25-maydagi «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida»gi Qonunida belgilab qo'yilgan.

Ushbu qonun 4 bobdan va 27 ta moddadan iborat bo'lib, uning 3-moddasi «Asosiy tushunchalar» deb nomlanadi va unda quyidagi atamalarga tushunchalar berilgan:

— litsenziya — litsenziyalovchi organ tomonidan yuridik yoki jismoniy shaxsga berilgan, litsenziya talablari va shartlariga so'zsiz rioya etilgani holda faoliyatning litsenziyalanayotgan turini amalga oshirish uchun ruxsatnoma (huquq);

— faoliyatning litsenziyalanayotgan turi — O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilishi uchun litsenziya olish talab qilinadigan faoliyat turi;

— litsenziyalash — litsenziya berish to'g'risidagi arizani topshirish va ko'rib chiqish, litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish yoki tugatish, shuningdek uni bekor qilish va qayta rasmiylashtirish jarayoni bilan bog'liq tadbirlar kompleksi;

— litsenziya talablari va shartlari — faoliyatning litsenziyalanayotgan turini amalga oshirayotganda litsenziat tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan, qonun hujjatlarida belgilangan talablar va shartlarning majmuyi;

— litsenziyalovchi organlar — qonun hujjatlariga muvofiq litsenziyalashni amalga oshiruvchi maxsus vakolatli organlar;

— litsenziya da'vogari — litsenziyalovchi organga faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirish uchun litsenziya berish to'g'risidagi ariza bilan murojaat etgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

— litsenziat — faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirish litsenziyasi bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

— litsenziya shartnomasi — faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirish uchun litsenziatning litsenziya olishi va undan foydalanishi borasidagi litsenziyalovchi organ bilan litsenziya da'vogari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turadigan va ular o'rtasida tuziladigan shartnoma;

— litsenziyalar reyestri — berilgan, to'xtatib turilgan, qayta tiklangan, qayta rasmiylashtirilgan, bekor qilingan litsenziyalar,

shuningdek amal qilishi tugatilgan litsenziyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan litsenziyalovchi organlarning ma'lumotlar bazalari majmuyi.

Litsenziyalar Qonunning 3-bobi 10-moddasiga ko'ra namunaviy (oddiy) va yakka tartibdagi turlarga bo'linadi.

Namunaviy (oddiy) litsenziyalar jumlasiga cheklanmagan doiradagi yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan litsenziyalar kiradi.

Yakka tartibdagi litsenziyalar jumlasiga yuridik va jismoniy shaxslarga alohida talablar va shartlar asosida beriladigan, litsenziyalarga faoliyatning mazkur turini amalga oshirishda mutlaq huquqlar beruvchi, miqdoriy cheklangan litsenziyalar kiradi.

Litsenziyalarni berish tartibi va shartlari, shu jumladan, tanlovlarni (tenderlarni) o'tkazish shartlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.


Toshkent shahrida avtomobil transportida yo'lovchilar tashishni amalga oshirish faoliyatini litsenziyalash vakolati Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 14-iyulda tasdiqlangan «Avtomobil transportida yo'lovchilarni va yuklarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish faoliyatini litsenziyalash to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 138-sonli qarori asosida amalga oshiriladi.

Mazkur Nizom avtomobil transportida yo'lovchilarni va yuklarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda tashish faoliyatini litsenziyalash tartibini belgilaydi. Ushbu Nizomga ko'ra, tijorat asosida amalga oshiriladigan yo'lovchilarni hamda yuklarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish faoliyati litsenziyalanishi kerak. Bunda yo'lovchilarni va yuklarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda tashish faqat yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

Aholining hayoti va sog'lig'ini xavf ostiga qo'ygan tabiiy ofatlar, epidemiyalar, yirik avariya oqibatlarini tugatish va avariya-qutqarish va tiklash ishlarini amalga oshirish bilan bog'liq tashishlarni amalga oshirishga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida»gi Qonunning 9-moddasida nazarda tutilgan korxonalar va muassasalarga (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tuzilgan unitar korxonalar va muassasalar, basharti, ularni tashkil etish to'g'risidagi hujjatlarda faoliyatning ayrim turini amalga oshirish nazarda tutilgan bo'lsa) litsenziya olish talab etilmaydi.

Toshkent shahrida avtomobil transportida yo‘lovchilar tashishni amalga oshirishga litsenziyalar berish, shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan hollarda litsenziyalarning amal qilishini to‘xtatib turish, to‘xtatish va ularni bekor qilish to‘g‘risidagi qaror Toshkent shahar hokimligi Yo‘lovchi transportining barcha turlari harakatini litsenziyalash va muvofiqlashtirish departamenti (keyingi o‘rinlarda Departament deb ataladi) tomonidan qabul qilinadi.

Toshkent shahrida, shu jumladan, shahar atrofida avtomobil transportida yo‘lovchilar tashish huquqining quyidagi turlari uchun namunaviy (oddiy) litsenziyalar beriladi (6-rasm):



6-rasm. Toshkent shahrida va shahar atrofida avtomobil transportida yo‘lovchilar tashish huquqini beruvchi litsenziyaning namunasi: *a* — varaq oldi; *b* — varaq orqasi.

- shaharda va shahar atrofida avtobuslarda tashish;
- yo‘lovchilarni shaharda va shahar atrofida mikroavtobuslarda tashish;
- yo‘lovchilarni shaharda va shahar atrofida yengil avtomobillarda tashish.

Litsenziatning har bir avtotransport vositasiga litsenziya bilan birgalikda litsenziya kartochkalari (varaqa) beriladi (7-rasm).



a

LITSENZIYA VARAQASI AT № 000000

Ruxsat etilgan faoliyat _____

Egasi va manzili _____

Transport vositasi _____ (rusum) _____ (davlat raqami)

Berilgan sanasi _____

Amal qilish muddati _____ dan _____ gacha.

Litsenziya varaqasi berilgan organ _____

_____ litsenziyaga asosan berilgan.
 (berilgan sanasi) (seriyasi) (raqami)

M.O. _____
 (vakolat shaxsining imzosi)

O'zgartirish kiritish man'atlidir! DAVLAT BELGISI DICH TBIF

b

7-rasm. Litsenziya kartochkasi namunasi:

a — old tomoni; *b* — orqa tomoni.

Litsenziya kartochkalarini berish tartibi Departament tomonidan belgilanadi. Litsenziyatning litsenziya kartochkalari bilan ta'minlanmagan avtomobil transportidan foydalangan holda olgan daromadi (foydasi) noqonuniy hisoblanadi va qonun hujjatlariga muvofiq budjetga olib qo'yilishi kerak. Litsenziya 5 yil muddatga beriladi. Litsenziyaning amal qilishi litsenziya berilgan kundan

boshlab hisoblanadi. Har bir avtotransport vositasiga litsenziya kartochkasi litsenziyaning amal qilish muddatidan ortiq bo'lmagan muddatga beriladi. Agar ashyoviy huquqlarning yoki ijara shartnomasining amal qilish muddati litsenziyaning amal qilish muddatidan kam bo'lsa, litsenziya kartochkasining amal qilish muddati ashyoviy huquqlar yoki ijara shartnomasining amal qilish muddati bilan cheklanadi. Litsenziya kartochkasining amal qilishi litsenziya kartochkasi berilgan kundan boshlab hisoblanadi.

Quyidagilar Toshkent shahrida avtomobil transportida yo'lovchilar tashish faoliyatini amalga oshirishda litsenziya talablari va shartlari hisoblanadi:

a) litsenziat tomonidan avtotransport vositalaridan foydalanishda, ularni kerakli narsalar bilan ta'minlashda qonun hujjatlariga, tashish qoidalariga, ekologiya talablariga majburiy rioya qilinishi, yo'l-transport hodisalarining oldini olish chora-tadbirlarining amalga oshirilishi;

b) yuridik shaxsning shtatida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan, tegishli lavozimni egallash huquqi uchun Departament tomonidan belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tgan mansabdor shaxslarning mavjud bo'lishi;

d) litsenziat foydalanayotgan har bir avtotransport vositasida litsenziya kartochkasi mavjud bo'lishini ta'minlash;

e) yuridik shaxs xodimlarining avtomobil transportida tegishli tashishlarni amalga oshirish chog'ida qo'yiladigan malaka talablariga muvofiqligi;

f) qonun hujjatlariga muvofiq fuqarolarning ayrim toifalari imtiyozli tashilishi;

g) tender natijalari bo'yicha Departament bilan shartnoma asosida yo'lovchilarni avtomobilda muntazam tashish (yengil avtomobil taksilaridan tashqari);

h) tashish xavfsizligi va yong'in xavfsizligi talablarini bajarish, avtotransport vositasini texnik soz holatda saqlash, uni asrash, texnik ko'rikdan o'tkazish, texnika xavfsizligini ta'minlash, avtotransport vositalarini yo'lga chiqishdan oldin texnik ko'rikdan o'tkazish va haydovchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish;

i) yangidan olinayotgan va to'ldirilayotgan avtotransport vositalariga litsenziyalar tomonidan qo'shimcha litsenziya kartochkalari o'z vaqtida olinishi.

Litsenziya olish uchun litsenziya talabgori quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

a) yuridik shaxsning nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, joylashgan joyi (yuridik manzili), bank muassasasining nomi va bankdagi hisob raqami, faoliyatning litsenziyalanadigan turi (yoxud uning bir qismi) ko'rsatilgan holda litsenziya berish to'g'risidagi ariza;

b) yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi;

d) mavjud avtotransport vositalarining mulk huquqi, boshqa ashyoviy huquqlar yoki ijara shartnomalari to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek, yo'l harakati xavfsizligi davlat xizmatining tegishli bo'linmasi tomonidan berilgan belgilangan shakldagi avtotransport vositasi texnik jihatdan soz ekanligi to'g'risida belgi qo'yilgan avtotransport vositasi texnik pasportining yoki avtotransport vositalari guruhi texnik ko'rikdan o'tkazilganligi dalolatnomasining nusxasi;

e) litsenziya talabgorida haydovchilarni tibbiy ko'rikdan va avtotransport vositalarini texnik ko'rikdan o'tkazish yoxud litsenziya talabgorining tegishli ixtisoslikdagi tashkilot bilan unga tibbiy ko'rik va texnik ko'rikdan o'tish imkoniyati berilishi to'g'risidagi shartnomasi nusxasi mavjudligi haqidagi ma'lumotlar;

f) yuridik shaxs xodimlari malakasining belgilangan talablar va shartlarga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalari;

g) yuridik shaxsning yo'l harakati xavfsizligi ta'minlanishi uchun mas'ul bo'lgan mansabdor shaxsning tegishli attestatsiyadan o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalari;

h) ariza ko'rib chiqilganligi uchun litsenziya talabgori tomonidan yig'im to'langanligini tasdiqlovchi hujjat.


Hujjatlar Departamentning mas'ul xodimi tomonidan ro'yxat bo'yicha qabul qilinadi, uning nusxasi hujjatlar qabul qilib olingan sana ko'rsatilgan holda ariza beruvchiga yuboriladi (topshiriladi).

Toshkent shahrida avtomobil transportida yo'lovchilar tashishni amalga oshirish faoliyatini litsenziyalash mazkur Nizomga ilovada keltirilgan sxemaga (8-rasm) muvofiq amalga oshiriladi.


Litsenziya va litsenziya kartochkalari Departament tomonidan litsenziya talabgori davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etgandan va litsenziya bitimini imzolagandan keyin ikki kun muddatda rasmiylashtiriladi.

Nizomda litsenziyalovchi organ bilan litsenziat o'rtasidagi o'zaro huquq va majburiyatlarni belgilovchi litsenziya bitimlari, uning qayta rasmiylashtirilish, amal qilish muddatlarini uzaytirish va dublikat berish, litsenziyaga qo'yilgan talablar, litsenziya bitimi

**Toshkent shahrida avtomobil transportida yo'lovchilar tashishni
amalga oshirish faoliyatini litsenziyalash
S X E M A S I
(yuridik va jismoniy shaxslar)**



8-rasm. Toshkent shahrida avtomobil transportida yo'lovchilar tashishni amalga oshirish faoliyatini litsenziyalash bosqichlari (sxemaning boshlanishi).



8-rasmning davomi. Toshkent shahrida avtomobil transportida yo'lovchilar tashishni amalga oshirish faoliyatini litsenziyalash bosqichlari (sxemaning davomi).

talablari va shartlari buzilganligi uchun tomonlarning javobgarligi, litsenziya talablari va shartlariga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirish, litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish masalalari ham alohida bayon etilgan.

Shu bilan birga, mazkur Nizom normalari hamda faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi uchun Departament belgilangan tartibda javob berishini ko'zda tutadi.

**Departament tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarga litsenziya va litsenziya varaqalari berilganligi to'g'risida
2012-yil 1-yanvar holatigacha bo'lgan ma'lumot**

Xo'jalik yurituvchi subyektlar	Dekabr oyida berilgan litsenziyalar				Yil mobaynida berilgan litsenziyalar			Amaldagi litsenziyalar				Dekabr oyida berilgan litsenziya varaqalari				Yil mobaynida berilgan litsenziya varaqalari			Amaldagi litsenziya varaqalari								
	Korxonalar soni	Litsenziyalar soni	Jumladan		Litsenziyalar soni	Jumladan		Korxonalar soni	Litsenziyalar soni	Jumladan		Litsenziya varaqalari soni	Avtobus	Mikroavtobus	Yengil	Litsenziya varaqalari soni	Avtobus	Mikroavtobus	Yengil	Litsenziya varaqalari soni	Avtobus	Mikroavtobus	Yengil				
			Avtobus	Mikroavtobus		Avtobus	Mikroavtobus			Yengil	Jami yengil shundan «DAMAS»lar																
«Toshshahartranssizm» tarkibidagi, shartnoma asosida, turizm, yuqori tashkilotlarga xizmat ko'rsatuvchi va boshqa tashkilotlar	7	8	1	2	5	86	19	16	51	232	282	74	43	165	683	530	27	126	5402	3594	404	1404	3135	1787	259	1089	108
Aholiga pullik xizmat ko'rsatuvchi korxonalar	5	7	1	3	3	73	3	40	30	163	184	7	78	99	378	2	141	235	4162	53	2242	1867	2366	30	1134	1202	7
Jami	12	15	2	5	8	159	22	56	81	395	466	81	121	264	1061	532	168	361	9564	3647	2646	3271	5501	1817	1393	2291	115

2.5. Litsenziya da'vogarlariga qo'yiladigan malaka talablari

Respublikaning mustaqillikka erishishi va bozor iqtisodiyotiga o'tishining dastlabki natijalari ma'muriy buyruqbozlik asosida rahbarlik qilishga o'rganib qolgan ayrim byurokratlar bir qancha vaqt davlatning boshqaruv apparatlarida saqlanib qolishi mumkin ekanligini ko'rsatdi. Bularga qarshi ishlab chiqilgan qonunlar, farmonlar va boshqa tadbirlar har doim ham kutilgan samarani bera olmaydi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. Karimov ta'biri bilan aytganda, har bir tadbirkor «O'z uyingni o'zing asra» degan aqidaga amal qilishni bilishi kerak. Buning uchun har bir tadbirkor avtotransport vositalarida tashish sohasida tadbirkorlik bilan erkin shug'ullanishi, uning faoliyatiga hech qanday byurokratik to'siqlar g'ov bo'la olmasligi uchun avtotransport faoliyatini bozor iqtisodiyoti talablariga mos ravishda tashkil eta olishi, bozor iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlarini va uning Qonunlarini bilishi, o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati qarorlari va boshqa hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qarorlari va Farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq amalga oshirishi kerak.

Bulardan tashqari, har bir tadbirkor yuksak madaniyatli, halol, rostgo'y, shu bilan bir paytda istiqbolni ko'ra oladigan, yangilikka intiladigan, tavakkal qilishdan qo'rqmaydigan va sabrtoqatli bo'lishi lozim.

Avtomobil transportida yo'lovchilar va yuk tashish bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslarning xodimlariga va yakka tartibdagi tadbirkorlarga qo'yiladigan malaka talablari O'zbekiston Respublikasi Avtomobil va daryo transporti agentligi tomonidan ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limi hamda O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi bilan kelishilgan bo'lib, agentlikning 2004-yil 26-apreldagi 65-son buyrug'i bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004-yil 28-iyunda 1377-raqam bilan qayd qilingan Nizomda bayon etilgan.

Nizom to'rt bo'limdan iborat bo'lib, uning birinchi bo'limida Nizomni ishlab chiqishda Yevropa Ittifoqining yuklar va yo'lovchi-

larni tashuvchilar faoliyatini e'tirof etish hamda milliy va xalqaro tashishlarni amalga oshirish erkinligi huquq uchun ushbu tashuvchilarga yordam berish maqsadida diplomlar, sertifikatlar va malakaning boshqa hujjatli dalillarini o'zaro e'tirof etish bo'yicha 1998-yil 1-oktabrdagi 98/76 Konsullik direktivasi normalari, O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining Yevropa konferensiyasi mamlakatlari a'zolari orasida kuzatuvchi mamlakat maqomini olish niyati metodologik prinsiplar asosi qilib olinganligi ko'rsatilgan.

Nizomning ikkinchi bo'limi malaka talablari deb nomlanadi va unda quyidagilar bayon etilgan.

Malaka talablari avtomobil ixtisosligi bo'yicha oliy yoki o'rta maxsus ma'lumot, kasb-hunar ta'limi to'g'risidagi diplom va suhbatdan o'tganlik haqidagi xulosa yoki malaka imtihoni topshirilgandan keyin beriladigan kasb vakolati to'g'risidagi hujjatning nusxasi yuridik shaxsning rahbari yoki yakka tartibdagi tadbirkorning litsenziya talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatlar hisoblanadi. Ushbu hujjatlarga ko'ra, yuridik shaxsning rahbari yoki yakka tartibdagi tadbirkorlarning malaka talablari avtomobil transportida yo'lovchilar, yuk va bagaj tashish qoidalarini hamda avtomobilda tashishlarni tashkil etish va ular xavfsizligini ta'minlash bo'yicha boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni, shuningdek, ularga rioya qilinmaganligi uchun javobgarlik choralari bilishi bilan belgilanadi.

Xalqaro tashish bilan shug'ullanadigan yuridik shaxslarning rahbarlari va yakka tartibdagi tadbirkorlar bulardan tashqari, O'zbekiston Respublikasining xalqaro avtomobilda tashish sohasidagi xalqaro konvensiyalari, shartnomalari va bitimlari normalari, chegaralarni kesib o'tish qoidalarini, transport vositalarining og'irlik va gabarit parametrlariga qo'yiladigan talablarni «Xalqaro avtomobilda tashishlarni bajarayotgan transport vositalari ekipajlari ishiga tegishli Yevropa bitimi»ga muvofiq xalqaro avtomobilda tashishlarni amalga oshirayotgan haydovchilarning mehnat va dam olish rejimiga qo'yiladigan talablarni va boshqa talablarni bilishi lozim.

Nizomning uchinchi bo'limida malaka talablarini bajarmaganlik uchun tashuvchilarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi qonunida nazarda tutilgan ta'sir ko'rsatish choralari belgilangan tartibda qo'llanilishi ta'kidlangan.

3. XUSUSIY AVTOTRANSPORT KORXONALARIDA YO‘LOVCHILAR TASHISHNI TASHKIL ETISH VA UNI DAVLAT TOMONIDAN NAZORAT QILISH

3.1. Yo‘nalishlarda yo‘lovchilarni tashish uchun ochiq tenderlarni tashkil etishning huquqiy asoslari va ularda qatnashish

Avtomobil transportidagi raqobat va uning turlari oldingi bo‘limlarda atroflicha bayon etildi. Yo‘lovchilarni hamda yuklarni tashishda har xil mulkchilikka asoslangan xo‘jalik yurituvchi subyektlar orasida sog‘lom va erkin raqobatni ta‘minlashga faqat ochiq tenderlarni o‘tkazish orqali erishish mumkin. Shuning uchun ham tenderlar o‘tkazish va uni takomillashtirish masalalari aholiga yuqori sifatli transport xizmatini ko‘rsatishni ta‘minlashda katta ahamiyatga ega.

Tender (*tender*) inglizcha so‘z bo‘lib, savdo, konkurs (tanlov) ma‘nosini anglatadi. Ba‘zi bir davlatlarning (Rossiya) qonun hujjatlarida tender atamasi o‘rniga bugungi kunda ham konkurs so‘zi ishlatilganligi sababli tadbirkorlar tenderlar o‘tkazilish chog‘ida ko‘p hollarda ularni konkurs deb atab kelmoqdalar.

Tenderlar qaysi maqsadda o‘tkazilishiga va mohiyatiga qarab bir necha turlarga bo‘linadi: ochiq tenderlar, yopiq tenderlar, ko‘p (odatda ikki) bosqichli tenderlar va maxsuslashtirilgan tenderlar.

Davlat mudofaasi yoki siri bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha tenderlar o‘tkazilish zarurati tug‘ilganida yopiq tenderlar o‘tkaziladi va unga faqat maxsus, oldindan qo‘yilgan shartlarga javob bera oladigan subyektlar taklif etiladi, tender yopiq tarzda o‘tadi. Bunday tenderlar yopiq tender deb ataladi.

Ba‘zi tenderlarni o‘tkazishda unda qatnashishni istagan barcha talabgorlar taklif etiladi. Ularning ichidan tender talablariga eng ko‘proq javob bera oladiganlari qoldiriladi va qolgan talabgorlar orasida qaytadan yana tender o‘tkaziladi. Bunday tenderlar ikki bosqichli tender deb ataladi.

Bugungi kunda eng ko'p tarqalgan tender turi bu ochiq tenderlardir.

Ochiq tenderlarda qatnashuvchilar soniga hech qanday cheklavlarni qo'yilmaydi. Istalangan xo'jalik yurituvchi subyekt tenderda qatnashishi mumkin.

Tenderlarni o'tkazish ikkala tomonga, ya'ni tenderni o'tkazuvchi hamda unda qatnashuvchi uchun ham juda katta ahamiyatga ega. Masalan, tenderni o'tkazuvchi tomon takliflar ichida eng maqbul yuqori sifatligini va arzonini tanlash imkoniyatiga ega bo'lsa, qatnashuvchi shu sohada eng yetakchi o'rinda ekanligiga, keyinchalik ham u bilan hamkorlik qilish yaxshi natijalar berishi mumkinligiga kafolat bera olishiga ishoniradi.

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish joizki, tenderlar har doim ham kutilgan natijalarni bermay, salbiy va noxush holatlarga ham olib kelishi mumkin. Anton Gagening ma'lumotlariga ko'ra, tenderlarning salbiy oqibatlarga tushib qolishining eng birinchi sababi — bu tender tashkilotchilarining odob-axloqidir (tashkilotchilarning va da'vogarlarning etikasi). Rivojlangan davlatlarning tajribalari shuni ko'rsatadiki, ba'zi bir paytlarda tenderda yutib chiqish maqsadida da'vogarlar tender komissiyasi a'zolari bilan oldindan kelishib olishi ham mumkin ekan. Bunday hollarda tender g'olibi oldindan ma'lum bo'lganligi sababli ularda qatnashish hech qanday samara bermaydi. Shuning uchun ba'zan «halol tender» tushunchalari ham qo'llanib kelinayapti.

Halol tenderlarni o'tkazishda Yevropa reklamalar agentligi uyushmasi (YARA) ishlab chiqqan va bugungi kunda ko'pgina rivojlangan davlatlarda qo'llanib kelinayotgan tavsiyalar — tenderlarni o'tkazish axloq kodeksidan foydalanish maqsadga muvofiqroq bo'ladi.

YARA tenderlarni o'tkazish uchun 5 ta punktga alohida ahamiyat berish kerakligini ta'kidlaydi. Masalan, birinchi galda oldindan sinalgan mijozlar bilan ishlashga intilish, talabgorlarning sonini ko'paytirishga intilmaslik va boshqa shunga o'xshashlar.

Tender o'tkazishning qonuniy bazasi yaratilmaganligi ham tenderlarning obyektivligi ta'minlanmasligiga olib kelishi mumkin. Tenderlar noto'g'ri o'tkazilishining yana bir sababi uni o'tkazish qoidalarining talabga javob bera olmasligi yoki mukammal emasligi ham bo'lishi mumkin. «Halol» tenderning eng asosiy kafolati uning ochiqligi va yagona tender o'tkazish qoidasining mavjudligidir.

Ba'zi adabiyotlarda tenderlarni o'tkazish bosqichlari va ularda qanday masalalar ko'rilishi kerakligi tavsiya etilgan. Masalan, shu sohada izlanishlar olib borgan Anna Nesmeyeva tenderni 7 bosqichga bo'lib tashkil etishni tavsiya etadi:

Birinchi bosqich — tender o'tkazish bo'yicha qaror qabul qilish.

Ikkinchi bosqich — tenderga taklifnomalarni tayyorlash.

Uchinchi bosqich — talabgorlarni tanlash.

To'rtinchi bosqich — talabgor tomonlarning qarashlarini aniqlash.

Beshinchi bosqich — talabgorlarning takliflarini ko'rib chiqish.

Oltinchi bosqich — tender g'olibini aniqlash.

Yettinchi bosqich — tender g'olibini e'lon qilish.

Ko'pgina davlatlarda yo'nalishlarda yo'lovchilar tashishni tashkil etishda eng yaxshi tashuvchilarni tanlash uchun ochiq tenderlarni o'tkazish qabul qilingan. Buning uchun ochiq tenderlarni tashkil etish tartibi va me'yorlari ishlab chiqilgan. Ammo tajribalar shuni ko'rsatadiki, bu boradagi hujjatlar haligacha yetarli darajada mukammal emas ekan. Masalan, Ukraina Respublikasining Lvov shahrida marshrutlarni taqsimlash uchun o'tkazilayotgan tenderlarni o'tkazish qoidalarini ko'rib chiqaylik. Bu shaharda bugungi kunda ham tadbirkorlik maqsadida yo'lovchilar tashish bilan shug'ullanishga jismoniy shaxslarga nafaqat ruxsat berilyapti, balki ular uchun keng imkoniyatlar (ular to'laydigan to'lovlar yagona to'lov bo'lib, daromadning atigi 10 % ini tashkil etadi) yaratib berilgan. Bu respublikada tender talablari va takliflarini takomillash-tirishga qaratilgan ishlar olib borilayotganligiga qaramay, ularni baholash mezonlari ham ba'zi bir kamchiliklardan xoli emas. U yerda tender g'olibi 100 ballik sistema bo'yicha baholanadi. Ballarni aniqlashda malakaviy talablar majmuasiga harakatlanuvchi tarkibning texnik holati va da'vogarning ish staji kiritilgan, ammo uni aniqlash mezoni ishlab chiqilmagan. Shu bilan birga, tender qatnashchisi yo'l haqi tarifining miqdorini kamaytirishi yoki aholining ma'lum bir qatlamiga transportda yurishi uchun imtiyozlar berishi sababli to'plashi mumkin bo'lgan balining miqdorini oshirish imkoniyatiga ham egadir. Vazirlar Mahkamasining «Tender g'oliblarini aniqlash tartibi to'g'risida»gi 2003-yil 29-yanvardagi 139-sonli qaroriga ko'ra, korxonaning moddiy-texnika bazasi

bilan ta'minlanganlik darajasiga qarab ball berilishi kichik korxonalarining tenderda yutib chiqish imkoniyatini pasaytirib yuboradi. Ukraina Respublikasining poytaxti Kiyev shahrining Radasi ham transport vositalarining texnik holatiga katta ahamiyat beryapti. Radaning talabiga ko'ra, tenderda dvigateli Yevro-2 va Yevro-3 talablariga javob beradigan avtomobillarga katta imtiyozlar beriladi.

Ba'zi davlatlarda tender g'oliblariga yo'nalishda yo'lovchilar tashish huquqini boshqa xo'jaliklarga topshirishiga ruxsat berishgan, bu esa vaqti kelib yo'nalishlarda yo'lovchilar tashish huquqi butunlay begona xo'jaliklar tasarrufiga o'tib ketishiga olib kelishi mumkin.


Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tenderlarni muvaffaqiyatli va halol o'tkazish, undan kutilgan natijalarga erishish uchun tenderlarni tashkil etish va o'tkazish tartibi ishlab chiqilishi va u davlat organlari tomonidan nazorat etilishi kerak ekan.

O'zbekiston Respublikasida bu sohada e'tirof etishga loyiq ishlar amalga oshirildi va oshirilib kelinyapti. Ochiq tenderlarni o'tkazish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 17-avgustdagi 350-sonli, 2000-yil 18-fevraldagi Idoralararo komissiyaning tavsiyalari va 2006-yil 31-yanvardagi 11-sonli qarorlari bunga dalil bo'la oladi.

Shahar atrofida, shaharlararo (viloyatlararo, viloyat ichida) va xalqaro yo'lovchilar tashish yo'nalishlarini joylashtirish uchun ochiq tenderlarni tashkil etish va o'tkazish to'g'risidagi Nizom va uni qo'llash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar O'zbekiston Respublikasi Avtomobil va daryo transporti agentligi tamonidan tayyorlangan «Avtomobil va daryo transportini davlat tomonidan boshqarish, tartibga solish va nazorat qilish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar» to'plamida to'liq bayon etilgan.

Toshkent shahrida yo'lovchilarni tashish yo'nalishlarini joylashtirish uchun ochiq tenderlarni tashkil etish va o'tkazish ishlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 31-yanvardagi 11-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida amalga oshirilyapti.

Ushbu Nizomga ko'ra, Toshkent shahar hokimligi Yo'lovchi transportining barcha turlari harakatini litsenziyalash va muvofiqlashtirish departamenti ochiq tenderlar buyurtmachisi va tashkilotchisi hisoblanadi.



9-rasm. Ochiq tenderlarni tashkil etish va o'tkazish hamda kontraktlarni tuzish sxemasi.

Toshkent shahrida «Yo'lovchilar tashish yo'nalishlarini joylashtirish uchun ochiq tenderlarni tashkil etish va o'tkazish to'g'risida»gi Nizom bir nechta bo'limdan tashkil topgan.

Nizomning birinchi bo'limi umumiy qoidalar deb nomlanadi. Unda Nizom Toshkent shahrida yo'lovchilar tashish yo'nalishlarini joylashtirish uchun ochiq tenderlarni tashkil etish tartibi va ularni o'tkazish shartlarini belgilaydi hamda avtotransport vositalari bilan yo'lovchilar tashish uchun majburiy hisoblanadi, deb ta'kidlangan. Nizomda ko'cha-yo'l tarmog'ida ko'zda tutilmagan holatlar yuzaga kelganda, alohida uchastkalar, transport uzellari va maydonchalari yopilganda kiritiladigan vaqtinchalik yo'nalishlar bo'yicha, korxonalar, tashkilotlar buyurtmasi bo'yicha soatbay haq to'lash asosida, tashkilotlar xodimlarini ish va yashash joyiga tashish maxsus yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladigan tashishlar tender asosida joylashtirilmasligi ko'rsatilgan.


Ushbu Nizomga ko'ra, tender savdolarida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan ta'sis hujjatlari, moliyaviy ishtirok etish, xolding shaklida va boshqa shakllarda ifodalangan, bevosita bir-biri bilan tashkiliy-hududiy yoki moliyaviy bog'liq bo'lgan tashuvchilarning muqobil talabgor sifatida ishtirok etishi mumkin.

Ochiq tenderlar Departament va tashuvchi o'rtasidagi yo'lovchilar tashishning amaldagi yo'nalishiga xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnoma (kontrakt) tugaganda yoki muddatidan oldin bekor qilingan hollarda yoki yangi yo'nalishlar ochilganda tashkil etiladi va 9-rasmda ko'rsatilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

Tenderga yo'nalishlar alohida-alohida yoki paketda qo'yiladi. Yo'nalishlar paketlarini shakllantirishda yo'nalishlarning ahamiyatligi va ularning rentabelligi hisobga olinadi. Tenderda kamida ikkita qatnashchi mavjud bo'lishi, agar yo'nalishlar paketiga faqat bitta tashuvchi talabgor bo'lsa, tender o'tkazmasdan ushbu tashuvchiga yo'nalishda ishlash huquqini berishga haqlidir.

Tenderda qatnashish uchun buyurtmalar bo'lmagan taqdirda Departament tenderni takror tashkil etishi kerak, bunda yo'nalishlar paketiga yoki yo'nalishga talablarni qayta ko'rib chiqishga yo'l qo'yiladi.


Tender hujjatlari paketi «Yo'nalishlarni joylashtirish uchun ochiq tenderlarni tashkil etish va o'tkazish to'g'risida»gi Nizomni hamda quyidagilarni o'z ichiga oladi (10-rasm):



10-rasm. Tender hujjatlari paketi.

Tender qatnashchisi uchun yo'riqnoma ochiq tenderda qatnashish uchun bajarilishi kerak bo'lgan ishlar tartibi bayon etiladi. Masalan, avtobuslarning harakatdagi tarkibi rusumi (turi) ga qarab tabaqalashtirilgan shkalasi va uni aniqlash usuli.

Yuqorida keltirilgan yo'riqnoma asosida har bir tender qatnashchisi o'zining taklif etayotgan ko'rsatkichlarini hisoblab chiqadi. Tender takliflarida quyidagi ko'rsatkichlar ko'rsatilgan bo'lishi kerak (11-rasm).



11-rasm. Tender takliflari ko'rsatkichlari.

Qatnashchining tender takliflari shakli (namuna) quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

_____ -sonli _____ yo'nalishiga

TENDER TAKLIFLARI

1. Tenderga qo'yilgan yo'nalishda 1 nafar yo'lovchi uchun ishtirokchi tomonidan taklif etilgan tarif darajasi _____ so'm _____ tiyin.
2. Harakatlanuvchi tarkibning rusumi, ishlab chiqarilgan yili, umumiy sig'imi:

T/r	Harakatlanuvchi tarkib rusumi	Davlat raqam belgisi	Ishlab chiqarilgan yili	Umumiy sig'imi
1.				
2.				
3.				
4.				
5.				
6.				
7.				
8.				
9.				
10.				
11.				
12.				

Yuqorida ko'rsatilgan avtotransport vositalarining barchasi texnik soz va litsenziya varaqalari bilan ta'minlangan.

3. Avtotransport vositalari ish tartibining taklif etiladigan turi: ish boshlanish vaqti soat _____, tugash soat _____ da.
4. Yo'nalishda taklif etiladigan jadval soni _____ ta.
5. Yo'nalishda taklif etiladigan qatnovlar soni _____ ta.
6. Yo'nalishdagi tig'iz vaqt o'rtasidagi qatnov oralig'i, ko'pi bilan _____ daqiqa.
7. Yo'nalishdagi tig'iz vaqtdagi qatnovlar oralig'i _____ daqiqa.

Qo'shimcha ma'lumotlar:

8. Avtomobillarni kundalik qatnov oldi texnik ko'rikdan, haydovchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish.
9. Yong'in xavfsizligi bo'yicha ko'rilgan choralar.
10. Kunlik naqd pul tushumini inkassatsiya qilish.
11. Qatnovlarni nosozlik punkti orqali ro'yxatga olish.

Muhr o'rni

(vakolatli vakilning imzosi)

Quyida «Rudomaksyo'lovchiyuktrans» MCHJ tomonidan 75-yo'nalish uchun ishlab chiqilgan tender takliflari misol sifatida keltirilgan.

75 – «Qo'yliq M 1 – Mahkam ota choyxonasi»

TENDER TAKLIFLARI

1. Tenderga qo'yilgan yo'nalishda 1 nafar yo'lovchi uchun ishtirokchi tomonidan taklif etilgan tarif darajasi 700 so'm 00 tiyin.
2. Harakatlanuvchi tarkibning rusumi, ishlab chiqarilgan yil, umumiy sig'imi:

T/r	Harakatlanuvchi tarkib	Davlat raqami belgisi	Ishlab chiqarilgan yili	Umumiy sig'imi
1.	«GAZEL»	11 N 8266	2008	15
2.	«GAZEL»	30 S 2996	2006	15
3.	«GAZEL»	30 N 0119	2005	15
4.	«GAZEL»	30 I 3877	2004	15
5.	«GAZEL»	30 F 0241	2003	15
6.	«GAZEL»	10 Y 3096	2001	15
7.	«GAZEL»	10 Z 8071	2001	15

Yuqorida ko'rsatilgan avtotransport vositalarining barchasi texnik soz va litsenziya varaqalari bilan ta'minlangan.

3. Avtotransport vositalari ish tartibining taklif etiladigan turi: ish boshlanish vaqti soat 6³⁰, tugashi soat 19⁰⁰da.
4. Yo'nalishda taklif etiladigan jadval soni 5 ta.
5. Yo'nalishda taklif etiladigan qatnovlari soni 60 ta.
6. Yo'nalishdagi tig'iz vaqt o'rtasidagi qatnovlar oralig'i, ko'pi bilan 17 daqiqa.
7. Yo'nalishdagi tig'iz vaqtdagi qatnovlar oralig'i 8 daqiqa.

Qo'shimcha ma'lumotlar:

8. Avtomobillar ertalabki texnik, haydovchilar esa tibbiy ko'rikdan SOGET bilan 2006-yil 4-aprel kuni tuzilgan shartnomaga asosan ijaraga olingan Toshkent shahar, Mirobod tumani, U. Olimbekov ko'chasi, 40-manzilda joylashgan hududdan «RUDOMAKSYO'LOVCHIYUKTRANS» MCHJ nazoratchi-mexanik va hamshira-narkologlar tomonidan o'tkaziladi.
Texnik ko'rikdan o'tkazishga avtoulavlar hududga kirib-chiqishi uchun xandaqlar qilingan, nazorat punkti talabga asosan jihozlangan. Tibbiy ko'rikdan o'tish xonasi ham talabga asosan jihozlangan, hamshira-narkologlar Toshkent shahar narkologiya bosh boshqarmasi tomonidan tashkil etilgan maxsus kurslarni tugatganliklari to'g'risida maxsus sertifikatga ega.
9. Avtotransport vositalari o't o'chirgich, tibbiyot qutichalari (kerakli dori-darmonlar) va avariya belgilari bilan jihozlangan. Barcha transport vositalari lotin imlosida yozilgan peshtaxta bilan ta'minlangan. Haydovchilar orasida texnika xavfsizligi va yong'inga qarshi yo'riqnomalar o'tkazilgan.
10. Naqd pullarni qabul qilish va inkassatsiyaga topshirish bo'yicha 2006-yil 28-aprel kuni 25-sonli buyruq chiqarilgan. Toshkent shahar inkassatsiya boshqarmasi bilan naqd pullarni inkassatsiya qilish bo'yicha 2006-yil 6-iyun kuni shartnoma tuzilgan.
11. Yo'nalishda ishlaydigan transport vositalari «Qo'yliq M 1» avtoshoxobchalaridagi nozimlik punktidan ro'yxatdan o'tishi ta'minlanadi.
12. Yo'nalishdagi bir kunlik tushum — 200.000 so'm.

Muhr o'rni

(vakolatli vakilning imzosi)

Tender g'olibini tanlash uchun Toshkent shahar hokimligi, O'zbekiston Avtomobil va daryo transporti agentligi, «Toshshahar-transxizmat» uyushmasi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi hamda Savdo-sanoat palatasining Toshkent shahri bo'linmalari mas'ul xodimlari kiritiladigan tender komissiyasi tuziladi. Tender komissiyasiga Departament boshlig'i boshchilik qiladi. G'olib oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Agar tender qatnashchisi tenderga noto'g'ri ma'lumotlar berganligi aniqlansa, u tenderda qatnashishdan chetlatiladi.

Tender takliflarini qabul qilish tender o'tkaziladigan kundan bir kun oldin to'xtatiladi.

Tender g'olibi tender takliflarida ko'rsatilgan bir nafar yo'lovchiga yo'l haqi uchun tarif darajasi, avtotransport vositasining rusumi (klassi), ishlab chiqarilgan yili, transport vositasining sig'imi, ish vaqti, harakat intervali, qatnovlar soniga qarab tabaqalashtirilgan ballar bo'yicha aniqlanadi (ilovalarga qarang).

*Nizomga
2-ILOVA*

Avtobuslarning harakatdagi tarkibi rusumi (turi) va uning foydalanish yo'llari uchun ballarning

TABAQALASHTIRILGAN SHKALASI

Avtobuslar yo'nalishlaridagi avtobusning rusumi (turi) uchun:

Rusumi (tipi)	Harakatdagi tarkib birligi uchun ballar soni
Mersedes-Benz (modifikatsiyasi)	10,0
Ikarus (modifikatsiyasi)	8,0
LAZ, LIAZ, DEU (modifikatsiyasi)	6,0
PAZ, Otayo'l (modifikatsiyasi)	4,0
KAVZ (modifikatsiyasi)	2,0

**Yo‘nalishli taksi liniyalaridagi mikroavtobuslar va midibuslar
rusumi (turi) uchun:**

Rusumi (tipi)	Harakatdagi tarkib birligi uchun ballar soni
23 kishidan ortiq odam sig‘adigan midibuslar	10,0
18 kishidan 23 kishigacha odam sig‘adigan midibuslar	8,0
15 kishidan 18 kishigacha odam sig‘adigan mikroavtobuslar	6,0
12 kishidan 15 kishigacha odam sig‘adigan mikroavtobuslar	4,0
8 kishidan 12 kishigacha odam sig‘adigan mikroavtobuslar	2,0

Izoh. Tashuvchi tavsiya qilgan avtobuslar rusumlari bo‘yicha aniqlangan ballar yo‘nalishning texnik-foydalanish tavsifiga muvofiq jamlanadi va talab qilinadigan transport vositalarining rejadagi soniga bo‘linadi.

Masalan, yo‘nalishda 6 ta jadval (yoki LAZ rusumli 6 ta avtobus) nazarda tutiladi. Tashuvchi tomonidan 8 ta PAZ avtobusi taklif etiladi. Ballar soni = 8 avt. = 4,0 ball: 6 ta jadval = 5,33.

*Nizomga
3-ILOVA*

**Tig‘iz vaqtlarda harakatlanishning tavsiya etilayotgan
oralig‘i uchun ballarning
TABAQALASHTIRILGAN SHKALASI**

Harakatlanish oralig‘i (daqiq)	Beriladigan ball	Oshirish koeffitsiyenti	Eng yuqori ball
1. Texnik-foydalanish parametrlari bo‘yicha talab qilinadigan oraliq	5,0	X	X
2. Tavsiya etilayotgan oraliq _____ daqiqa			
3. Oraliqni quyidagicha kamaytirganlik uchun:			
3 daqiqaga	5,0	1,05	5,25
6 daqiqaga	5,0	1,1	5,5

9 daqiqaga	5,0	1,15	5,75
12 daqiqaga	5,0	1,2	6,0
15 daqiqaga	5,0	1,5	7,5
15 daqiqadan ortiq	5,0	2,0	10,0

Izoh. Tig'iz vaqtlarda yo'nalishdagi harakatlanish oralig'i aylanib chiqish vaqtini ishlayotgan avtobuslar soniga taqsimlash yo'li bilan aniqlanadi.

1. Hisoblab chiqish uchun misol:

	Yo'nalishga qo'yilgan talablar	Tashuvchi taklif etayotgani
A) tig'iz vaqtlar (soat 10 dan 17 gacha)	7 soat	7 soat
B) avtobusning aylanib chiqishiga ketgan vaqt	1 soat	1 soat
D) ishlayotgan avtobuslar soni	4 ta	5 ta
E) oraliq (daqiqqa)	15 daqiqqa	12 daqiqqa

Oraliqni 3 daqiqaga kamaytirganlik uchun 5,25 ballardan beriladi.

2. Harakatdagi tarkibdan foydalanish yo'llari:

Foydalanish yillari	Harakatdagi tarkib birligi uchun ballar soni
1–3 yil	10,0
3–5 yil	8,0
5–8 yil	6,0
8–10 yil	4,0
10 yildan ortiq	2,0

Izoh. Foydalanish yillariga ko'ra har bir transport vositasi bo'yicha aniqlangan ballar jamlanadi, so'ngra tashuvchi tomonidan tavsiya etilayotgan avtobuslar soniga taqsimlanadi.

**Harakatdagi tarkibning umumiy sig'imi uchun
(besh balli tizim):***

Harakatdagi tarkib rusumi	Pasport bo'yicha umumiy sig'im	Tuzatuvchi koeffitsiyent	1 ta harakatdagi tarkib uchun ballar soni
Hisoblab chiqish uchun misol:			
1. Texnik-foydalanish parametrlari darajasi bo'yicha bazaviy (talab qilinadigan) avtobus sifatida LAZ 695 avtobusi tavsiya qilinadi	62	1,0*	5,0
2. Tashuvchi tavsiya qilayotgan sig'imi:			
1-variant:	110	1,77*	8,85
2-variant:	37	0,6	3,0

* Tuzatuvchi koeffitsiyent tavsiya etilayotgan sig'imni texnik-foydalanish parametrlari darajasi bo'yicha bazaviy avtobus sig'imiga (ushbu misolda LAZ 695 avtobusi sig'imiga) taqsimlash yo'li bilan aniqlanadi.

Agar tanlov natijalari bo'yicha bir nechta talabgor teng ball to'plagan bo'lsa, g'olib tender komissiyasi a'zolari tomonidan yashirin ovoz berish yo'li bilan aniqlanadi. Tender natijalari komissiya raisi tomonidan tasdiqlanadi va g'olibga Departament raisi yoki uning muovini tomonidan tasdiqlangan guvohnoma beriladi. Shundan so'ng, tender g'olibi bilan Departament, ya'ni buyurtmachi o'rtasida yo'nalishda transport xizmatini ko'rsatish uchun kontrakt tuziladi.

**3.2. Tashuvchi bilan buyurtmachi o'rtasida
transport xizmatini ko'rsatish yuzasidan
kontraktlar tuzish**

Tender g'olibi bilan Departament, ya'ni buyurtmachi o'rtasida yo'nalishda transport xizmatini ko'rsatish uchun kontrakt tuzishdan asosiy maqsad buyurtmachi bilan tashuvchi orasidagi majburiyatlarni, tomonlarning huquqlari, javobgarligi hamda boshqa kelgusida vujudga kelishi mumkin bo'lgan shartlarni oldindan aniq qilib kelishib olishdir.

«Kontrakt» lotincha *contractus* soʻzidan olingan boʻlib, shartnoma, kelishuv maʼnosini anglatadi.

Kontraktida uni tuzuvchi tomonlarning nomi, kontrakt predmeti va amal qilish muddati koʻrsatiladi.

Gʻolib bilan tuzilgan kontraktni imzolash muddati tender oʻtkazilgandan keyin 10 ish kunidan oshmasligi kerak. Departament tender komissiyasining qarori asosida tender gʻolibi bilan (4-ilova) kamida 3 yil va koʻpi bilan 5 yil muddatga yoʻnalishlarda shahar transportida yoʻlovchilar tashish boʻyicha xizmatlar koʻrsatish yuzasidan kontrakt tuzadi. Kontrakt har bir yoʻnalish uchun alohida-alohida tuziladi.

Yoʻnalishda shahar transportida yoʻlovchilar tashish boʻyicha xizmatlar koʻrsatish yuzasidan tuziladigan kontrakt 9 ta moddadan iborat boʻladi. Kontraktning 1-moddasida uning predmeti, yaʼni yoʻnalishida yoʻlovchilarni tashish huquqi qachondan boshlab kuchga kirishi, yoʻnalishning texnik-foydalanish koʻrsatkichlari va unga qoʻyilgan talablar koʻrsatiladi, yoʻnalishda necha dona va qanday rusumdagi harakatlanuvchi tarkibdan foydalanishi hamda ularga qoʻyilgan talablar bayon etiladi.

Kontraktning 2-moddasida tomonlarning majburiyatlari sanab oʻtiladi.

Bunda tashuvchi tomonidan aholiga yuqori sifatli transport xizmatini koʻrsatish va kontrakt shartlarini toʻliq bajarish uchun buyurtmachiga qanday majburiyatlar yuklanishi sanab oʻtiladi. Masalan, yoʻlovchilar tashishning asosiy shartlari, harakat yoʻnalishidagi oʻzgarishlar toʻgʻrisida tashuvchini oldindan ogohlantirish, tashuvchiga dispetcherlik xizmatini koʻrsatish va hokazo.

Kontraktida tashuvchiga quyidagi majburiyatlar yuklatiladi: yoʻlovchilarni sifatli tashishni va yuqori xizmat koʻrsatish madaniyatini, transport vositasini boshqarish huquqi yuzasidan tegishli toifaga, shuningdek, yoʻlovchilar tashishda kamida 3 yil ish stajiga ega boʻlgan haydovchi kadrlar tanlashni taʼminlash; yoʻnalishda yoʻlovchilarni muntazam tashishni tashkil qilish va bajarish; belgilangan ish rejimiga rioya qilish; harakatdagi tarkibga oʻz vaqtida texnik xizmat koʻrsatilishini, salon, harakatdagi tarkibni texnik koʻrikdan va haydovchilarni tibbiy koʻrikdan oʻtkazishni taʼminlash va boshqalar.

Kontraktida yoʻnalishdagi ish vaqtida haydovchilarga ushbu kontraktning nusxasiga, shaharda yoʻlovchilar tashishni amalga

oshirish huquqini beruvchi litsenziya kartochkasiga, yoʻnalish hujjatlariga, yoʻl va chipta-hisob varaqasiga, liniyaga chiqishdan oldin yoʻl varaqalarida avtotransport vositasining texnik koʻrikdan va haydovchilarning tibbiy koʻrikdan oʻtganligi toʻgʻrisidagi Harakatlanish jadvaliga va yoʻnalish sxemasiga ega boʻlish; transportda tekin yoki imtiyozli yurish huquqidan foydalanuvchi yoʻlovchilarni toʻsquinliksiz tashish va hokazo.

«Tomonlarning huquqlari» deb nomlanuvchi kontraktning 3-moddasida tashuvchiga buyurtmachiga yoʻnalishni oʻzgartirish yoki yopish, transport vositalarining rejadagi sonini, jadvallarni, ish rejimini qayta koʻrib chiqish, yoʻlovchilar tashish tariflarini oʻzgartirish boʻyicha asoslangan takliflar kiritish, yoʻnalishning koʻcha-yoʻl tarmogʻi harakatlanish xavfsizligi yoki yoʻlovchilar tashish talablari va shartlariga javob bermaydigan uchastkalarida yoʻlovchilar tashishni bajarishni rad etish yoki toʻxtatish huquqlari berilganligi, buyurtmachiga esa ushbu kontrakt shartlarining bajarilishini nazorat qilish, nazorat natijalari asosida, aniq qoida buzilishlarini koʻrsatgan holda dalolatnomalar (maʼlumotnomalar) tuzish, tashuvchiga aniqlangan qoida buzilishlarini bartaraf etish vazifasini yuklovchi qarorlar chiqarish, bunday qoida buzilishlarini bartaraf etish muddatlarini belgilash kabi huquqlar berilganligi qayd qilinadi.

4-modda «Tomonlarning javobgarligi» deb nomlanadi va unda kontrakt shartlarining buzilganligi uchun tomonlarning barcha javobgarliklari sanab oʻtiladi.

5-moddada tashuvchining kontrakt shartlarini bajarayotganligi toʻgʻrisida hisobot berishi shartligi va hisobotning shakli koʻrsatiladi.

Kontraktning 6-moddasida uni bekor qilish tartibi sanab oʻtiladi.

Kontrakt shartlari, agar faoliyatning holatlari va shartlari obyektiv ravishda oʻzgarsa, tomonlardan birining taklifiga koʻra qayta koʻrib chiqilishi mumkinligi, muddati kabi masalalar kontraktning 7-moddasida bayon etiladi.

Kontraktning amal qilish muddati, unga ilova qilinayotgan hujjatlar kontraktning 8 va 9-moddalarida sanab oʻtiladi.

Kontrakt tomonlarning yuridik manzillari, rekvizitlarini koʻrsatish uni tuzuvchilarning imzolari hamda imzoni tasdiqlovchi tamgʻa bilan rasmiylashtiriladi va kuchga kirgan hisoblanadi:

Toshkent shahrida yo'lovchilar tashish yo'nalishlarini
joylashtirish uchun ochiq tenderlarni tashkil
etish va o'tkazish to'g'risidagi Nizomga
4-ilova

(yo'nalishning nomi)
yo'nalishida shahar transportida yo'lovchilar tashish
bo'yicha xizmatlar ko'rsatish yuzasidan
NAMUNAVIY KONTRAKT

_____20__-yil « » Toshkent shahri

Tender komissiyasi qarori asosida Toshkent shahar hokimligi
Yo'lovchi tashish transportining barcha turlari harakatini litsen-
ziyalash va muvofiqlashtirish departamenti nomidan keyingi
o'rinlarda «Buyurtmachi» deb ataladigan boshliq _____bir
tomondan va keyingi o'rinlarda «Tashuvchi» deb ataladigan kor-
xonada nomidan _____rahbar ikkinchi tomondan ushbu
kontraktni quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

1-modda. Kontrakt predmeti

1.1. _____20__-yil « » dan boshlab «Buyurtmachi»
«Tashuvchi»ga _____-son avtobus/mikroavtobus yo'nalishi bo'-
yicha ushbu kontraktga kelishilgan shartlarda yo'lovchilar tashishni
tashkil etish va amalga oshirish mutlaq huquqini beradi (yo'nalish-
ning texnik-foydalanish tavsifi va unga qo'yiladigan talablar
1-ilovada, yo'nalish sxemasi — 2-ilovada ko'rsatilgan).

1.2. _____Yo'nalishda yo'lovchilar tashish uchun «Ta-
shuvchi» chap tomonli boshqaruvi hamda yo'lovchilar uchun
o'ng tomonda joylashgan hamda yo'lovchilarni chiqarish va tu-
shirish uchun qulaylikni ta'minlovchi eshiklari bo'lgan quyi-
dagi _____ta avtobus/mikroavtobusdan foydalanadi:

T/r	Avtobuslar/mikroavto- buslar rusumi	Davlat raqami	O'rindiqlar sig'imi	Umumiy sig'im
1.				
2.				
3 va h.k.				

2-modda. Tomonlarning majburiyatlari

2.1. «Buyurtmachi» quyidagilarga majbur:

«Tashuvchi»ni yo'lovchi tashishlarning asosiy shartlari, harakatlanish yo'nalishi va hokazolardagi o'zgarishlar to'g'risida oldindan (qoidaga ko'ra, ikki hafta oldin) xabardor qilish;

«Tashuvchi»ga transportda tekin yoki imtiyozli yurish huquqiga ega bo'lgan yo'lovchilar toifalari ro'yxatini taqdim etish;

shahar yo'nalishlarida yo'lovchi transportining bir maromdagi faoliyatini ta'minlash ishlarini muvofiqlashtirish;

«Tashuvchi»ga dispetcherlik xizmatlari ko'rsatish, 3-ilovaga muvofiq shakl bo'yicha nazorat-dispetcherlik hujjatlarini yuritish;

bir oy muddatda «Tashuvchi»dan harakatlanish oraliqlarini, avtobuslar, mikroavtobusning kattaligi va miqdorini, tariflarni o'zgartirish yo'li bilan tashishlar samaradorligini oshirish masalalari bo'yicha tushgan takliflarni ko'rib chiqish hamda unga asoslangan yozma javob berish;

yo'lovchi tashish transporti ishi yuzasidan shikoyatlarni ko'rib chiqish va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha ta'sirchan chora-tadbirlar ko'rish;

transportda tekin yurish huquqidan foydalanuvchi yo'lovchilarni tashish bilan bog'liq daromadlar kamayishini qoplash, shuningdek, tariflarning cheklangan darajalari qo'llanilishi munosabati bilan ko'riladigan zararlarni qoplash masalasini vakolatli organlar bilan birgalikda hal etish;

transportda yurish kartochkalarini sotishdan tushgan daromatlarni, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, tashuvchilar o'rtasida qonunchilik talablariga muvofiq taqsimlash;

tashish jarayonini tashkil etishda, ko'cha-yo'l tarmoqlarining harakatlanish xavfsizligi talablariga javob beradigan zarur holatda bo'lishini ta'minlashda yordam ko'rsatish.

2.2. «Tashuvchi» quyidagilarga majbur:

yo'lovchilarni sifatli tashishni va yuqori xizmat ko'rsatish madaniyatini, transport vositasini boshqarish huquqi yuzasidan tegishli toifaga, shuningdek, yo'lovchilar tashishda kamida 3 yil ish stajiga ega bo'lgan haydovchi kadrlar tanlashni ta'minlash;

ushbu kontraktning butun amal qilish muddati mobaynida transport xizmati ko'rsatish uchun birkirilgan yo'nalishda yo'lovchilarni muntazam tashishni tashkil qilish va bajarish;

soat-daqiqadan soat-daqiqagacha belgilangan ish rejimiga rioya qilish;

harakatlanishning belgilangan jadvalariga muvofiq jadvalini va reyslarini ta'minlash (avtobuslar/mikroavtobuslarning ish jadvali shakli namunasi 4-ildavda berilgan);

bir martalik chiptalarni sotish yo'li bilan tushumlar yig'ishni va ularni kunduzgi va kechki vaqtlarda inkassatsiya qilishni ta'minlash;

yo'lovchilar tashishga 1 nafar yo'lovchi uchun so'm miqdoridagi tarifni qo'llash;

reyslar, yo'lovchilar soni, daromadlar yig'imi bajarilishi tahlili va hisobini, yo'l-transport hodisalari hisobini yuritish hamda yo'lovchilar tashish xavfsizligini ta'minlash tadbirlarining bajarilishini nazorat qilish;

harakatdagi tarkibga o'z vaqtida texnik xizmat ko'rsatilishini, salon, harakatdagi tarkibni texnik ko'rikdan va haydovchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishni ta'minlash;

zarur shart-sharoitlarga (texnik diagnostika uchun asbob-uskunalar, ko'tarish moslamalari yoki ko'zdan kechirish xandaqlari, nazorat-o'lchash moslamalari, asfalt yoki beton qoplamali tekis gorizontallarda) va malakali mutaxassislariga ega bo'lgan tashkilotlarda; texnik xizmat ko'rsatish stansiyalarida; diagnostika stansiyalarida va davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati texnik nazorat postlarida yo'lovchi tashish transportini texnik ko'rikdan o'tkazishni o'z vaqtida tashkil etish;

yo'lovchilar tashish uchun belgilangan talablarga muvofiq bo'lgan harakatlanuvchi tarkibdan foydalanish;

har qaysi transport birligi salonida ko'rinarli joyda haydovchi (famiyasi, ismi, otasining ismi) to'g'risidagi ma'lumotlarni, Yo'lovchilar va bagaj tashish qoidalaridan ko'chirmani, markaziy dispetcherlik xizmati, «Tashuvchi» telefonlari raqamlarini, yo'l haqi tariflarini, transportda tekin va imtiyozli yurish huquqiga ega bo'lgan shaxslar ro'yxatini, yo'l-transport hodisasi ro'y bergan taqdirda avtobus salonida luklarni, oynalarni, eshiklarni shoshilinch ochish va oynalarni ko'chirish usullari to'g'risidagi ko'rigazmali ma'lumotlarni, o't o'chirish anjomlari va aptechkalarni joylashtirish, avariya vaqtidagi chiqish joylarini ko'rsatish;

«Buyurtmachi»ga dispetcherlik punkti orqali yo'nalishning ko'cha-yo'l tarmoqlarining harakatlanish yoki yo'lovchilar tashish xavfsizligi talablari va shartlariga javob bermaydigan uchastkalardagi mavjud to'siqlar to'g'risida o'z vaqtida xabar qilish.

2.3. Yo‘nalishdagi ish vaqtida haydovchilar quyidagilarga majbur:

ushbu kontraktning nusxasiga, shaharda yo‘lovchilar tashishni amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya kartochkasiga, yo‘nalish hujjatlariga, yo‘l va chipta-hisob varaqasiga, liniyaga chiqishdan oldin yo‘l varaqalarida avtotransport vositasining texnik ko‘rikdan va haydovchilarning tibbiy ko‘rikdan o‘tganligi to‘g‘risidagi Harakatlanish jadvaliga va yo‘nalish sxemasiga ega bo‘lish; transportda tekin yoki imtiyozli yurish huquqidan foydalanuvchi yo‘lovchilarni to‘sqinliksiz tashish;

harakatlanish jadvaliga rioya qilish va «Buyurtmachi»ning liniya-dispetcherlik punktlarida, sotilgan chiptalar sonini ko‘rsatgan holda, reyslar bo‘yicha qaydlarni amalga oshirish;

yo‘lovchilarga har bir to‘xtash joyi va undan keyingi punkt nomini to‘g‘ri va aniq e‘lon qilish, yo‘nalish o‘zgargan taqdirda esa — bu to‘g‘rida har bir bekatda e‘lon ilish, yo‘lovchilarga avtobus/mikroavtobus salonida xulq-atvor qoidalariga rioya qilish hamda yo‘l va bagaj haqini o‘z vaqtida to‘lash zarurligi to‘g‘risida eslatish;

yo‘lovchilarni faqat yo‘nalishning to‘xtash punktlarida transportga chiqarish va undan tushirish (to‘xtash punktlarida transportga chiqarish va undan tushirish yo‘lovchilar talabi bo‘yicha amalga oshiriladigan yo‘nalishli taksilardan tashqari);

salonda spirtli ichimliklar ichishga, chekishga, transport vositasi ishlayotgan vaqtda paydo bo‘ladigan noxush hidlarning bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik;

transport vositasi tizimlarida va mexanizmlarida avtobus/mikroavtobuslardan keyingi foydalanish chog‘ida harakatlanish xavfsizligiga xavf tug‘diradigan texnik nosozliklar mavjud bo‘lgan holda avtobus/mikroavtobusni to‘xtatish, barcha eshiklarini ochish, zarurat bo‘lganda esa avariya lukklarini ham ochish, salondan yo‘lovchilarni tushirish, ularni ushbu yo‘nalishda qatnaydigan boshqa avtobus/mikroavtobusga aynan shu chiptalar bilan chiqarish;

«Buyurtmachi»ning hamda tekshirish va ko‘rikdan o‘tkazish uchun tegishli vakolatlari bo‘lgan nazorat organlarining birinchi talabiga ko‘ra transport vositasini ko‘zdan kechirishga ruxsatnomasi bo‘lgan shaxsga zarur ma‘lumotlarni taqdim etish va yordam ko‘rsatish;

yo‘lovchilar uchun biron-bir noqulaylik tug‘dirmasdan ularga yo‘l chiptalari sotish;

Yo'l harakati qoidalariga, Avtomobil transportida yo'lovchilar va bagajni tashish qoidalariga hamda O'zbekiston Respublikasida avtobuslarda yo'lovchilar tashish xavfsizligini ta'minlashga doir talablarga rioya qilish.

2.4. Ko'rsatilgan dispetcherlik xizmatlari va shahar yo'lovchi tashish transporti infratuzilmasi obyektlari (avtostansiyalar, to'xtash punktlari)dan foydalanganligi uchun «Tashuvchi» har oyda _____ so'm miqdorida haq to'laydi. Pul mablag'lari «Buyurtmachi»ning hisob raqamiga hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunidan kechikmay o'tkaziladi.

3-modda. Tomonlarning huquqlari

3.1. «Tashuvchi» quyidagi huquqlarga ega:

«Buyurtmachi»ga yo'nalishni o'zgartirish yoki yopish, transport vositalarining rejadagi sonini, jadvallarni, ish rejimini qayta ko'rib chiqish, yo'lovchilar tashish tariflarini o'zgartirish bo'yicha asoslangan takliflar kiritish;

yo'nalishning ko'cha-yo'l tarmog'i harakatlanish xavfsizligi yoki yo'lovchilar tashish talablari va shartlariga javob bermaydigan uchastkalarida yo'lovchilar tashishni bajarishni rad etish yoki to'xtatish;

«Buyurtmachi» bilan kelishuv bo'yicha avtotransport vositasini, tegishli litsenziya kartochkasi bilan ta'minlagan holda, aynan shunday avtomobil bilan almashtirish;

belgilangan tartibga muvofiq yo'l kartochkalarini sotishdan daromad olish va transportda tekin yoki imtiyozli yurish huquqidan foydalanuvchi yo'lovchilarni tashish munosabati bilan yo'qotilgan daromadlar uchun kompensatsiya olish;

tashish jarayonini tashkil etish bo'yicha zarur shart-sharoitlar ta'minlanishini talab qilish.

3.2. «Tashuvchi» yo'nalishga xizmat ko'rsatishni uchinchi shaxsga berish huquqiga ega emas.

3.3. «Buyurtmachi» quyidagi huquqlarga ega:

yo'nalishlarga xizmat ko'rsatish huquqlarini xizmat ko'rsatish huquqini yo'qotgan bitta tashuvchidan tender asosida belgilanadigan boshqa tashuvchiga berish o'rtasidagi davrda ko'rsatib o'tilgan yo'nalishlarga (tendersiz) to'liq yoxud qisman xizmat ko'rsatish huquqini boshqa tashuvchilarga vaqtinchalik berish;

ushbu kontrakt shartlarining bajarilishini nazorat qilish, nazorat natijalari asosida, aniq qoida buzilishlarini ko'rsatgan holda dalolatnomalar (ma'lumotnomalar) tuzish, «Tashuvchi»ga aniqlangan qoida buzilishlarini bartaraf etish vazifasini yuklovchi qarorlar chiqarish, bunday qoida buzilishlarini bartaraf etish muddatlarini belgilash;

davlat tegishli organlariga transport vositalaridan foydalanish qoidalari buzilishida aybdor bo'lgan «Tashuvchi»ni qonunchilikda nazarda tutilgan javobgarlikka tortish to'g'risida takliflar kiritish.

4-modda. Tomonlarning javobgarligi

4.1. «Buyurtmachi» «Tashuvchi»ni yo'nalishlarda ishlash uchun zarur sharoitlar bilan ta'minlash, ko'cha-yo'l tarmog'ining holati tufayli yo'nalishlarda tashuvlarning to'xtatilishi yoki cheklanishi sabablarini bartaraf etish yuzasidan o'z vaqtida chora-tadbirlar ko'rilmaganligi, ko'chalarning «Tashuvchi» bilan oldindan kelishilmasdan to'silganligi uchun ko'rilgan zarar miqdorida javob beradi.

4.2. «Tashuvchi» tomonidan ushbu tender kontrakti shartlarining buzilishi holatlari yuzasidan «Buyurtmachi» ko'rilgan moddiy va ma'naviy zararni qoplash to'g'risida sud organlariga da'vo bilan murojaat qilishi mumkin.

5-modda. Tashuvchining hisobot berishi

5. «Tashuvchi» har oyda «Buyurtmachi»ga ushbu kontraktga 5-ilovaga muvofiq shakl bo'yicha yo'nalishlardagi ishlar to'g'risida hisobot taqdim etishi shart.

6-modda. Kontraktni bekor qilish tartibi

6.1. Agar tomonlardan biri kontrakt shartlarini buzsa va ikkinchi tomon ularni bartaraf etishning muddatini belgilasa, biroq ushbu muddat o'tgandan keyin kontraktni buzgan tomonning majburiyatlari bajarilmagan bo'lsa, kontrakt bir tomonlama tartibda muddatidan oldin bekor qilinadi.

6.2. Kontraktning amal qilish muddati tugaganda yoki kontrakt muddatidan oldin bekor qilinganda «Tashuvchi» yo'nalishni o'z avtotransport vositalaridan mazkur yo'nalishda ishlash huquqini yutgan boshqa tashuvchiga kontrakt beriladigan kundan kechikmay bo'shatishi shart.

6.3. Tomonlar kontraktning bekor qilinishi sanasi yoki uning amal qilish muddati tugaganligi to'g'risida kamida 10 kalendar kun oldin yozma ravishda bir-birini xabardor qilishlari shart.

7-modda. Boshqa shartlar

7.1. Kontrakt shartlari, agar faoliyatning holatlari va shartlari obyektiv ravishda o'zgarsa, tomonlardan birining taklifiga ko'ra qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Taklif etilayotgan o'zgartirishlar to'g'risidagi qarorni tomonlar yozma bildirishnoma olingan kundan boshlab ikki hafta mobaynida qabul qilishadi.

7.2. «Tashuvchi» tomonidan kontrakt shartlariga butun muddat mobaynida amal qilingan taqdirda, uning muddati uzaytiriladi, lekin ko'pi bilan uch yilga uzaytiriladi.

7.3. Favqulodda holatlar (zilzilalar, suv toshqinlari, yong'inlar, epidemiyalar va boshqa tabiiy ofatlar) paydo bo'lganda hamda tomonlardan istalgan birining ushbu kontrakt bo'yicha majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarish imkoniyati bo'lmaganda, ularni bajarish muddati bunday holatlar davom etadigan muddatga teng vaqtga uzaytiriladi va bu muddatda tomonlar kontrakt majburiyatlari bo'yicha javobgarlikdan ozod qilinadi.

7.4. Agar favqulodda holatlar 60 kundan ko'proq davom etsa, u holda tomonlardan har biri ushbu kontrakt bo'yicha majburiyatlarni bundan keyin bajarishdan voz kechish huquqiga ega bo'ladi hamda bu holda ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni boshqa tomon hisobiga qoplash huquqiga ega bo'lmaydi.

7.5. Ushbu kontrakt dan yoki u bilan bog'liq holda kelib chiqadigan tomonlar o'rtasidagi barcha nizo va kelishmovchiliklar muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

Agar tomonlar muzokaralar yo'li bilan kelishuvga erishmasa, u holda nizo va kelishmovchiliklar sud tartibida hal etiladi.

8-modda. Kontraktning amal qilish muddati

8.1. Ushbu kontrakt tomonlar uni imzolagan vaqtdan boshlab kuchga kiradi va _____ mobaynida amal qiladi.

8.2. Ushbu kontrakt bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada, tomonlardan har biri uchun bir nusxadan tuziladi.

9-modda. Kontraktga ilova qilinayotgan hujjatlar

9. Quyidagilar kontraktning uzviy qismi hisoblanadi:
yoʻnalishning texnik-foydalanish tavsifi va unga qoʻyiladigan talablar (1-ilova);
yoʻnalish sxemasi (2-ilova);
son yoʻnalishdagi ishlar ustidan har kungi dispetcherlik nazorati shakli (3-ilova);
son yoʻnalish boʻyicha avtobus/mikroavtobuslarning ish jadvali (4-ilova);
ishlar toʻgʻrisidagi hisobot shakli (5-ilova).

Tomonlarning yuridik manzillari, rekvizitlari va imzolari:

«Tashuvchi»

«Buyurtmachi»

Yuridik maslahatchi:

Namunaviy kontraktga 1-ILOVA

**YO'NALISHNING TEXNIK-FOYDALANISH TAVSIFI VA
UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR**

T/r	Nomi	Birlik	Soni
1.	Yo'nalishning umumiy uzunligi: To'g'ri yo'nalishda Qaytishdagi yo'nalishda	km km km	
2.	Bekatlarning umumiy soni: To'g'ri yo'nalishda Qaytishdagi yo'nalishda		
3.	Aylanishga ketadigan vaqt	daqiq	
4.	Jadvallar soni: ish kunlarida dam olish kunlarida	ta ta ta	
5.	Tig'iz soatlardagi harakatlanish oralig'i	daqiq	
6.	Tig'iz vaqt o'rtasidagi harakatlanish oralig'i	daqiq	
7.	Yo'nalishdagi ishning boshlanishi	soat/daq.	
8.	Yo'nalishdagi ishning tugashi	soat/daq.	
9.	Yo'nalishdagi ish rejimi	haftada kunlar	
10.	Sig'imi: o'tirish joylari tik turish joylari	joylar joylar	
11.	1 yo'lovchi uchun yurish tarifi	so'm	

«TASDIQLAYMAN»
Toshkent shahar hokimligi yo'lovchi
transportining barcha turlari
harakatini litsenziyalash va muvofiq-
lashtirish Departamenti boshlig'i,
Komissiya raisi
_____ Y. Orifjonov
«__» _____ 2010-yil

**75 y.t. YO'NALISHLI TAKSI QATNOV YO'NALISHI
TAVSIFI**

Qatnov yo'nalishi nomi: 75-«Qo'shqo'rg'on mahallasi—Qo'yliq ASHB 1»
Qatnov turi: yo'nalishli taksi yo'nalishi

(Avtobus, yo'nalishli taksi, tezyurar, sayyohlar uchun qatnovchi)

Harakat yo'lga qo'yilgan sana: 2003-yil noyabr
(Kun, oy, yil)

Qatnash mavsumiyligi: yil bo'yi
(Yil bo'yi, yozgi mavsumda, dam olish yoki bayram
kunlarida, ertalab va kechqurun)

Qatnov yo'li masofasi: to'g'ri yo'nalishda 8,9 km,
qaytishdagi yo'nalishda 6,5 km.

Yo'l kira haqi: 700 so'm 00 tiyin.

Qatnov masofasi yoki yo'nalishi o'zgarganligi haqidagi ma'lumotlar:

Qatnov jadvali bo'yicha avtoulavlar soni: 5
Qatnovdagi harakat tarkibi rusumi: «GAZEL» rusumli yengil avtoulav-
lardan foydalaniladi.

Qatnov davomida xizmat ko'rsatuvchi nozimlik punktlari, so'nggi va
oraliq bekatlar:

Qo'shqo'rg'on mahallasi, Mahkam ota choyxonasi, Davrtrans, Qo'yliq-
7, Qo'yliq 4—5, Qo'yliq deh. bozori, Qo'yliq M 2 ASHB.

Xizmat ko'rsatuvchi avtokorxonasi: «Rudomaksyo'lovchiyuktrans» MCHJ
Hujjatni tayyorladi: rahbar o'rinbosari K. Nasriddinov

(imzo, F.I.O. va lavozimi)


**«QO'SHQO'RG'ON MAHALLASI—QO'YLIQ M1» 75-SONLI
YO'NALISH TAKSISI QATNOV YO'LI CHIZMASI**

Tasdiqlayman:
Departament boshlig'i
_____ Y. Orifjonov

«Kelishilgan»
Toshavtobustrans AK –
Departament muvofiqlashtirish
bo'limi – Toshkent shahar YHXB
«Rudomaksyo'lovchiyuktrans» MCHJ

YHXB shartlari:

1. Avtobuslarning texnik holati yo'llarda harakatlanish qoidalari, texnik ta'sarruf etish qoidalari va ishlab chiqargan zavod yo'riqnomasi talablariga javob berishi lozim.
2. Tezlik sur'ati 50 km/soatdan oshmasin.
3. Yo'llarda harakatlanish qoidalari talablariga qat'iy rioya qilinsin.
4. Yo'nalish chizmasi litsenziya varaqsiz haqiqiy emas.
5. Yo'nalish chizmasi Departament muhrisiz haqiqiy emas.
6. Oraliq bekatlarda yo'lovchilar olish va tushirish uchun 1 (bir) daqiqadan ortiq turish qat'iy taqiqlanadi.



Kontraktning keyingi ilovalarini to'ldirish uchun avval avtomobillarning harakat jadvali ishlab chiqiladi. Harakat jadvali asosida tig'iz soatlardagi harakat intervali, har bir avtomobilning harakat jadvali hamda haydovchilarning oylik ish jadvali ishlab chiqiladi.

«TASDIQLAYMAN»

Toshkent shahar hokimligi yo'lovchi transportining barcha turlari harakatini
litsenziyalash va muvofiqlashtirish Departamenti boshlig'i, Komissiya raisi

Y. Orifjonov

«__» _____ 2008-yil.

AVTOULOVLAR HARAKAT JADVALI

№ 75^m y.t. «Qo'shqo'rg'on mahallasi — Qo'yliq ASHB 1»

Qatnov yo'li masofasi 18,9/6,5 km. Qatnovchi avtoulavlar soni 3 (Yakshanba)

Qo'shqo'rg'on mahallasi				Avtoulav- lar ishlash tartibi №	Qo'shqo'rg'on mahallasi				Avtoulav- lar ishlash tartibi №
Qo'shqo'rg'on mahallasi	Qo'yliq ASHB-1		Qo'shqo'rg'on mahallasi		Qo'shqo'rg'on mahallasi	Qo'yliq ASHB-1		Qo'shqo'rg'on mahallasi	
	jo'natish vaqti	kelish vaqti				jo'natish vaqti	kelish vaqti		
7-00	7-41	7-46	8-02	1					
7-30	8-11	8-16	8-32	2					
8-00	8-41	8-46	9-02	3					
8-26	9-07	9-12	9-28	1					
8-52	9-33	9-38	9-54	2					
9-18	9-59	10-04	10-20	3					
9-44	10-25 n	10-55	11-11	1 nonushta					
10-10	10-51 n	11-25	11-41	2 nonushta					
10-36	11-77 n	11-55	12-11	3 nonushta					
11-21	12-02	12-10	12-26	1					
11-51	12-32	12-40	12-56	2					

davomi

12-21	13-02	13-10	13-26	3					
12-51	13-32 t	14-32	14-48	1 tushlik					
13-21	14-02 t	15-02	15-18	2 tushlik					
13-51	14-32 t	15-32	15-48	3 tushlik					
15-00	15-41	15-46	16-02	1					
15-30	16-11	16-16	16-32	2					
16-00	16-41	16-46	17-02	3					
16-28	17-09	17-14	17-30	1					
16-54	17-35	17-40	17-56	2					
17-20	18-01	18-06	18-22	3					
17-46	18-27	18-32	18-48	1					
18-12	18-53	18-58	19-14	2					
18-38	19-19	19-24	19-40	3					
Harakat jadvalining me'yor ko'rsatkichlari									
VAQT	Soat.min	TEZLIK	km/s	Qatnov boshlanadigan va tugallanadigan joy nomi		Sarflanadigan vaqt, minutda	Masofa, km.da		
Harakatdagi	0-40/0-15	O'rtta tezlik	28,3/26,0						
Qatnovdagi	0-41/0-16	Qatnovdagi	27,6/24,4						
Borib-qaytishda	1-02	Ishlatish	24,6	Qo'shqo'rg'on mahallasi		41	18,9		
				Qo'yliq ASHB-1		16	6,5		

Harakat jadvalini tuzdi _____ direktor o'rinbosari K. Nasriddinov
(imzo, F.I.O. va lavozimi)

Har kungi ishlarning dispetcherlik nazorati shakli

(____ -son yo'nalishdagi tashuvchining nomi)

200__-yil «__» _____

_____ sh.

82

T/r	Haydovchi va konduktorning F.I.O.	Avtobus yo'nalishli taksining rusumi va davlat raqami	Yo'l varaqasi-ning t/r	Jo'nash vaqti		Yetib kelish vaqti		Sotilgan chiptalar	
				jadval bo'yicha	amalda	jadval bo'yicha	amalda	soni	so'mlik

* *Izoh.* Transport vositasi texnik nosozligi yoki shikastlanishi natijasida yo'nalishdan muddatidan oldin qaytgan taqdirda ro'y bergan shikastlanish vaqti va sababi ko'rsatilishi zarur.

(Dispetcherning F.I.O.)

(imzo)

«TASDIQLAYMAN»

Toshkent shahar hokimligi Yo‘lovchi tashish transportining barcha turlari harakatini litsenziyalash va muvofiqlashtirish departamenti boshlig‘i

200__-yil «__» _____-son yo‘nalish bo‘yicha avtobuslar/mikroavtobuslarning
200__-yil _____ uchun ish jadvali

83

T/r	Haydovchining F.I.O.	Transport rusumi	Davlat t/r	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30
1.																																	
2.																																	
3.																																	
4.																																	

– ish kuni

– ish kunlaridan tashqari

– 1 – smena

– 2 – smena

(Tashuvchi rahbarning F.I.O.)

(imzo)

200 ____-yil _____ uchun _____ ning ishi to'g'risida hisobot
 (o y) (tashuvchining nomi)

T/r	Yo'nalish-ning t/r	Yo'nalish-ning nomi	Yo'nalish ochilgan sana	Yo'nalish-ning uzunligi	Harakatlanuvchi tarkib soni	Harakatlanuvchi tarkib rusumi	Jadvallar soni		Ish rejimi		Qatnov oralig'i (daq.)	Reys vaqti (soat daq.)	Reyslar soni		Tashilgan yo'lovchilar soni		Umumiy yurilgan yo'l (km)	Daromad		
							reja	amalda	boshlanishi	tugashi			reja	amalda	reja	amalda		reja	amalda	
1.																				
2.																				
3.																				

84

 (Tashuvchi rahbarning F.I.O.)

 (imzo)

3.3. Yo'lovchi tashuvchi korxonalar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish va tekshirishlarni o'tkazish tartibi

Ma'lumki, agar biron-bir muassasaning yoki tashkilotning faoliyati davlat tomonidan nazorat etilmas ekan, bunda birinchi galda iste'molchilar zarar ko'radi. Bu yerda shuni ham unutmaslik kerakki, ko'pgina hollarda iste'molchilarning huquqini himoya qilish niqobi ostida huquqni himoya qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar xodimlari tomonidan qonunchilik talablariga zid ravishda o'z xizmat vazifalarini suiiste'mol qilish, ayrim hollarda xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatidagi kamchiliklarni ro'kach qilib, tamagirlik qilish hollari ham qayd etilishi mumkin. Tabiiyki, bunday holatlar tadbirkorlik faoliyati erkinligi kafolatlarining buzilishiga, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida ma'lum to'siqlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi va oxir-oqibat tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga bo'lgan qiziqishni yo'qqa chiqaradi.

Davlatning joylardagi hokimiyat va nazorat organlari xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini yanada rivojlantirishga yordam berishi bilan bir paytda ularning faoliyatiga behuda aralashmasliklari darkor.

O'tgan davr ichida MCHJ faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishni takomillashtirish uchun zarur bo'lgan huquqiy-me'yoriy baza yaratildi. Bunday hujjatlarning eng asosiylaridan biri O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 24-dekabrda qabul qilingan «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida»gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2001-yil 8-maydagi «Xo'jalik yurituvchi subyektlarda tekshirishlar o'tkazish va tekshirishlarni ro'yxatga olish kitobini yuritish tartibi to'g'risida»gi 55 MX-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Nizomdir.

Ushbu Qonun va Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalanilgan va ularga quyidagicha ta'riflar berilgan:

- nazorat qiluvchi organlar (nazorat organlari) — xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishga qonun hujjatlari bilan vakolat berilgan vazirliklar va idoralar;
- tekshirish — xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qonunlar hamda o'z faoliyatini tartibga soluvchi boshqa qonun hujjatlari qanday bajarilayotganligini nazorat qiluvchi va huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan amalga oshiriladigan bir martalik nazorat;
- kompleks tekshiruv — bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladigan tekshiruv;

— tekshirishlarni ro‘yxatga olish kitobi — rasmiy hujjat hisoblangan, nazorat va huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan o‘tkazilgan xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatini tekshirishlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan tekshirishlarni hisobga olish maxsus kitobi;

— taftish-moliya va soliq masalalari bo‘yicha qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliq, davlat statistika organlariga hamda banklarga taqdim etiladigan hisobga olish va hisobot ishlarining to‘g‘riligi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning buxgalterlik, moliya va boshqa hujjatlarini tekshirish;

— muqobil tekshiruv — operatsiyalar birligi tufayli o‘zaro bog‘liq bo‘lgan va turli xo‘jalik yurituvchi subyektlarga yoki bir xo‘jalik yurituvchi subyektning turli bo‘limlaridagi hujjatlarni taqqoslashdan iborat tekshiruv;

— nazorat tartibida tekshirish — xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ilgari tekshirishda ko‘rsatilgan qoidabuzarliklarni bartaraf etish ustidan nazorat qiluvchi organlar amalga oshiradigan tekshirish.

Nazorat qiluvchi organlar tomonidan yuridik shaxs bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini rejali tekshirish, shu jumladan, taftish o‘tkazish maxsus vakolatli organ yoki uning tegishli hududiy bo‘linmasi tomonidan berilgan, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirishni o‘tkazishning muvofiqlashtiruvchi rejasidan ko‘chirma yoki buyruq asosida va ko‘pi bilan yiliga bir marta amalga oshirilishi mumkin. Agar xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyati har yili ijobiy auditorlik xulosalarini olib borayotgan bo‘lsa, u holda ularning nazorat organlari tomonidan rejali tekshiruv oxirgi tekshiruvdan ikki yildan kam bo‘lmagan muddatda o‘tkazilishi mumkin. Muqobil tekshiruvlarni o‘tkazish faqatgina ularning tekshirilayotgan obyekt bilan o‘zaro munosabatlari (jinoiy ish materiallari, ashyoviy dalillar) qismida yo‘l qo‘yiladi. Prokuratura, ichki ishlar va milliy xavfsizlik xizmati organlari tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish uchun qo‘zg‘atilgan jinoiy ish mavjudligi asos bo‘ladi, shu bilan birga, bunday tekshirishlar ko‘rsatilgan jinoiy ish bilan bog‘liq faoliyatning qismi bilan cheklangan bo‘lishi kerak. Tekshirish muddati 30 kundan oshadigan bo‘lsa, uni faqat maxsus vakolati bor organgina cho‘za oladi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish rejali va rejadan tashqari tekshirishlarga bo‘linadi. Rejadan tashqari tekshirishlar quyidagi holatlarda: hukumat qarori bilan, qonun hujjatlari buzilganligi to‘g‘risida ma‘lumot tushganda hamda ba‘zi bir tabiiy ofatlar kutilayotganida uning oldini olish uchun o‘tkaziladi.

Tekshiruvda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining bevosita tekshiruv (huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan qo'zg'atilgan jinoiy ish doirasida o'tkaziladigan tekshiruvlardan tashqari) o'tkazilgan yildan avval kelgan faqat uch taqvim yili qamrab olinishi mumkin. Bunda avval tekshirilgan masalalar bo'yicha tekshiruv o'tkazish taqiqlanadi. Kengash yoki viloyat komissiyasining qarori yoxud huquqni muhofaza qilish organi tegishli mansabdor shaxsning qarorida ko'rsatilgan tekshiruv predmeti bilan bog'liq bo'lmagan materiallar va axborotlarni talab qilish taqiqlanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt Kengash yoki viloyat komissiyalari ishchi organlaridan uning faoliyatini tekshirishga aloqador ma'lumotlarni olish huquqiga ega. Masalan, tekshirishning boshlanish sanasi, rejalashtirilgan tekshiruv turi, nazorat qiluvchi organ nomi va hokazolar.

Tekshirishlarni o'tkazish shartlari, tekshiriladigan xo'jalik yurituvchi subyektlar, tekshiruvchi organlar va mansabdor shaxslarning huquq va majburiyatlari hamda javobgarligi bilan bog'liq bo'lgan masalalar nizomda to'liq bayon etilgan.

Nizomga ko'ra, tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar tekshiruvchi organ vakillaridan o'z faoliyatining tekshirilishi to'g'risidagi axborotga oldindan ega bo'lishi, nazorat organlarining tekshiruvchi mansabdor shaxslaridan Kengash va viloyat komissiyalarining qarorini, qo'zg'atilgan jinoiy ish bilan bog'liq tekshiruv o'tkazish to'g'risidagi qarorni va tekshirish o'tkazish uchun asos bo'lib hisoblanuvchi boshqa hujjatlarni talab qilish, tekshiruvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar bilan tanishish, tekshirish o'tkazish uchun asosga ega bo'lmagan shaxslarning tekshirish o'tkazishiga yo'l qo'ymaslik, nazorat organlarining vakolatiga kirmaydigan masalalarga oid talablarni bajarmaslik va tekshiruv predmetiga taalluqli bo'lmagan materiallar bilan ularni tanishtirmaslik, tekshiruvchi mansabdor shaxslardan tekshiruv tugaganidan so'ng 10 kun muddat ichida tekshirish natijalarini aks ettiruvchi hujjatlarning nusxasini olish, qonunda belgilangan tartibda tekshirish natijalari ustidan shikoyat qilish huquqiga egadirlar.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirishning belgilangan tartibga rioya etilishi bo'yicha jinoiy javobgarlikka bo'lgan shaxsan javobgarlik tekshiruv organlarining rahbarlari va vakolatli shaxslar zimmasiga yuklatiladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

ILOVA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

«YO‘L HARAKATI XAVFSIZLIGI TO‘G‘RISIDA»GI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNIGA O‘ZGARTIRISH VA QO‘SHIMCHALAR KIRITISH HAQIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan
2012-yil 7-noyabrda qabul qilingan,
Senat tomonidan 2013-yil 28-martda ma’qullangan

1-modda. O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustda qabul qilingan «Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida»gi 818-I sonli Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil, № 9, 215-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006 yil, № 4, 157-modda; 2007-yil, № 4, 155-modda) o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilib, uning yangi tahriri tasdiqlansin (ilova qilinadi).

2-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:
hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;
davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z
normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor
qilishlarini ta’minlasin.

3-modda. Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran
kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasining
Prezidenti**

I.A. Karimov

Toshkent sh.,
2013-yil 10-aprel,
O‘RQ-348-son.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

YO‘L HARAKATI XAVFSIZLIGI TO‘G‘RISIDA (yangi tahriri)

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi va asosiy vazifalari

Ushbu Qonunning maqsadi yo‘l harakati xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu Qonunning asosiy vazifalari fuqarolar hayoti va sog‘lig‘i muhofaza etilishini, ularning huquqlari hamda qonuniy manfaatleri, yuridik va jismoniy shaxslarning mulki, shuningdek, atrof-muhit himoya qilinishini ta‘minlashdan iboratdir.

2-modda. Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari

Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

yo‘l — transport vositalarining harakatlanishi uchun qurilgan yoki moslashtirilgan va foydalaniladigan yer polosasi yoxud sun‘iy inshoot yuzasi. Yo‘l avtomobil yo‘llarini, shahar elektr transporti yo‘llarini va yo‘lkalarni o‘z ichiga oladi;

yo‘l harakati — odamlar va yuklarning transport vositalari yordamida yoki bunday vositalarsiz yo‘llar doirasida harakatlanishi jarayonida yuzaga keluvchi munosabatlar majmuyi;

yo‘l harakati qatnashchisi — yo‘l harakati jarayonida transport vositasining haydovchisi, yo‘lovchisi yoki piyoda sifatida bevosita ishtirok etayotgan shaxs;

yo‘l harakati xavfsizligi — yo‘l harakati qatnashchilarining yo‘l-transport hodisalari va ularning oqibatlaridan himoyalanganlik darajasini aks ettiruvchi yo‘l harakati holati;

yo‘l-transport hodisasi — transport vositasining yo‘lda harakatlanishi jarayonida ro‘y bergan, fuqarolarning halok bo‘lishiga yoki sog‘lig‘iga zarar yetishiga, transport vositalari, inshootlar, yuklarning shikastlanishiga yoxud boshqa moddiy zarar yetishiga sabab bo‘lgan hodisa;

yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash — yo'l-transport hodisalari yuzaga kelishi sabablarining oldini olishga, bunday hodisalar oqibatlarining og'irligini kamaytirishga qaratilgan faoliyat;

yo'l harakatini tashkil etish — yo'llarda harakatni boshqarish bo'yicha huquqiy, tashkiliy-texnikaviy tadbirlar va boshqaruv harakatlari majmuyi;

transport vositasi — odamlarni, yuklarni tashishga yoki maxsus ishlarni bajarishga mo'ljallangan qurilma;

transport vositasining egasi — transport vositasiga mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlar asosida egalik qiluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

4-modda. Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashning asosiy prinsiplari

Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

fuqarolar hayoti va sog'lig'i muhofazasining, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlari, shuningdek, atrof-muhit himoyasining ustuvorligi; yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadbirlarning ustuvorligi; yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha faoliyatning tizimliliigi.

5-modda. Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat boshqaruvi

Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari va maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasidagi maxsus vakolatli davlat organlariga quyidagilar kiradi:

O'zbekiston Avtomobil va daryo transporti agentligi;

Avtomobil yo'llari qurish va foydalanish davlat aksiyadorlik kompaniyasi;

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati.

6-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha davlat dasturlarini tasdiqlaydi va ularning amalga oshirilishi ustidan nazorat olib boradi;

Yo'l harakati qoidalarini hamda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash va yo'l harakatini tashkil etish masalalariga doir boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlaydi;

vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash, shuningdek, ekologik xavfsizlik talablariga rioya etish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;

transport vositalari va yo‘llarning texnik holatiga, yo‘llarda va temiryo‘llarni kesib o‘tish joylarida yo‘l harakati xavfsizligiga doir yagona talablarni belgilaydi;

transport vositalarining haydovchilarini (bundan buyon matnda haydovchilar deb yuritiladi) tayyorlashga, shuningdek, aholiga yo‘llarda yurish-turish xavfsizligi qoidalarini o‘rgatishga doir umumiy talablarni belgilaydi;

haydovchilarni, transport vositalarini, yo‘l harakati qoidalarining buzilishini, yo‘l-transport hodisalarini va boshqa ko‘rsatkichlarni hisobga olishning yagona tizimini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

7-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha davlat dasturlarini amalga oshiradi;

yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha hududiy dasturlarni tasdiqlaydi va ularning amalga oshirilishi ustidan nazorat olib boradi;

yo‘l harakati xavfsizligi tibbiy jihatdan ta‘minlanishini, shuningdek, yo‘l-transport hodisalarida jabrlanganlarga tibbiy yordam ko‘rsatilishini tashkil etadi;

yo‘l-transport hodisalarining oldini olish, aholiga yo‘llarda yurish-turish xavfsizligi qoidalarini o‘rgatish, yo‘l harakati xavfsizligini targ‘ib qilish hamda ekologik xavfsizlik talablariga rioya etish bo‘yicha chora-tadbirlarni ko‘radi;

shaharlardagi, shaharchalar va qishloq aholi punktlaridagi ko‘chalarning, yo‘lkalarning hamda yo‘l harakatini tartibga solish vositalarining, shuningdek, shahar elektr transporti yo‘llarining jihozlanishi va soz holatda saqlanishini ta‘minlaydi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

8-modda. O‘zbekiston Avtomobil va daryo transporti agentligining yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Avtomobil va daryo transporti agentligi:

yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

avtomobillarda tashish xavfsizligi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni va normativ hujjatlarni ishlab chiqadi;

avtomobil transportida yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Avtomobil va daryo transporti agentligi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

9-modda. Avtomobil yo‘llari qurish va foydalanish davlat aksiyadorlik kompaniyasining yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash sohasidagi vakolatlari

Avtomobil yo‘llari qurish va foydalanish davlat aksiyadorlik kompaniyasi:

yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini loyihalash, qurish, rekonstruksiya qilish, ta‘mirlash va saqlashda yo‘l harakati xavfsizligi sohasidagi normativ hujjatlarni ishlab chiqadi;

o‘ziga qarashli avtomobil yo‘llarida transport vositalarining xavfsiz harakatlanishi uchun bu yo‘llarning soz holatda saqlanishini ta‘minlaydi;

yo‘l harakati qatnashchilarini yo‘l qoplamasining holati, gidrometeorologik va boshqa sharoitlar to‘g‘risidagi zarur axborot bilan ta‘minlaydi;

avtomobil yo‘llarida yo‘l harakatini tartibga solish vositalari, tezkor aloqa tizimi qurilishini va mazkur yo‘llarning ushbu vositalar va tizim bilan jihozlanishini amalga oshiradi hamda ularning saqlanishini ta‘minlaydi;

avtomobil yo‘llarining harakatlanish uchun xavfli uchastkalarini aniqlaydi va bu uchastkalarda yo‘l harakatini tashkil etishni takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ko‘radi;

og‘ir vaznli, yirik gabaritli, xavfli va maxsus yuklarni tashuvchi transport vositalarining qatnov yo‘nalishlarini belgilashda ishtirok etadi, shuningdek, yo‘l servisi obyektlarini joylashtirishga rozilik beradi.

Avtomobil yo‘llari qurish va foydalanish davlat aksiyadorlik kompaniyasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

10-modda. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmatining yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati:

yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

yo'l harakati xavfsizligi sohasidagi normativ hujjatlarni ishlab chiqadi;

yo'l harakati qatnashchilarining ushbu Qonunga, Yo'l harakati qoidalariga hamda boshqa qonun hujjatlarining yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashga oid qismiga rioya etishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

og'ir vaznli, yirik gabaritli, xavfli va maxsus yuklarni tashuvchi transport vositalarining qatnov yo'nalishlarini belgilashda ishtirok etadi;

yo'llarni, temiryo'llarni kesib o'tish joylarini, avtomobilga yoqilg'ini quyish shoxobchalarini, transport vositalarining konstruksiyalarini qurish, rekonstruksiya qilish loyihalariga rozilik beradi;

foydalanishdagi transport vositalarining texnik holati ustidan nazoratni amalga oshiradi, transport vositalarining majburiy texnik ko'rigini o'tkazadi;

yo'llarning va temiryo'llarni kesib o'tish joylarining saqlanishi, ularning yo'l harakatini tartibga solish vositalari bilan jihozlanishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

yo'l harakati xavfsizligi sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq bo'lmagan yo'llardan va temiryo'llarni kesib o'tish joylaridan foydalanishni taqiqlaydi;

transport vositalarining, yo'l harakati qoidalarini buzilishining hamda yo'l-transport hodisalarining hisobini va ro'yxatini yuritadi;

transport vositalarini boshqarish huquqini beruvchi guvohnomalar beradi;

qonun hujjatlariga muvofiq o'zining vakolat doirasiga kiritilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

11-modda. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining va nodavlat notijorat tashkilotlarining yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishdagi ishtiroki

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari:

mahalliy davlat hokimiyati organlariga, maxsus vakolatli davlat organlariga yo'l harakati xavfsizligi sohasidagi tadbirlarni amalga oshirish hamda normativ-huquqiy hujjatlar va normativ hujjatlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritishga;

yo'l-transport hodisalarining oldini olish bo'yicha tadbirlarda ishtirok etishga;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan yo'l harakati xavfsizligi sohasidagi qarorlar ishlab chiqilishida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishtirok etishga haqli.

12-modda. Transport vositalari egalarining yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash borasidagi majburiyatlari

Transport vositalarining egalari:
texnik jihatdan soz transport vositalaridan foydalanishi;
transport vositalarini tegishli malakaga ega bo‘lgan va tibbiy ko‘rikdan o‘tgan shaxslar boshqarishiga ijozat berishi;
o‘z fuqarolik javobgarligini qonun hujjatlariga muvofiq majburiy sug‘urta qilishi;
yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga va ekologik xavfsizlik talablariga rioya etishi shart.

13-modda. Yo‘llarni loyihalash, qurish, rekonstruksiya qilishga, ta‘mirlash va saqlashga doir talablar

Yo‘llarni loyihalash, qurish, rekonstruksiya qilish, ta‘mirlash va saqlash yo‘l harakati xavfsizligi sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Qurilgan va rekonstruksiya qilingan yo‘llarning normativ hujjatlar talablariga muvofiqligi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tegishli organlar tomonidan aniqlanadi.

Loyihalash bosqichida yo‘llarning yo‘l harakati xavfsizligi sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligi uchun javobgarlik loyihani bajaruvchining, qurish va rekonstruksiya qilish bosqichlarida esa ishlarni bajaruvchining zimmasiga yuklatiladi.

Yo‘llarni ta‘mirlash va saqlashda ularning holati yo‘l harakati xavfsizligi sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini ta‘minlash bo‘yicha majburiyat yo‘llar qaysi yuridik va jismoniy shaxslar tasarrufida bo‘lsa, shu yuridik va jismoniy shaxslar zimmasiga yuklatiladi.

Tasarrufida yo‘llar bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar o‘z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi oqibatida yo‘l sharoitlari tufayli yo‘l harakati qatnashchilariga va transport vositasiga yetkazilgan zararining o‘rni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mazkur shaxslar tomonidan qoplanishi kerak.

14-modda. Yo‘llarda servis obyektlarini qurish

Tasarrufida yo‘llar bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar nazarda tutilgan servis obyektlarini loyihalash normalariga, qurilish rejalariga va ushbu obyektlarni joylashtirishning bosh sxemalariga muvofiq bu yo‘llarda mazkur obyektlarni qurish chora-tadbirlarini ko‘radi, yo‘l harakati qatnashchilarining ehtiyojlarini qanoatlantirish va ularning xavfsizligini ta‘minlash maqsadida servis obyektlarining ishini tashkil etadi, yo‘l harakati qatnashchilariga bunday obyektlarning mavjudligi hamda eng yaqin sog‘liqni saqlash va aloqa muassasalarining joylashuvi

haqida, shuningdek, yo‘llarning tegishli uchastkalaridagi xavfsiz harakatlanish sharoitlari to‘g‘risida axborot beradi.

15-modda. Yo‘llarda harakatlanishni cheklash yoki taqiqlash

Yo‘llarda harakatlanishni cheklash yoki taqiqlashga qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda yo‘l qo‘yiladi.

16-modda. Transport vositalariga, ular konstruksiyalarining tarkibiy qismlariga, ehtiyot qismlarga va anjomlarga doir talablar

Transport vositalari, ular konstruksiyalarining tarkibiy qismlari, ehtiyot qismlar va anjomlar yo‘l harakati xavfsizligi sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq bo‘lishi hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda albatta sertifikatlashtirilishi kerak.

17-modda. Transport vositalarining texnik holatiga va uskunalariga doir talablar

Yo‘l harakatida foydalaniladigan transport vositalarining texnik holati va uskunalari yo‘l harakati xavfsizligi sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi hududida foydalanishda bo‘lgan va belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan transport vositalari majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi kerak.

Transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigini o‘tkazish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

18-modda. Transport vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish va ularni ta‘mirlashga oid talablar

Transport vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish va ularni ta‘mirlash yo‘l harakati xavfsizligi sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq bo‘lishi kerak.

Transport vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish va ularni ta‘mirlash bo‘yicha ishlarni bajarayotgan hamda xizmatlar ko‘rsatayotgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar bu ishlarni (xizmatlarni) yo‘l harakati xavfsizligi sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq amalga oshiradi.

19-modda. Transport vositalaridan foydalanishni taqiqlash

Yo‘l harakati xavfsizligiga tahdid soluvchi texnik nosozliklar mavjud bo‘lganda transport vositalaridan foydalanish taqiqlanadi.

Transport vositalarining texnik nosozliklari ro‘yxati va bunday nosozliklar mavjud bo‘lganda ulardan foydalanishni taqiqlaydigan shartlar Yo‘l harakati qoidalarida belgilanadi.

Transport vositalaridan foydalanishni taqiqlash O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmatining bunga vakolatli mansabdor shaxslari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

20-modda. Faoliyati transport vositalaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan yuridik shaxslarga qo'yiladigan asosiy talablar

Faoliyati transport vositalaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan yuridik shaxslar:

haydovchilarning ishini yo'l harakati xavfsizligini ta'minlovchi talablarga muvofiq tashkil etadi;

haydovchilarning qonun hujjatlarida belgilangan mehnat qilish va dam olish tartibiga rioya etadi;

haydovchilarning malakasini oshirish uchun zarur sharoitlar yaratadi; yo'l harakati xavfsizligiga tahdid soluvchi texnik nosozliklar mavjud bo'lganda transport vositalaridan foydalanishga yo'l qo'ymaydi;

o'ziga tegishli transport vositalari ishtirokida sodir bo'lgan yo'l-transport hodisalarining va yo'l harakati qoidalari buzilishlarining sabablarini tahlil qiladi hamda ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'radi;

sog'liqni saqlash muassasalari xodimlarini jalb etgan holda haydovchilarning tibbiy ko'riklarini, haydovchilarning yo'l-transport hodisalarida jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha ko'nikmalarini takomillashtirishga doir tadbirlarni tashkil etadi va o'tkazadi;

fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan majburiyatning bajarilishini ta'minlaydi;

transport vositalarining but saqlanishini ta'minlaydi.

Avtomobil transportida yoki yerusti shahar elektr transportida yo'lovchilar, bagaj va yuk tashish faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik shaxslar yo'l harakati xavfsizligi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq, tashishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash maqsadida haydovchilarga nisbatan qo'shimcha talablar qo'yishi mumkin.

Yuridik shaxslar transport vositalarining soniga bog'liq holda yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha xizmatlarni tashkil etadi yoki lavozimlar joriy etadi. Yo'l harakati xavfsizligi xizmati xodimlarining sonini aniqlash normativlari qonun hujjatlarida belgilanadi.

Yuridik shaxslar tomonidan o'tkaziladigan yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashga doir tadbirlarni moliyalashtirish ish beruvchining mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

21-modda. Faoliyati transport vositalaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan yuridik shaxslarning xodimlarini o'qitish, mazkur xodimlar malakasini oshirish, ularga yo'l-yo'riq ko'rsatish va ularning bilimlarini tekshirish

Faoliyati transport vositalaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan yuridik shaxslarning xodimlarini yo'l harakati xavfsizligi masalalari bo'yicha o'qitish, mazkur xodimlar malakasini oshirish, ularga yo'l-yo'riq ko'rsatish va ularning bilimlarini tekshirish ish beruvchi tomonidan o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Ish beruvchi haydovchilarga yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha: ishga qabul qilishda (dastlabki), reys oldidan (reys oldi), maxsus, mavsumiy va qo'shimcha (navbatdan tashqari) yo'l-yo'riqlar ko'rsatilishini ta'minlashi shart.

Faoliyati transport vositalaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan yuridik shaxslarning yo'l harakati xavfsizligi xizmati xodimlari O'zbekiston Avtomobil va daryo transporti agentligi tomonidan tasdiqlangan maxsus dasturlar bo'yicha vaqt-vaqti bilan, uch yilda kamida bir marta o'z malakasini oshirib, malaka imtihoni topshirishi kerak.

22-modda. Mehnat shartnomasi bo'yicha ishlayotgan haydovchilarning huquqlari

Mehnat shartnomasi bo'yicha ishlayotgan haydovchilar quyidagi huquqlarga ega:

ish beruvchidan harakat yo'nalishi, tashiladigan yuk, o'z hayoti va sog'lig'iga nisbatan mavjud bo'lgan tahdid to'g'risida, shuningdek, tashishni amalga oshirish chog'ida zararli va (yoki) xavfli omillar ta'siridan o'zining himoya qilinishiga doir chora-tadbirlar haqida ishonchli axborot olish;

belgilangan talablarga muvofiq shaxsiy himoya vositalari, maxsus kiyim-bosh bilan ta'minlanish;

yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha sharoitlarni yaxshilash bilan bog'liq bo'lgan masalalarni ko'rib chiqishda ishtirok etish;

o'z hayoti va sog'lig'iga tahdid soladigan vaziyat yuzaga kelganda bevosita rahbarni yoki ish beruvchining boshqa vakilini bu haqda xabardor qilgan holda tashishni bajarishni rad etish;

yo'l harakati xavfsizligi sohasida malakasini oshirish va kasbiy qayta tayyorgarlikdan o'tish;

mehnat vazifalarini bajarishi chog'ida o'z sog'lig'iga yetkazilgan zararining o'rni qoplanishi;

ish beruvchining yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasidagi huquqqa xilof qarorlari va harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish.

Mehnat shartnomasi bo'yicha ishlayotgan haydovchilar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

23-modda. Yo'l harakati xavfsizligini tibbiy jihatdan ta'minlash

Yo'l harakati xavfsizligini tibbiy jihatdan ta'minlash haydovchilarni majburiy ravishda dastlabki va davriy tibbiy ko'riklardan, shu jumladan, reys oldidan tibbiy ko'riklardan o'tkazish, shuningdek, yo'l-transport hodisalarida jabrlangan shaxslarga tibbiy yordam ko'rsatish, yo'l harakati qatnashchilariga, ichki ishlar organlarining, boshqa ixtisoslashtirilgan bo'linmalarning mansabdor shaxslariga va aholiga yo'l-transport hodisalarida jabrlangan shaxslarga tibbiyot xodimlari yetib kelguniga qadar yordam ko'rsatish usullarini vaqt-vaqti bilan o'rgatish orqali amalga oshiriladi.

Yo'l-transport hodisalarida jabrlangan shaxslarga ko'rsatiladigan tibbiy yordam yo'l-transport hodisasi sodir bo'lgan joyning o'zida tibbiyot xodimlari yetib kelguniga qadar yordam ko'rsatishdan, shuningdek yo'l-transport hodisasi sodir bo'lgan joyning o'zida, davolash-profilaktika muassasasiga olib borilayotganda va davolash-profilaktika muassasasida malakali tibbiy yordam ko'rsatishdan iborat.

Tibbiy ko'riklarni o'tkazish hamda yo'l-transport hodisalarida jabrlangan shaxslarga tibbiy yordam ko'rsatilishini tashkil etish tartibi, shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish uchun transport vositasining salonida turishi shart bo'lgan zarur tibbiy ashyolar ro'yxati, shuningdek, transport vositalarini boshqarishni taqiqlovchi, tibbiy ko'rsatmalarga zid holatlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

24-modda. Yo'l harakati xavfsizligini tashkil etish

Yo'l harakati xavfsizligini tashkil etish qo'llanilishi yo'l harakati xavfsizligi sohasidagi normativ hujjatlarda belgilangan hamda yo'l harakatini tashkil etish loyihalari va sxemalarida nazarda tutilgan tartibga solishning texnik vositalaridan hamda ularning konstruksiyalaridan kompleks foydalanish asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining barcha hududlaridagi yo'l harakatining yagona tartibi Yo'l harakati qoidalarida belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi yo'llarida transport vositalarining o'ng tomonlama harakatlanishi belgilanadi.

Yo'l harakatining tashkil etilishini yo'llarning o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish yoki boshqa maqsadlar uchun yo'l harakati xavfsizligi darajasini pasaytirish hisobiga o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

25-modda. Yo'l harakati xavfsizligi holatining asosiy ko'rsatkichlarini shakllantirish, hisobini yuritish va ulardan foydalanish

Yo'l harakati xavfsizligi holatining asosiy ko'rsatkichlarini shakllantirish, hisobini yuritish va ulardan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

26-modda. Yo'l harakati qatnashchilarining huquq va majburiyatlari

Yo'l harakati qatnashchilarining yo'llarda harakatlanishning xavfsiz sharoitlariga bo'lgan huquqlari davlat tomonidan kafolatlanadi.

Yo'l harakati qatnashchilarining o'z huquqlarini amalga oshirishi yo'l harakati boshqa qatnashchilarining huquqlarini cheklamasligi yoki buzmasligi kerak.

Yo'l harakati qatnashchilari quyidagi huquqlarga ega:

Yo'l harakati qoidalariga muvofiq yo'llarda erkin va moneliksiz harakatlanish;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan o'z huquqlarining cheklanishi yoki buzilishi sabablari to'g'risida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasidagi maxsus vakolatli davlat organlarining mansabdor shaxslaridan tushuntirishlar olish;

harakatlanishning xavfsiz sharoitlari to'g'risida, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq mahsulotlar va xizmatlarning sifati haqida to'liq hamda ishonchli axborot olish;

yo'l-transport hodisalari sodir bo'lganda qonun hujjatlariga muvofiq zimmasiga bepul tibbiy yordam ko'rsatish, qutqaruv ishlari olib borish va boshqa shoshilinch yordam ko'rsatish majburiyati yuklatilgan tashkilotlar va mansabdor shaxslardan shunday yordamlar olish;

yo'l-transport hodisasi oqibatida ular tan jarohati olgan, transport vositasi va yuk shikastlangan hollarda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda zararining o'rni qoplanishi, shuningdek, ma'naviy ziyon uchun kompensatsiya olish;

maxsus vakolatli davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasidagi qonunga xilof qarorlari, shuningdek, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish;

yo'l belgilarini, chiziqlarini, svetoforlarni o'zgartirish va o'rnatish yuzasidan, yo'l qoplamasining holati haqidagi takliflar hamda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash masalalariga doir boshqa takliflar bilan tegishli organlarga murojaat etish.

Yo'l harakati qatnashchilari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Yo'l harakati qatnashchilarining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

ushbu Qonun, Yoʻl harakati qoidalari talablariga va yoʻl harakati xavfsizligi toʻgʻrisidagi boshqa qonun hujjatlari talablariga rioya etish; yoʻl harakati xavfsizligini taʼminlash sohasidagi maxsus vakolatli davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari mansabdor shaxslarining qonuniy talablarini bajarish.

Yoʻl harakati qatnashchilarining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham boʻlishi mumkin.

27-modda. Transport vositalarini boshqarish huquqi

Quyidagilarni:

mototsikllar, motorollerlarni va boshqa mototransport vositalarini boshqarish huquqi — oʻn olti yoshga toʻlgan shaxslarga beriladi;

ruxsat etilgan eng koʻp ogʻirligi 3500 kilogrammdan hamda oʻrindiqlar soni haydovchining oʻrindigʻidan tashqari sakkiztadan oshmaydigan avtomobillarni boshqarish huquqi, taksi bundan mustasno — oʻn sakkiz yoshga toʻlgan shaxslarga beriladi;

ruxsat etilgan eng koʻp ogʻirligi 3500 kilogrammdan oshadigan yuk avtomobillarini boshqarish huquqi — oʻn sakkiz yoshga toʻlgan shaxslarga beriladi;

taksi tariqasida foydalaniladigan avtomobillarni, shuningdek, yoʻlovchilar tashish uchun moʻljallangan va haydovchining oʻrindigʻidan tashqari sakkiztadan ortiq oʻrindigʻi boʻlgan avtomobillarni, tramvaylar va trolleybuslarni boshqarish huquqi — yigirma bir yoshga toʻlgan shaxslarga beriladi;

transport vositalari sostavlarini boshqarish huquqi — ushbu qismning uchinchi, toʻrtinchi va beshinchi xatboshilarida koʻrsatilgan transport vositalarini boshqarish huquqiga ega boʻlgan shaxslarga transport vositalarini boshqarish staji oʻn ikki oydan kam boʻlmagan taqdirda beriladi.

Transport vositalarini boshqarish huquqi tibbiy tekshiruvdan oʻtgan va malaka imtihonlarini topshirgan shaxslarga beriladigan, belgilangan namunadagi guvohnoma bilan tasdiqlanadi.

Malaka imtihonlarini topshirish va transport vositalarini boshqarish huquqini beruvchi guvohnomani berish tartibi Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi hududida belgilangan talablarga mos keladigan milliy va xalqaro haydovchilik guvohnomalari amal qiladi.

28-modda. Haydovchilarni tayyorlashga doir talablar

Transport vositalarini boshqarish huquqini olish uchun malaka imtihonlarini topshirishga tegishli toifadagi haydovchilar tayyorlashning oʻquv rejaları va dasturlarida nazarda tutilgan hajmda tegishli tayyorgarlikdan oʻtgan shaxslar qoʻyiladi.

Tegishli toifalardagi haydovchilarni tayyorlashning yagona dasturlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

29-modda. Transport vositalarini boshqarish huquqining bekor qilinishi

Transport vositalarini boshqarish huquqi quyidagi hollarda bekor qilinadi:

haydovchining sog'lig'i transport vositasini xavfsiz boshqarishga monelik qiladigan tarzda yomonlashganligi tibbiy xulosa bilan tasdiqlanganda;

haydovchi sodir etilgan huquqbuzarlik uchun transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum etilganda. Transport vositalarini boshqarish huquqidan javobgarlik chorasi sifatida mahrum etishga sabab bo'ladigan huquqbuzarliklarning turlari qonun hujjatlarida belgilanadi. Transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum etish sud tomonidan qo'llaniladi.

30-modda. Nizolarni hal etish

Yo'l harakati xavfsizligi sohasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

31-modda. Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Vazirlar Kengashi hamda viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan tashkil etiladigan yo'lovchilar tashish transportini boshqarish organlari tomonidan;

d) viloyatlararo-shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda — O'zbekiston Avtomobil va daryo transporti agentligi tomonidan tuziladigan jadvallar bo'yicha tashkil etiladi.

9. Yangi yo'nalishlarni tashkil etish (ochish) belgilangan tartibda:

a) shaharlarda — shaharlar hokimliklari yoki shahar yo'lovchilar tashish transportini boshqarish organlari tomonidan;

b) shahar atrofidagi va viloyatlar ichidagi shaharlararo yo'nalishlarda — Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi hamda viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari yoki yo'lovchilar tashish transportini boshqarish organlari tomonidan;

d) viloyatlararo-shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda — O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Yo'llarda harakatlanish xavfsizligi Bosh boshqarmasi bilan kelishgan holda O'zbekiston Avtomobil va daryo transporti agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

10. Har bir yangidan ochiladigan va foydalaniladigan yo'nalishlar uchun yo'nalish pasporti tasdiqlanadi, unda quyidagilar bo'ladi:

a) yo'nalishning asosiy ko'rsatkichlari bilan birga titul varaqasi;

b) yo'nalish sxemasi (sxemada to'xtab o'tish manzillari, harakatlanish uchun xavfli bo'lgan yo'l uchastkalari, temiryo'lni kesib o'tish joylari, kesishgan yo'l ustidan o'tkazilgan ko'ndalang yo'llar va shu kabilar ko'rsatiladi). Shaharlararo-viloyatlararo va xalqaro yo'nalishlar sxemalarida, bundan tashqari, dam olish joylari ovqatlanish shoxobchalari ko'rsatiladi;

d) masofani o'lchash protokoli va avtotransport vositasining harakatlanish vaqti xronometraji;

e) avtotransport vositasining yo'nalish bo'yicha harakatlanish jadvali;

f) yo'l haqi tariflari.

11. Yo'lovchilarning ayrim toifalariga transportda imtiyozli (shu jumladan, bepul) yurish huquqi beriladi.

Avtomobil transportida imtiyozli yurish huquqiga ega bo'lgan yo'lovchilar toifalari va ushbu imtiyozlarni berish tartibi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

12. Muntazam yo'lovchilar tashish yo'nalishlaridagi avtotransport vositalarida yurishda yo'lovchi yo'l chiptasi sotib olishi, uni butun yo'lda yurish vaqti davomida saqlashi va uni nazoratchining birinchi talabiga ko'ra ko'rsatishi shart.

13. Yo'lovchilar yo'l chiptalarini kassalardan yoki konduktordan (haydovchidan) sotib oladi.

14. Yo'nalishdagi avtotransport vositasi nosoz bo'lgan taqdirda yo'lovchilarga berilgan yo'lda yurish hujjatlari aynan shu yo'nalishdagi

boshqa avtotransport vositasida yurish uchun haqiqiy hisoblanadi. Yo'lovchilarni boshqa avtotransport vositasiga o'tkazish nosoz avtotransport vositasining haydovchisi tomonidan amalga oshiriladi.

Yo'lovchilar yo'qotib qo'ygan chiptalari tiklanmaydi, ular uchun to'langan pul qaytarib berilmaydi.

15. Avtobusda:

- a) yo'lovchilarning mast holda yurishi;
- b) yo'lovchilar yoki haydovchining chekishi;
- d) haydovchi (konduktor)ning ruxsatisiz oynalarni ochish;
- e) oynadan tashqariga osilish;
- f) tez yonuvchan, portlovchi, zaharlovchi, zaharli qo'lansa, radioaktiv moddalar va ashyolarni, g'ilofsiz o'qotar qurol, tig'li va keskir ashyolarni olib yurish;
- g) o'lchami 100 sm × 50 sm × 30 santimetrdan katta yoki bitta o'rin uchun og'irligi 60 kilogrammdan ortiq buyumlarni, shuningdek, uzunligi 200 santimetrdan ortiq bo'lgan buyumlarni olib yurish;
- h) salonni yoki yo'lovchilarning kiyimlarini iflos qiluvchi buyumlar va ashyolarni olib yurish;
- i) tumshuqbog'siz itlar va boshqa hayvonlarni olib yurish taqiqlanadi.

3-§. Yo'lovchilar tashuvchi transport vositalariga qo'yiladigan talablar

16. Avtotransport vositalarining texnik holati va anjomlari tegishli standartlar hamda texnik foydalanish qoidalari talablariga javob berishi kerak.

17. Avtotransport vositalari Dst 974/2000 O'zbekiston davlat standartiga muvofiq anjomlarga ega bo'lishi kerak.

4-§. Yo'lovchilarni tashuvchi haydovchilarga qo'yiladigan talablar

18. Avtomobil transportida yo'lovchi tashuvchi haydovchilar O'zbekiston davlat standartlarida va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan talablarga javob berishlari kerak.

19. Muntazam qatnovlarni amalga oshiruvchi avtobuslar va yo'nalishli taksilar haydovchilari yo'nalishda ishlayotganda:

- tender kontraktiga muvofiq ushbu yo'nalishda ishlash huquqini tasdiqlovchi guvohnomaga;
- tegishli litsenziyaga (litsenziya kartochkasiga);
- yo'nalish hujjatlariga;
- yo'l varaqasi va chiptalarni hisobga olish varaqasiga;
- yo'l varaqalarida yo'lga chiqishdan oldin belgilangan tartibda o'tkaziladigan avtotransport vositasining texnik ko'rikdan va haydovchilarning tibbiy ko'rikdan o'tganligi haqidagi qaydlarga;

— qatnov jadvaliga va yoʻnalish sxemasiga (shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yoʻnalishlarda — unda aholi yashash joylaridan oʻtish vaqti, ovqatlanish, dam olish, tungi uxlash vaqti va joyi koʻrsatilgan holda) ega boʻlishi kerak.

5-§. Yoʻlovchilar tashuvchi avtotransport vositalari ishini hisobga olish

20. Quyidagilar yoʻlovchilar tashuvchi avtotransport vositalari ishini hisobga oluvchi asosiy hujjatlar hisoblanadi:

- a) avtotransport vositasining yoʻl varaqasi;
- b) shaharda, shahar atrofida va shaharlararo qatnovchi (yoʻnalishsiz taksilardan tashqari) avtotransport vositalarining chiptalarni hisobga olish varaqasi;
- d) avtobus va yengil avtomobillarning buyurtmanomalar (buyurtmalar) va boshqa shartnomalar boʻyicha ishlashi yuzasidan topshiriqnomasi;
- e) chiptalarni sotish vedomosti (yoʻnalishsiz taksilardan tashqari).

21. Avtotransport vositalarining yoʻl varaqalari va chiptalarni hisobga olish varaqalari hamda buyurtmanomalar (buyurtmalar) va boshqa shartnomalar boʻyicha ishlashi yuzasidan topshiriqnomasi blanklari qatʼiy hisobda turadigan blanklarni hisobga olish va saqlash qoidalari boʻyicha hisobga olinadi va tashuvchida saqlanadi.

22. Yoʻl hujjatlarida tuzatishlar va oʻchirib yozishlarga yoʻl qoʻyilmaydi. Haydovchi garajda, yoʻlda, oraliq manzillarga kirib oʻtishda va oxirgi manzillarda yoʻl hujjatlaridagi barcha qaydlarning toʻgʻriligini kuzatib borishi shart.

III BOB. SHAHARDAGI YOʻNALISHLARDA YOʻLOVCHILAR VA BAGAJ TASHISH

1-§. Umumiy qoidalar

23. Shahar yoʻlovchilarni tashish transporti yoʻnalishlari quyidagi turlarga boʻlinadi:

- a) shahardagi oddiy, tezkor, ekspres va tigʻiz paytlardagi qoʻshimcha yoʻnalishlar;
- b) shahar chetidan koʻpi bilan 2 km chetga chiquvchi shaharda qatnovchi yoʻnalishlar;
- d) yoʻnalishli taksilar.

Shahardagi yoʻnalishlar shahar (shaharcha)dagi turar joy va sanoat hududlarini madaniy-maishiy va sport-sogʻlomlashtirish tashkilotlari, vokzallar, aeroportlar, avtostansiyalar, metro stansiyalari, temiryoʻl platformalari, pristanlar va shu kabilar bilan transport aloqasini taʼminlash kerak.

24. Aholiga xizmat ko'rsatish xususiyatiga muvofiq shahardagi yo'nalishlar bir nechta ish rejimiga ega bo'lishi mumkin:

a) sutka, hafta kunlari, oyning belgilangan davri mobaynidan amal qiladigan doimiy yo'nalishlar;

b) dam olish hududlari, sport-sog'lomlashtirish komplekslari, yarmarkalar va shu kabilar faoliyat ko'rsatadigan davrda tashkil etiladigan mavsumiy yo'nalishlar;

d) maxsus yo'nalishlar;

e) ko'cha-yo'l shoxobchalarida favqulodda vaziyatlar paydo bo'lganda, ayrim uchastkalar, transport yo'llari va maydonlar yopilganda joriy etiladigan vaqtinchalik yo'nalishlar.

2-§. Yo'l haqini yo'lkira kartochkalari bilan to'lash

25. Yo'lkira kartochkalarini oldindan sotish maxsus takshil etilgan sotish shoxobchalarida, shuningdek, savdo tashkilotlari va bevosita tashuvchi orqali amalga oshiriladi.

Yo'lkira kartochkasi bagajni bepul tashish huquqini bermaydi.

Yo'lkira kartochkalari seriyalari, transport turlari bo'yicha bo'linadi va yo'lovchilarning barcha toifalari uchun, imtiyozli kartochkalar esa — pensionerlar, nogironlar, talabalar va o'quvchilar uchun haqiqiy hisoblanadi.

Shahar transportida foydalaniladigan barcha seriya va turdagi yo'l kartochkalari taksilar, shahar atrofidagi va shaharlararo (viloyatlararo va xalqaro) yo'nalishlar uchun haqiqiy hisoblanmaydi.

3-§. Transportda yurish shartlari

26. Yo'lovchilarni transportga chiqarish va undan tushirish faqat to'xtab o'tish manzillarida amalga oshirilishi mumkin. Yo'nalishda «talabga ko'ra» to'xtash joylari mavjud bo'lganda yo'lovchi haydovchiga avtotransport vositasini to'xtatish zarurligi to'g'risida oldindan ma'lum qilishi kerak.

27. Yo'nalishli yoki yo'nalishsiz taksilar yo'lovchilarini chiqarish va tushirish yo'lovchilar talabiga ko'ra, yo'llarda harakatlanish xavfsizligi qoidalariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

28. Yo'l kartochkasi yoxud avtobusda yurish huquqini tasdiqlovchi boshqa hujjati bo'lgan yo'lovchi uni avtobusga chiqish vaqtida ko'rsatishi shart.

29. Shahardagi avtobus yo'nalishlarida yo'lovchi yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni o'zi bilan birga bepul olib yurish huquqiga ega.

30. Maktabgacha yoshdagi bolali yo'lovchilar, homilador ayollar, nogironlar va keksa fuqarolar uchun avtobus salonida, uning yo'lovchi

sig'imga qarab, 6 ta oldingi joylar ajratiladi. Ushbu joylarni egallagan boshqa yo'lovchilar ularni mazkur shaxslar uchun bo'shatishlari kerak.

31. Haydovchi avtobusni to'xtash joyidan faqat eshiklarni yopgan holda, yo'lovchilar to'liq tushirib va chiqarib bo'lingandan so'ng yurgizishi, bekatlarni aniq va to'g'ri e'lon qilishi, qatnov yo'nalishi o'zgartgan taqdirda esa bu to'g'rida har qaysi bekatda e'lon qilishi shart. Avtobus salonini avtobusning muayyan turi uchun belgilangan umumiy sig'imidan ortiqcha to'ldirishga yo'l qo'yilmaydi.

4-§. Qo'l yuki va bagajni tashish

32. Yo'lovchi hajmi 60 sm × 40 sm × 20 sm va og'irligi 20 kilogrammdan ortiq bo'lmagan qo'l yuki hamda musiqa asbobini, 150 santimetrgacha uzunlikdagi buyumlarni, shuningdek, qafasga solingan mayda hayvonlar va parrandalarni, aravachani (bolalar, nogironlar va boshqalarning aravachalarini), mayda bog'dorchilik inventari, bolalar chanalarini o'zi bilan birga bepul olib yurish huquqiga ega.

33. Hajmi 60 sm × 40 sm × 20 santimetrdan 100 sm × 50 sm × 30 santimetrgacha bo'lgan va uzunligi 150 santimetrdan 200 santimetrgacha bo'lgan buyumlarni, shuningdek, o'lchamidan qat'i nazar, og'irligi 20 kilogrammdan ortiq bo'lgan bagajni olib yurish tarifga muvofiq haq to'lagan holda amalga oshiriladi.

34. O'lchami 33-bandda ko'rsatilgan eng katta hajmlarning hatto bittasidan ortiq bo'lgan bagaj belgilangan parametrlarga nomuvofiq hisoblanadi.

35. Bagajning joylanishi va tashishi yo'lovchilarga va avtotransport vositasiga biron-bir zarar yetkazish imkoniyatini to'liq istisno qilishi kerak.

36. Bagajni olib yurish qiymati yo'lovchining yo'l haqi qiymati kabi tartibda belgilanadi.

IV BOB. SHAHAR ATROFI, SHAHARLARARO VA XALQARO YO'NALISHLARDA YO'LOVCHILAR HAMDA BAGAJNI TASHISH

1-§. Umumiy qoidalar

37. Aholiga xizmat ko'rsatish xususiyatiga muvofiq shahar atrofi, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlar quyidagi bir nechta ish rejimiga ega bo'lishi mumkin:

a) sutka, hafta kunlari, oylarning belgilangan davri mobaynida amal qiladigan doimiy yo'nalishlar;

b) dam olish zonalari, sport-sog'lomlashtirish komplekslari, yarmarkalar va shu kabilar faoliyat ko'rsatadigan davrda tashkil etiladigan mavsumiy yo'nalishlar;

d) ishchilar, mutaxassislar va xizmatchilarni ish joyiga va uyga tashish uchun tashkilotlar tomonidan tashkil etiladigan maxsus yoʻnalishlar.

38. Shahar atrofi yoʻnalishlaridagi bekatlar yoʻlovchilarning u yerga xavfsiz va qulay kelishini taʼminlashni hamda qonun hujjatlari talablarini hisobga olgan holda joylashtirilishi va ular quyidagilarga ega boʻlishi kerak:

a) pavilyonni joylashtirish uchun asfaltlangan maydonchalar va yoʻlovchilarning bekatga kelishi uchun asfaltlangan yoʻlkalar;

b) yoʻlovchilarning yomgʻir, qor, shamoldan bekinishi uchun pavilyon;

d) bekatning nomi yozilgan koʻrsatkich;

e) yoʻnalishlar koʻrsatkichi, unda quyidagilar koʻrsatiladi: yoʻnalishlarning tartib raqami, ularning oxirgi manzili nomi (qatnov yoʻnalishlari boʻyicha), harakatlanish oraligʻi 30 minutdan ortiq boʻlganda ushbu manzildan avtobuslarning joʻnash jadvali. Yoʻnalishda avtobuslar qatnovi oraligʻi 30 minutdan kam boʻlganda jadval oʻrniga qatnovlar oraligʻi jadvali koʻrsatilishi mumkin. Unda avtobuslarning birinchi va oxirgi joʻnash vaqti hamda sutka davrlari boʻyicha qatnov oraliqlari vaqti koʻrsatilgan boʻladi.

39. Shahar atrofi yoʻnalishlarida toʻxtab oʻtish manzillari yoʻlovchilar uchun eng qulay joylarda boʻlishi kerak:

a) shahar atrofi yoʻnalishlarining shahardagi soʻnggi bekatlari yoʻlovchilar gavjum boʻladigan yirik manzillar (temiryoʻl vokzallari va stansiyalari, daryo portlari, bozorlar, metropolitenning oxirgi bekatlari va shu kabilar) yonida boʻlishi kerak;

b) shaharda shahar atrofi yoʻnalishlarining toʻxtab oʻtish manzillari shahar yoʻlovchi tashish transporti yoʻnalishlari toʻxtab oʻtish manzillari bilan bir joyda boʻlishi va shaharning transportni boshqarish boʻyicha vakolatli organlari bilan kelishilgan boʻlishi kerak;

d) aholi yashash joylari chegaralarida joylashgan shahar atrofi yoʻnalishlari toʻxtab oʻtish manzillari oraligʻidagi masofa 1,0 km atrofida, qolgan hollarda — oʻrtacha 1,5 km boʻlishi kerak;

e) shahar atrofidagi bekatlar yoʻnalish trassasida joylashgan har bir aholi yashash joyida boʻlishi kerak.

40. Chiptalari kassalar orqali sotiladigan shaharlararo (xalqaro) yoʻnalishlar toʻxtab oʻtish manzillarida (45-bandning «a», «b» kichik bandlaridagi shartlardan tashqari) quyidagilar boʻlishi kerak:

a) ish tartibi koʻrsatilgan holda chipta sotish kassalari;

b) toʻxtab oʻtish manzili zonasida yoʻlovchilarning transportga chiqish-tushishi uchun supacha;

d) avtotransport vositalarining toʻxtab turishi uchun maydonchalar;

e) yoʻl haqi, bagaj tashish haqi bahosi jadvallari;

- f) yo'nalishlar sxemasi;
 - g) shaharlararo (xalqaro) avtotransport vositalarining qatnov jadvali;
 - h) sanitariya uzeli.
41. Chipta sotish kassasi bo'lmagan pavilyonlarda va shaharlararo (xalqaro) yo'nalishlar to'xtab o'tish manzillarida ushbu to'xtab o'tish manzili orqali o'tadigan avtotransport vositalarining qatnov jadvallari osib qo'yiladi.

2-§. Yo'l haqi to'lash

Shahar atrofi yo'nalishlarida:

42. Shahar atrofi yo'nalishlaridagi avtobuslarda yurish chiptalari haydovchilar (mavjud bo'lganda — konduktorlar) tomonidan, chipta sotish kassalari, tashkil etilgan yo'nalish to'xtab o'tish manzillarida esa kassirlar tomonidan sotiladi.
43. Avtobusdagi yo'lovchi yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni o'zi bilan birga bepul olib yurish huquqiga ega.
44. Yo'lovchi tomonidan shahar atrofi yo'nalishlariga joriy sotish kassalaridan sotib olingan chiptalar, agar chiptani sotish chog'ida va chiptada o'zgacha hol aytilmagan va ko'rsatilmagan bo'lsa, avtobus jo'nashida 5 minut oldin qaytarib berilishi mumkin.

Shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda:

45. Yo'lovchi avtotransport vositasida yurish uchun chiptalarni:
- a) joriy kungi reyslarga — shaharlararo (xalqaro) yo'nalishlarning boshlang'ich manzillaridagi kassalardan avtobus jo'neydigan kunda;
 - b) oraliq manzillardagi kassalardan — avtobusda bo'sh o'rinlar mavjudligi to'g'risida ma'lumot olingan vaqtdan boshlab;
 - d) kassadan chiptalar sotish tashkil etilmagan to'xtab o'tish manzilida avtobus jo'naguncha unga chiqish vaqtida — haydovchidan;
 - e) oldindan chipta sotish kassalaridan (boshlang'ich va oxirgi manzillarda, shuningdek, transport-ekspeditorlik va boshqa manfaatdor tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan manzillarda) — oldindan chipta sotish jo'nash kuni arafasida to'xtatilgan holda, avtotransport vositasi jo'nashidan 10 sutka oldin sotib olish huquqiga egadir.
- Boshlang'ich va oraliq manzillardagi kassalarda joriy kungi qatnovlarga chiptalar sotish avtobus jo'nashidan 5 minut oldin to'xtatiladi.
46. Yo'lovchidan, shu jumladan, imtiyozli yurish huquqiga ega bo'lgan yo'lovchidan chiptalarni oldindan band qilib qo'yanlik uchun chipta bahosiga qo'shiladigan to'lov undirilishi mumkin.
- Avtovokzal (avtostansiya) yoki tashuvchi o'z xohishiga ko'ra sotish joyida yoki avtotransport vositasi salonida chegirma shartlari va miqdori

to'g'risidagi e'lon majburiy ko'rsatilishi sharti bilan oldindan sotib olish muddatiga qarab chiptalar oldindan sotish kassalaridan sotib olganligi uchun chegirma qilishi mumkin.

47. Chiptalarga pochta otkritkasi, telegramma, telefon, elektron pochta yoki Internet orqali oldindan buyurtma berilishi mumkin.

Buyurtmada buyurtmachining familiyasi, jo'nash sanasi va vaqti, boriladigan joy, chiptalar soni, olish usuli (uyga eltib berish yoki eltib bermasdan) ko'rsatiladi. Chiptaga uyga eltib bergan holda buyurtma berilganda buyurtmachining manzili, xizmat yoki uy telefoni mavjud bo'lganda esa — uning raqami ko'rsatiladi.

Chipta sotib olish va olish, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq elektron usulda ham tashkil etilishi mumkin.

48. Buyurtma berilgan chiptalarni uyga eltib berganlik uchun yo'lovchidan to'lov undiriladi, to'lovning tasdig'i sifatida yo'lovchiga kvitansiya beriladi, kvitansiyada transport tashkilotining nomi va kvitansiya berilgan sana ko'rsatiladi. Yozuvlar aniq holda qayd etiladi, berilgan sana esa kompyuter yoki shtamp bilan qo'yiladi.

49. Yo'lovchi buyurtma bergan va haqi to'langan chiptalar oldindan chipta sotish kassasida uni yo'lovchi talab qilib olgungacha saqlanadi.

Yo'lovchi tomonidan buyurtma berilgan, lekin haqi to'lanmagan chiptalar oldindan chipta sotish kassasida saqlanadi va yo'lovchi tomonidan avtobus jo'nashidan kamida bir soat oldin talab qilib olinishi kerak. Talab qilib olinmagan chiptalar sotish uchun joriy sotish kassasiga beriladi.

50. Yo'lovchi o'zi bilan birga besh yoshgacha bo'lgan bir bolani bepul — alohida o'rinsiz, besh yoshdan o'n yoshgacha bo'lgan bolani chiptaning to'liq bahosi 50 foiz chegirilgan holda — alohida o'rin berilgan holda olib yurish huquqiga egadir, o'n yoshgacha bo'lgan ikki nafar va undan ko'proq bolalar olib yurilganda ulardan bittasi bepul, qolganlari — chipta to'liq bahosining 50 foizi chegirilib, alohida o'rin berilgan holda olib yuriladi.

3-§. Avtotransportda yurish shartlari

51. Yo'lovchilarning shahar atrofi yo'nalishlarida avtotransport vositalarida yurishi ushbu Qoidalarining 26—28 va 30—31-bandlariga muvofiq amalga oshiriladi.

52. Shaharlararo yo'nalishlarda tashishda avtotransport vositasidagi yo'lovchilar soni o'rindiqlar sonidan oshmasligi kerak.

53. Haydovchining ish vaqti davomiyligida 9 soatdan ortiq yoki yo'nalish masofasi 400 km va undan ko'p bo'lganda yo'lovchilar tashilayotgan avtobusda haydovchining dam olishi uchun joy jihozlangan bo'lishi va qatnovga ikki nafar haydovchi chiqarilishi kerak.

54. Avtotransport vositasi haydovchisi qatnov jadvalida nazarda tutilgan avtovokzallar (avtostansiyalar)dagi nazorat shoxobchalarida va avtokassalarda yoxud oxirgi manzillarda chiptalarni hisobga olish varaqasida kelish va ketish vaqti, shuningdek, sotilgan chiptalar soni to'g'risida belgi qo'ydirishi shart.

55. Shaharlararo yo'nalishlarda tashish yo'lovchilarni majburiy ravishda chiptalar bilan ta'minlagan holda avtovokzallar (avtostansiyalar) yoki tashuvchilar tomonidan maxsus tashkil etilgan jo'nash va kelish manzillari orqali amalga oshiriladi.

Shaharlararo va xalqaro avtobus yo'nalishlarida yo'lovchilar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda majburiy ravishda sug'urta qilinadilar.

56. Tashish vokzallar (avtovokzallar) orqali amalga oshirilganda tashuvchi quyidagilarga majbur:

— avtobuslarni ularning jo'nashidan kechi bilan 20 daqiqa oldin avtovokzal (avtostansiya)ga chiqarish;

— navbatchi dispetcherga haydovchilarning avtobusni boshqarish huquqiga guvohnomani, yo'l va chiptalarni hisobga olish varaqalarini, qatnov jadvalini va yo'nalish sxemasini ko'rsatish;

— ishda foydalaniladigan avtotransport vositasiga litsenziya (litsenziya kartochkasi) mavjud bo'lishini ta'minlash.

57. Avtovokzal (avtostansiya)ning navbatchi dispetcheri haydovchi hujjatlarini tegishli tekshirgandan keyin:

a) quyidagilarga:

— kassirlarga — transport vositasiga chiptalar sotish to'g'risida;

— diktorga — yo'lovchilarga zarur axborotlarni xabar qilish to'g'risida;

— supacha bo'yicha navbatchilarga — yo'lovchilarni chiqarish uchun joylarni tayyorlash to'g'risida ko'rsatma berishi;

b) maxsus qatnov yo'nalishi, jo'natilyotgan yo'lovchilar soni va qatnovga chiptalar sotishdan jami tushum summasini ko'rsatgan holda daftarda haydovchi(lar) va avtotransport vositasi to'g'risidagi ma'lumotlarni ro'yxatdan o'tkazishi shart.

58. Tashuvchi avtovokzal (avtostansiya)dan chiqqandan so'ng yo'nalish sxemasiga amal qilishi va tezlik rejimiga rioya etishi, qatnov jadvalarida nazarda tutilgan oraliqdagi avtovokzal (avtostansiya)larga hamda avtokassalarga majburiy ravishda kirib o'tishi shart.

59. Qatnov tugallangandan so'ng haydovchi tunash uchun tashuvchi joylashgan joyga yoki qatnov jadvalarida nazarda tutilgan avtovokzal (avtostansiya)ga keladi.

60. Chipta sotish kassasi mavjud bo'lgan avtovokzal (avtostansiya)larda va to'xtab o'tish manzillarida yo'lovchilar avtotransport vositasiga faqat kassadan sotib olingan chiptalarni ko'rsatgan taqdirda chiqariladi. Chiptalar, agar o'zgacha hol tomonlarning kelishuvida

qayd etilmagan va chiptalarni sotishda e'lon qilinmagan bo'lsa, faqat ularda ko'rsatilgan kun va avtobus qatnovi uchun haqiqiy hisoblanadi.

61. Avtobusga chiqarish bo'yicha navbatchi chiqarish vaqtida yo'lovchilarda yo'l chiptalari mavjudligini tekshiradi. Chiqarish bo'yicha navbatchi bo'lmagan punktlarda chiptalarni haydovchi tekshiradi.

62. Shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda, agar o'zgacha hol tomonlarning kelishuvida qayd etilmagan va chiptalarni sotishda e'lon qilinmagan bo'lsa:

a) chipta sotib olingan avtotransport vositasiga uning jo'nash vaqtidan boshlab uch soat atrofida, kasallik yoki baxtsiz hodisa oqibatida esa — uch sutka mobaynida kechikilganda yo'lovchining xohishiga ko'ra avtobusda yurish hujjati chipta bahosining 25 foizini qo'shimcha ravishda to'latgan holda tiklanadi yoki unga chiptaning to'langan bahosi 25 foiz chegirilgan holda qaytarib beriladi.

Yo'lovchining avtobusga kasallik yoki baxtsiz hodisa oqibatida kechikkanligi davolash muassasasining ma'lumotnoma yoki baxtsiz hodisa to'g'risidagi dalolatnoma bilan tasdiqlanishi kerak;

b) chipta avtovokzal (avtostansiya) kassasiga avtotransport vositasi jo'nashidan kechi bilan 2 soat oldin qaytarilgan taqdirda, yo'lovchiga chipta bahosi uning oldindan sotish to'lovi chegirilgan holda qaytariladi. Chipta ushbu muddatdan kech, biroq avtotransport vositasi jo'nashidan oldin qaytarib berilganda, chipta bahosi uning qiymatining 15 foizi va oldindan sotilganligi uchun to'lov chegirib tashlangan holda qaytariladi;

d) avtotransport vositasining jo'nashi jadvalga nisbatan 1 soatdan ortiqqa kechikkanda, yo'lovchiga chipta sotilganidan pastroq yuqori klassli avtotransport vositasidan joy berilganda, shuningdek, unga chiptada ko'rsatilgan joy berilmaganda u chiptaning avtotransport vositasi jo'nagungacha kassaga qaytarib berish va chiptaning to'liq bahosini, shu jumladan, uning oldindan sotilganligi uchun to'lovni qaytarib olish huquqiga ega.

Yo'lovchi pastroq klassli avtotransport vositasida ketishga rozi bo'lganda unga to'langan summa bilan to'lanadigan yo'l haqi o'rtasidagi farq summasi qaytarib beriladi.

Pullar avtovokzal (avtostansiya), avtotransport vositalarini jo'natish punkti boshlig'i (yoki navbatchisi) ko'rsatmasiga binoan qaytarib beriladi. Chipta uning teskari tomoniga «qaytarish» shtampi qo'yilgan holda qaytariladi hamda yo'lovchi uni topshirgan vaqt va qaytarilgan chiptaning qiymati ko'rsatiladi.

Pullar kassir tomonidan chiptalarni qabul qilib olish va pullarni qaytarib berish vedomostidagi yo'lovchi imzosi bilan beriladi, vedomostda qatnovning sanasi, tartib raqami, yo'nalish nomi, chiptaning raqami va bahosi ko'rsatiladi.

Qaytarib berilgan chipta va pullarni qaytarib berishga asos bo'lgan boshqa hujjatlar (oldindan sotilganligi uchun to'lov kvitansiyasi, bagaj chiptasi va hokazolar) vedomot bilan birga kassir hisobotiga ilova qilinadi.

63. Agar jadvalda belgilangan avtotransport vositasi o'rniga chiptaning bahosi yuqori bo'lgan avtotransport vositasi berilsa, u holda chiptani ushbu haqdagi e'longacha sotib olgan yo'lovchi mazkur chipta bilan, qo'shimcha to'lovsiz ketishga haqlidir. Avtobus almashgani to'g'risida e'lon qilingan vaqtdan boshlab chiptalar, yo'lovchilarni tegishli ravishda ogohlantirgan holda, belgilangan yuqoriroq tarif bo'yicha sotiladi.

64. Agar yo'lovchi qatnov yo'lida borayotgan avtotransport vositasidan o'z aybi bilan qolib ketsa, chipta keyingi qatnovga qayta rasmiylashtirilmaydi va yurilmagan masofa uchun pullar qaytarib berilmaydi.

65. Tashkilotlar tomonidan ularning oldindan sotib olgan transportda yurish hujjatlari avtovokzallar (avtostansiyalar) kassalariga avtotransport vositasi jo'nashidan 3 sutka oldin qaytarib berilgan taqdirda, agar o'zgacha hol tomonlarning kelishuvida va chiptalarni sotishda e'lon qilinmagan bo'lsa, ularga yurish hujjatlari qiymati, ularning oldindan sotilgani uchun to'lovni chegirgan holda qaytariladi. Yurish hujjatlari ushbu muddatdan kechikib qaytarilganda yo'l haqi qiymatining 15 foizi ushlab qolinadi.

Avtotransport vositasining jo'nashi bekor qilinganda yoki yurish hujjatlarini qaytarilishida ularni qaytarish muddatidan qat'i nazar yo'l haqi qiymati summasi ushlab qolinmaydi.

66. Qaytarib berilgan foydalanilmagan chiptalar va boshqa yurish hujjatlari qiymatini to'lash yurish hujjatlari sotib olingan joyda amalga oshiriladi.

4-§. Qo'l yuki va bagajni tashish

67. Tashishga topshiriladigan bagaj puxta o'rab-joylangan bo'lishi kerak. Tashishga qabul qilib olingan bagaj uchun bagaj chiptasi beriladi.

Avtomobilning bagaj bo'limi parametrlariga ko'ra tashuvchi, avtomobilning umumiy sig'imi va yuk ko'taruvchanligini oshirmasdan, tashishga qabul qilib olinayotgan bagaj o'rinlari soni va og'irligini ko'paytirishga haqlidir.

Shahar atrofi yo'nalishlarida:

68. Yo'lovchi hajmi 60 sm × 40 sm × 20 sm gacha va og'irligi 20 kilogrammdan ortiq bo'lmagan, 150 santimetrgacha uzunlikdagi qo'l yukini, shuningdek, qafasga solingan holdagi mayda hayvonlar va parrandalarni, aravachani (bolalar, nogironlar aravachalari va boshqalarning aravachalarini), kichik bog' jihozlarini, bolalar chana-larini o'zi bilan birga bepul olib yurish huquqiga ega.

69. Shahar atrofida tashishlarni hamda aviayo'lovchilarni aeroportlarga va aeroportlar o'rtasida tashishlarni amalga oshiruvchi, bagaj bo'limi (otseki) mavjud bo'lgan avtobuslarda yo'lovchi ikkita bagaj o'zni uchun haq to'lagan holda har birining hajmi $100 \text{ sm} \times 50 \text{ sm} \times 30$ santimetrdan ortiq bo'lmagan va 150 dan 200 santimetrgacha uzunlikdagi buyumlarni o'zi bilan birga olib yurish huquqiga ega.

70. O'lchami 69-bandda ko'rsatilgan eng katta hajmlarning hatto bittasidan ortiq bo'lgan bagaj belgilangan parametrlarga nomuvofiq hisoblanadi.

71. Shahar atrofi yo'nalishlardagi avtotransport vositalarida bagajni olib yurishga chiptalar haydovchilar (mavjud bo'lganda — konduktorlar) tomonidan, chipta sotish kassalari tashkil etilgan yo'nalishlarning oxirgi manzillarida esa kassirlar (perron nazoratchilari) tomonidan sotiladi.

Shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda:

72. Yo'lovchi shaharlararo (xalqaro) yo'nalishlardagi avtotransport vositalarida o'zi bilan birga:

a) hajmi $60 \text{ sm} \times 40 \text{ sm} \times 20 \text{ sm}$ va og'irligi 30 kilogrammdan, ortiq bo'lmagan qo'l yukini, shu jumladan, qafasga solingan holdagi mayda hayvon va parrandalarni yoki bir juft chang'ini (bolalar chanalarini), 150 santimetrgacha uzunlikdagi buyumni — bepul;

b) bagaj bo'limi (otseki) mavjud bo'lgan avtobuslarda — hajmi $100 \text{ sm} \times 50 \text{ sm} \times 30 \text{ sm}$. dan ortiq bo'lmagan va og'irligi 60 kilogrammdan ko'p bo'lmagan bagajni bitta joy uchun tarif bo'yicha haq to'lagan holda;

d) bagaj bo'limi (otseki) mavjud bo'lgan avtobuslarda hajmi $100 \text{ sm} \times 50 \text{ sm} \times 20$ santimetrdan ortiq bo'lmagan, har birining og'irligi 60 kilogrammdan ko'p bo'lmagan bagajni va 150 santimetrdan 200 santimetrgacha uzunlikdagi buyumlarni — ikkita joy uchun haq to'lagan holda olib yurish huquqiga ega.

73. Bagajning o'lchamlari 72-bandda ko'rsatilgan eng katta o'lchamlaridan bittasining o'lchamidan oshsa, belgilangan parametrlarga nomuvofiq hisoblanadi.

5-§. Bagaj mashinalarida bagajni tashish

74. Yo'lovchi, bagaj (yuk) avtomobillari harakati tashkil etilgan shaharlararo (xalqaro) yo'nalishlarda, bagaj avtomobillarida bagajni tashishga topshirish huquqiga ega.

75. Yo'lovchilarning bagajlari yo'l chiptalari taqdim etilganda, bagaj avtomobillariga tashish uchun qabul qilinadi. Har bir yo'l chiptasiga (to'liq yoki bolalar chiptasiga) umumiy og'irligi 150 kilogrammdan

yuqori bo'lmagan bagaj qabul qilinishi mumkin. Tashuvchi bagaj avtomobilining parametriga bog'liq holda, tashishga qabul qilingan bagajning joyini va og'irligini ko'paytirish huquqiga ega.

76. Tashish uchun topshirilayotgan bagaj o'zining o'lchamlari, o'rami hamda xususiyatlari bo'yicha bagaj avtomobiliga yuklash va joylashtirishda qiyinchiliklar tug'dirmasligi, shuningdek, boshqa yo'lovchilarning bagajiga zarar yetkazmasligi kerak. Butun tashish vaqtida bagajning idish va o'rami butunligining saqlanganligini ta'minlash lozim.

Bagaj o'ralganda bagajni yo'qotish xavfi yoki buzilishi mumkin bo'lgan kamchiliklar bo'lganda, bu kamchiliklar to'g'risida tashish hujjatlarida belgi qo'yilib, bagaj qabul qilinishi mumkin.

77. Bagaj avtomobilida bagajni jo'natishni xohlagan yo'lovchi, yukni oldindan topshirishi, lekin bagaj avtomobilining jo'nashidan 20 minutga kechikmasdan taqdim etishi lozim.

78. Bagajni tashish uchun qabul qilishning tasdig'i sifatida yo'lovchiga belgilangan namunadagi bagaj kvitansiyasi beriladi.

79. Yo'lovchi bagajni tashish uchun topshirganda, belgilangan tarif to'lovi bilan topshirilayotgan bagajning qiymatiga qarab, uning bahosini e'lon qilish huquqiga ega.

80. Bagaj belgilangan joyga yetib kelganda bagaj kvitansiyasini taqdim etuvchiga beriladi.

81. Yo'lovchidan tashish uchun alohida qabul qilingan bagaj yo'lovchi belgilangan joyga jadval bo'yicha yetib kelish kundan kechikmasdan ushbu manzilga yetkazilishi kerak.

82. Yo'lovchi tomonidan talab qilib olinmagan bagaj avtovokzaldan yoki belgilangan yetkazib berish manzilida tashuvchi tomonidan yetkazib berishning nazarda tutilgan muddatidan keyin 30 kun mobaynida saqlanadi. Bagaj saqlanganligi uchun tarif bo'yicha to'lov undiriladi.

Belgilangan yetkazib berish muddatidan 30 kun o'tgandan keyin talab qilib olinmagan bagaj sotilishi, sotishdan tushgan summa esa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqsimlanishi mumkin.

6-§. Yo'lovchilar tomonidan unutilgan buyumlarni saqlashga topshirishni rasmiylashtirish

83. Yo'lovchilarning unutilgan buyumlari qatnov tugashi bilan haydovchi tomonidan avtovokzal (avtostansiya) smena navbatchisiga yoki tashuvchining navbatchi dispetcheriga, ular bo'lmaganda esa — topilmalar idorasiga topshirilishi shart.

84. Avtovokzal (avtostansiya) navbatchisi, tashuvchining navbatchi dispetcheri yoki topilmalar idorasi xodimi topilgan buyumlarni olib kelgan shaxs ishtirokida unutilgan buyumlarning ro'yxati bilan ikki nusxada dalolatnoma tuzishi shart.

85. Dalolatnoma tuzilgandan keyin omborchidan ikki nusxaga ham tilxat olinib, bittasi tashuvchida qoldiriladi, boshqasi esa omborxonaga topshirish uchun omborchiga barcha buyumlar bilan birgalikda beriladi.

86. Avtovokzal (avtostansiya) navbatchisi yoki tashuvchining navbatchi dispetcheri yo'lovchining avtotransport vositasida unutilib qoldirgan buyumlarni qidirishga tegishli bo'lgan savollariga tushuntirish berishi shart.

V BOB. YO'LOVCHILAR AVTOVOKZALLARI (AVTOSTANSIYALARI)

87. Avtovokzallar (avtostansiyalar) aholi yashash joylarida hamda avtomobil yo'llari trassalarida yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish va xalqaro, shaharlararo hamda shahar atrofida qatnovchi avtobus yo'nalishlarida avtobuslar harakatiga tezkor rahbarlik qilish, foydalanish xizmat xonalarini va haydovchilarning dam olish xonalarini joylashtirish uchun tashkil etiladi.

Har bir avtovokzal belgilangan namunadagi o'z pasportiga ega bo'lish kerak. Pasport O'zbekiston Avtomobil va daryo transporti agentligi tomonidan beriladi.

88. Avtovokzallar (avtostansiyalar) muayyan toifa va klasslarga bo'linadi. Yo'lovchilar avtovokzallari (avtostansiyalari)ni toifalarga va klasslarga kiritish tartibini, ularning funksiyasini, ishlarning texnologik jarayonini belgilovchi Nizom O'zbekiston Avtomobil va daryo transporti agentligi tomonidan tasdiqlanadi.

VI BOB. JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING BUYURTMANOMALARI (BUYURTMALARI) YOKI BOSHQA TASHISH SHARTNOMALARI BO'YICHA ULARGA BERILADIGAN AVTOBUSLAR VA YENGIL AVTOMOBILLARDA YO'LOVCHILAR TASHISH

89. Tashuvchi jismoniy va yuridik shaxslarga ularning buyurtmanomalari (buyurtmalari) yoki boshqa tashish shartnomalari bo'yicha avtobuslar va yengil avtomobillar beradi.

90. Avtobuslar va yengil avtomobillar shahar tashqarisiga buyurtmanomalar (buyurtmalar) yoki boshqa tashish shartnomalari bo'yicha tashuvchining amaldagi yo'nalishlar tarmog'i yo'nalishi bo'yicha beriladi, amaldagi yo'nalishlarga mos kelmaydigan boshqa yo'nalishlar bo'yicha haydovchilarga oldindan harakat xavfsizligi bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatilgandan keyin beriladi.

91. Belgilangan yo'nalish bo'yicha qatnashdan og'ishish, harakat tezligini oshirish, avtotransport vositasida belgilangan sig'ish norma-sidan ortiq yo'lovchi tashish, haydovchilarning mehnat tartibini va dam olishini buzish qat'iy man qilinadi.

92. Buyurtmanomada (buyurtmada), tashish shartnomasida buyurtmachi borish joyini, qatnash yoʻnalishini, toʻxtab oʻtish joyini, tashilayotgan yoʻlovchilar sonini, tashish uchun masʼul shaxsning (guruh rahbari, ekskurovod) familiyasi, ismi, otasining ismini, avtotransport vositasining buyurtmachida boʻlish muddatini koʻrsatish lozim.

93. Bolalarni tashishni tashkil etishga buyurtmanomalar tashuvchilar tomonidan guruhlarni oʻqituvchilarning yoki maxsus belgilangan katta yoshdagi kishilarning (bitta katta yoshdagi kishiga 15 boladan koʻp boʻlmagan) kuzatib borishi shartlari bajarilganda qabul qilinadi. Maktab yoshidagi bolalar guruhlarini tashishda ularga hamrohlik qilish uchun tibbiyot xodimlari ajratiladi.

94. Bolalarni ommaviy ravishda tashishda yoʻl harakati qoidalariga belgilangan xavfsizligi boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar koʻriladi.

2-§. Yoʻl haqini toʻlash

95. Buyurtmanomalar (buyurtmalar) yoki boshqa tashish shartnomalari boʻyicha beriladigan avtobuslar va yengil avtomobillarda yoʻlovchilar va bagajni tashishga tariflar miqdorlari tashuvchi bilan mijoz oʻrtasidagi shartnoma asosida belgilanadi. Ajratilayotgan avtobuslar va yengil avtomobillar ishlariga toʻlov vaqtbay yoki ishbay tariflari boʻyicha belgilanishi mumkin.

96. Avtobus va yengil avtomobildan foydalanish vaqti, uning garajdan chiqish vaqtidan garajga qaytish vaqtigacha haydovchining dam olish vaqti chiqarib tashlangan holda, buyurtmanomalar (buyurtmalar)ni yoki boshqa tashish shartnomalarini rasmiylashtirishda hisoblab chiqiladi.

VII BOB. YOʻNALISHSIZ TAKSILARDA YOʻLOVCHILAR VA BAGAJNI TASHISH

1-§. Umumiy qoidalar

97. Yoʻnalishsiz taksilar yakka tartibda foydalanish tartibida shahar, shahar atrofi, shaharlararo va xalqaro tashish boʻyicha xizmat koʻrsatishga moʻljallangan.

98. Yoʻlovchilarni:

- a) yoʻnalishsiz taksilarning maxsus jihozlangan toʻxtash joylarida;
- b) tegishli harakatlanish tarkibining toʻxtashi ruxsat etilgan koʻcha-yoʻl tarmogʻi uchastkalarida;
- d) yoʻlovchilarning buyurtmasi boʻyicha yoʻnalishsiz taksilarni yoʻlga chiqarish joylarida yoʻlovchilarni yoʻnalishsiz taksilarga chiqarish va undan tushirish mumkin.

2-§. Yo‘l haqini to‘lash

99. Yo‘nalishsiz taksilarning yo‘lovchilarni tashish va bagajni tashish tariflari miqdori tashuvchi tomonidan belgilanadi.

100. Yo‘l haqi yo‘lovchi tomonidan safar tugagandan keyin va bagaj tushirilgandan keyin u bilan kelgan yo‘lovchilar hamda tashib keltirilgan bagaj sonidan qat‘i nazar taksometr ko‘rsatkichi bo‘yicha to‘lanadi. Haydovchi bilan hisob-kitob naqd pul bilan yoxud hisob-kitob terminalidan foydalangan holda bank plastik kartochkalari mablag‘lari bilan amalga oshiriladi (O‘zR VM 18.05.2011-y. 139-son Qarori tahriridagi xatboshi).

Yo‘nalishsiz taksi bir nechta yo‘lovchilar (navbatda turgan birinchi yo‘lovchining roziligi bilan) tomonidan to‘xtash joyida yollagan yoki taksini yollagan yo‘lovchi roziligi bilan yo‘li bir bo‘lgan yo‘lovchi chiqarilgan taqdirda, yo‘l haqiga to‘lovning umumiy summasi yo‘lovchilar o‘rtasida har bir yo‘lovchining bosib o‘tgan masofasiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

101. Yo‘nalishsiz taksiga yo‘lovchilarni chiqarishda haydovchi bagajni joylashtirishda yordam ko‘rsatishi, safar tugaganda esa yo‘lovchiga uning buyumlarini va bagajni tushirishi to‘g‘risida eslatishi shart.

Yo‘nalishsiz taksiga oldindan buyurtma berilganda haydovchi avtomobil bilan naryadda ko‘rsatilgan vaqtda kelishi shart.

3-§. Transportda yurish shartlari

102. Yo‘nalishsiz taksilar belgilangan to‘xtash joylarida umumiy navbat tartibida yollaniladi.

103. Shahar chetiga yo‘nalishsiz taksilarni yo‘lga chiqarishga buyurtmalar dispetcher tomonidan telefon orqali va shaxsan yo‘lovchidan qabul qilinadi.

Yo‘nalishsiz taksini yo‘lga chiqarish qiymati buyurtmachi tomonidan buyurtma bo‘yicha belgilangan tarifga muvofiq taksometr ko‘rsatkichi bo‘yicha to‘lanadi.

104. Yo‘nalishsiz taksi yo‘lovchining iltimosiga ko‘ra, tomonlarning o‘zaro kelishuviga ko‘ra alohida to‘lov evaziga yo‘lovchini uning iltimosiga binoan kutib turadi.

4-§. Qo‘l yukini va bagajni tashish

105. Yo‘nalishsiz taksilarning bagaj bo‘linmalarida bagajni tashishga faqat yopiq bagajxonaga bo‘lganda ruxsat beriladi.

Yo‘nalishsiz taksilarning salonida avtomobil eshigi orqali bemalol sig‘adigan, salon qoplamasini va uning uskunalarini buzmaydigan va iflos qilmaydigan, haydovchining avtomobilni boshqarishiga hamda

orqani ko'rish ko'zgusidan foydalanishiga xalaqit bermaydigan har xil buyumlar va ashyolarni tashishga ruxsat beriladi.

Mushuklar, itlarni tizgin va to'shagi mavjud bo'lganda tumshuq-bog'larda, kichik jonivorlarni savatlarda, sumkalarda hamda qushlarni qafaslarda tashishga ruxsat beriladi.

VIII BOB. AVTOMOBIL TRANSPORTIDA HARBIY YO'LOVCHILARNI TASHISH

106. Harbiy yo'lovchilarga O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo'mitaning harbiylarni tashish hujjatlari bo'yicha transportda yurishi rasmiylashtirilgan shaxslar hamda ushbu hujjatlarda yozilgan ularning oila a'zolari kiradilar.

107. Harbiy yo'lovchilarni tashish buning uchun keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki orqali markazlashtirilgan tartibda tegishli ravishda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati hamda Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo'mita tomonidan harbiylarni tashish hujjatlari bo'yicha hisob-kitob qilingan holda bajariladi.

Harbiylarni tashish umumiy belgilangan tartibda Markaziy bankning limitlangan daftarchalaridan cheklar, banklar tomonidan akseptlangan to'lov topshiriqnomalari orqali yoki naqd pul bilan to'lov to'lanishi mumkin.

108. Harbiylarni tashish hujjatlari O'zbekiston Respublikasi hududida barcha avtovokzallarda (avtostansiyalarda) qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo'mitaning harbiy qismlari va muassasalari tomonidan tashishga rasmiylashtirilgan harbiylarni tashish hujjatlarida, ularning tegishli vazirlik va idoraga aloqadorligini aniqlovchi ajratib turadigan belgilari bo'lishi kerak.

109. Harbiylarni tashish hujjatlari avtomobil transportida shahar atrofida, viloyat ichida, viloyatlararo va xalqaro qatnovlarda yo'lovchilarning manzilga borishi va bagajni tashishga chiptalar olish uchun mo'ljallangan.

Harbiylarni tashish hujjatlariga quyidagilar taalluqlidir:

a) avtomobil transportida harbiy yuklarni va uy buyumlarni tashish uchun — talabnoma;

b) avtomobil transportida viloyat ichi va viloyatlararo qatnovlarda manzilga borish uchun bitta odamga yoki soni ikki kishidan ziyod bo'lgan harbiy komandaga chiptalar olish uchun — talabnoma;

d) bagajni tashish uchun — bagaj taloni. Bagaj talonlari jo'nash avtovokzallari (avtostansiyalari) kassalarida bagaj chiptalariga yoki kvitansiyalariga almashtiriladi. Barcha turdagi harbiylarni tashish hujjatlari jo'nash shoxobchasi chipta kassalarida umumiy shakldagi chiptalarga, bagaj chiptalariga yoki kvitansiyalarga almashtiriladi.

IX BOB. AVTOTRANSPORTDA IMTIYOZLI YOKI BEPUL YO'L YURISH HUQUQIDAN FOYDALANUVCHI YO'LOVCHILAR UCHUN UMUMIY QOIDALAR

110. Avtotransportda bepul yoki imtiyozli yurish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga, mansubligi yoki mulkchilik shaklidan qat'i nazar yo'nalishli avtobuslarida bepul va imtiyozli yurishga ruxsat beriladi.

111. Avtomobil transportida bepul yuruvchi, shuningdek, imtiyozli yurishdan foydalanuvchi yo'lovchilar uchun avtomobil transportida yo'lovchi tashishning amal qiladigan qoida va shartlari majburiydir.

112. Avtobuslarda bepul yoki imtiyozli yurish huquqiga ega bo'lgan yo'lovchilar tomonidan bagajni tashish va xizmatlar ko'rsatish uchun to'lovlar umumiy asoslarda amalga oshiriladi.

X BOB. TASHUVCHILARNING, YO'LOVCHILARNING VA BUYURTMANOMA (BUYURTMA) BERGAN YOKI BOSHQA TASHISH SHARTNOMASINI TUZGAN SHAXSLARNING JAVOBGARLIGI, E'TIROZLAR VA DA'VOLAR

1-§. Tashuvchining javobgarligi

113. Yo'lovchilarni va bagajni tashish shartnomasidan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarilmagan yoki zarur darajada bajarilmagan taqdirda, tashuvchilar mazkur Qoidalarda va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda moddiy javob beradilar.

114. Tashish uchun qabul qilingan bagajning yo'qolishi, kamomadi, buzilganligi yoki shikastlanganligi uchun, agar tashuvchilar yo'qolish, kamomad, buzilish yoki shikastlanish ularning aybi bilan bo'lmaganligini isbotlay olmasalar moddiy javob beradilar va zararlarni to'laydilar.

Bagajni tashishda yetkazilgan zarar tashuvchi tomonidan quyidagi miqdorda:

— bagaj yo'qolgan yoki kamomadga yo'l qo'yilgan taqdirda — yuk yoki bagajning yo'qolgan yoki yetmagan qiymati miqdorida;

— bagajga zarar yetgan (buzilgan) taqdirda — uning qiymati kamaygan summa miqdorida, shikastlangan (buzilgan) bagajni tiklash imkoniyati bo'lmaganda esa, uning qiymati miqdorida;

— qiymati e'lon qilingan holda tashish uchun topshirilgan bagaj yo'qolganda — bagajning e'lon qilingan miqdorida to'lanadi.

115. Ishiga vaqtbay tarif bo'yicha haq to'lanadigan avtobuslar va yengil avtomobillar tashuvchi tomonidan buyurtmanoma (buyurtma) yoki boshqa tashish shartnomalari bo'yicha bajarish uchun qabul qilingan miqdorda yetkazib berilmaganda yoki ushbu avtobuslar va yengil avtomobillarni chiqarish kechiktirilganda, tashuvchi agar tomonlarning kelishuvida o'zgacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, buyurtmachiga buyurtmanomada (buyurtmada) yoki shartnomada ko'rsatilgan foydalanish vaqtidan kelib chiqqan holda avtobuslar va yengil avtomobillardan foydalanish qiymatining 10 foizini to'laydi.

116. Shahar yo'nalishlarida yo'lovchilar tashishdan tashqari yo'lovchilarni tashish uchun avtotransport vositasini jo'natish kechikkanligi yoki belgilangan manzilga kechikib kelganligi uchun tashuvchi, agar kechikishlar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki tashuvchiga bog'liq bo'lmagan boshqa sabablar oqibatida yuz berganligini isbotlab berolmasa, yo'lovchiga jarima shaklida neustoyka to'laydi.

Yo'lovchilar tashish uchun avtotransport vositasini jo'natish kechikkanligi yoki belgilangan manzilga kechikib kelganligi holati yuzasidan avtovokzal (avtostansiya)ning navbatchi dispetcheri tomonidan dalolatnoma tuziladi. Dalolatnomada avtotransport vositasining tasdiqlangan jadval bo'yicha jo'nash (yetib kelish) vaqti va haqiqatda jo'nagan (yetib kelgan) vaqti ko'rsatiladi. Dalolatnoma navbatchi dispetcher va ikki yo'lovchi tomonidan imzolanadi. Avtovokzalda (avtostansiyada) navbatchi dispetcher bo'lmagan taqdirda, dalolatnoma kamida uchta yo'lovchi tomonidan imzolanadi.

Avtotransport vositasining jo'nashi (yetib kelishi) kechiktirilganligi uchun yo'lovchiga to'lanadigan jarima miqdori — jo'nashi (yetib kelish) kechikkanligining birinchi to'liq soati uchun (60 minut) chipta bahosining 10 foizi hisobidan uning davomiyligiga bog'liq holda, jo'nash (kelish) kechikishning har bir keyingi 15 minuti uchun esa chipta bahosining 3 foizi hisobidan aniqlanadi. Jarima umumiy summasi chipta bahosining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

Yo'lovchiga jarima tashuvchi tomonidan yoki avtovokzal (avtostansiya) boshlig'ining yozma ko'rsatmasi bo'yicha to'lanadi.

Yo'lovchiga to'langan jarima, amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq avtotransport vositasining jo'nashga kechikkanligi yoki uning belgilangan manzilga yetib kelishi kechikkanligi oqibatida yo'lovchiga yetkazilgan zararining unga to'lash majburiyatidan ozod qilmaydi. Avtotransport vositasining jo'nashi kechikkanligi sababi bo'yicha yo'lovchi tashishni rad etgan taqdirda, tashuvchi yo'lovchiga yo'l haqi to'lovini hamda u tomondan ko'rilgan boshqa xarajatlarni qaytarishi shart.

117. Tashuvchi yo'lovchining hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun qonun hujjatlariga muvofiq javob beradi.

2-§. Yo'lovchilarning va buyurtmanoma (buyurtma) bergan yoki boshqa tashish shartnomasini tuzgan shaxslarning javobgarligi

118. Yo'lovchilar qonun hujjatlariga muvofiq avtotransport vositalari uskuna va inventarlarining buzilishi yoki shikastlanishi uchun javob beradilar.

119. Ushbu avtotransport vositasida yurish yoki bagaj tashish huquqini bermaydigan chiptani yoki guvohnomani nazorat vaqtida ko'rsatgan shaxslar chiptasiz yo'lovchilar toifasiga kiradi. Qalbaki, noto'g'ri rasmiylashtirilgan yoki boshqa shaxsga rasmiylashtirilgan yo'l chiptalari va guvohnomalar nazorat qiluvchi shaxs tomonidan olib qo'yilishi kerak.

120. Jarimalar O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida nazarda tutilgan tartibda avtomobil transporti yoki ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan solinadi.

121. Yo'lovchi tomonidan jarima to'langanda, unga undirilgan summa ko'rsatilgan holda belgilangan shakldagi kvitansiya beriladi. Yo'lovchi tomonidan jarima to'lanishi, yo'lovchini yo'l chiptasi sotib olish yoki bagaj tashish to'lovidan ozod qilmaydi.

Avtotransportda yurishga va bagajini tashishga chiptasi bo'lmagan yo'lovchining avtotransportga chiqqan manzilini aniqlash imkoni bo'lmaganda, uning yurish va bagajni tashish qiymati jo'nash manzilidan yetib kelish manziligacha bo'lgan masofa bo'yicha hisoblanadi.

122. Buyurtmanoma (buyurtma) bergan yoki boshqa tashish shartnomasi tuzgan shaxslar avtobuslar va yengil avtomobillardan foydalanishni to'liq yoki qisman rad etganda ularning ishiga buyurtmanomada (buyurtma) yoki shartnomada ko'rsatilgan miqdorda vaqtbay tarif bo'yicha haq to'lanadi, ko'rsatilgan shaxslar tashuvchiga buyurtmanomada (buyurtmada) yoki shartnomada ko'rsatilgan foydalanish vaqtidan kelib chiqqan holda, avtobuslar va yengil avtomobillardan foydalanish qiymatining 10 foizini to'laydi.

3-§. E'tirozlar, da'volar

123. Yo'lovchilar va bagajni tashish jarayonida paydo bo'ladigan e'tirozlar tashuvchiga jo'nash yoki yetib kelish manzilida e'tiroz bildiruvchining xohishi bo'yicha berilishi mumkin.

E'tiroz arizalariga e'tirozni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinishi kerak.

124. Tashuvchiga e'tirozlar 6 oy mobaynida, jarimalar to'lash to'g'risidagi e'tirozlar esa 45 kun mobaynida berilishi mumkin.

Ko'rsatilgan muddatlar:

a) bagajning buzilganligi, shikastlanganligi yoki kamomadi uchun to'lovlar to'g'risidagi e'tirozlar bo'yicha — bagaj berilgan kundani;

b) bagaj yo'qolganligi uchun zararni qoplash to'g'risidagi e'tirozlar bo'yicha — bagaj yetkazib berilgan muddatlar tugagandan 10 kundan keyin;

d) qolgan barcha holatlarda — e'tiroz bildirish uchun asos bo'ladigan voqealar bo'lgan kundan boshlab hisoblanadi.

125. Tashuvchi e'tiroz olingan kundan boshlab quyidagi muddatlarda:

a) avtomobil qatnovidagi tashishlardan paydo bo'ladigan e'tirozlar bo'yicha — 3 oy mobaynida;

b) to'g'ri, aralash qatnovlarda paydo bo'ladigan e'tirozlar bo'yicha — 6 oy mobaynida;

d) jarima to'lash to'g'risidagi e'tirozlar bo'yicha — 45 kun mobaynida bildirilgan e'tirozni ko'rib chiqishi va uning qanoatlantirishi to'g'risida arizachiga xabar berishi shart.

E'tirozlar qisman qanoatlantirilganda yoki rad etilganda, tashuvchi bu haqdagi bildirishnomada qabul qilingan qarorning sababini ko'rsatishi hamda e'tirozlarga ilova qilingan hujjatlarni ariza beruvchiga qaytarishi kerak.

E'tirozlar to'liq summada qanoatlantirilganda arizaga ilova qilingan hujjatlar qaytarilmaydi.

126. Yo'lovchilar va bagajni tashishdan kelib chiqadigan da'volar sudga berilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Karimov I.A.* O‘zbekiston — bozor munosabatlariga o‘tishining o‘ziga xos yo‘li. T., «O‘zbekiston», 1993.
2. *Karimov I.A.* O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. T., «O‘zbekiston», 1995.
3. *Karimov E.* Avtomobillarda yo‘lovchilar tashish. T., «Sharq», 2002.
4. *Мун В.С.* Пассажирские автомобильные перевозки. T., «O‘qituvchi», 1990.
5. *Лившиц А.Я.* Введение в рыночную экономику. M., 1992.
6. Amaliy iqtisodiyot (o‘quv qo‘llanma). T., «Sharq», 1996.
8. *Rasulov M.* Bozor iqtisodiyoti asoslari. T., «O‘zbekiston», 1999
9. O‘zbekiston Respublikasining transport sohasi bo‘yicha Qonunlari.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining transport sohasi bo‘yicha Farmonlari.
11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining transport sohasi bo‘yicha qarorlari.
12. http://uzaart.uz/rus/tenders/poryadok_i_usloviya_tendera/
13. <http://www.chelbis.ru/servise/consult/provedenie-tendorov/iskysstvo-prov-tend/>
14. <http://reklama.rin.ru/>
15. <http://www.reclama.su/viewtopic.php?t=187>
16. <http://www.ua-tenders.com>
17. http://www.businesspravo.ru/DocumDocumShow_DocumID_953.html
18. <http://www.shella.ru/trans.html>
19. <http://www.pkn.ru/documents.html>
20. <http://www.realconsult.ru/services/License/LicenseTransportation/>
21. <http://www.v-e-g.ru/transp.html>

MUNDARIJA

Kirish	3
1. AVTOMOBIL TRANSPORTI SOHASIDA MONOPOLIYADAN CHIQARISH VA BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH	
1.1. Avtomobil transporti sohasidagi iqtisodiy islohotlar	4
1.2. Avtomobil transporti sohasida monopoliyadan chiqarish va boshqaruvni takomillashtirish	8
1.3. Toshkent shahrida yo'lovchi transporti holati va uni takomillashtirish	12
1.4. Toshkent shahar hokimligi Yo'lovchi transportining barcha turlari harakatini litsenziyalash va muvofiqlashtirish departamenti	17
2. YO'LOVCHI TASHUVCHI AVTOTRANSPORT KORXONALARI FAOLIYATI VA UNI TASHKIL ETISH	
2.1. Avtomobil transportida mulkchilik shakllari va xo'jalik yurituvchi subyektlar	24
2.2. Yo'lovchi tashuvchi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar	28
2.3. Avtomobil transportida raqobat, uning turlari va transport xizmati bozori	31
2.4. Avtomobil transportida tadbirkorlik faoliyatini litsenziyalash tartibi	40
2.5. Litsenziya da'vogarlariga qo'yiladigan malaka talablari	51
3. XUSUSIY AVTOTRANSPORT KORXONALARIDA YO'LOVCHILAR TASHISHNI TASHKIL ETISH VA UNI DAVLAT TOMONIDAN NAZORAT QILISH	
3.1. Yo'nalishlarda yo'lovchilarni tashish uchun ochiq tenderlarni tashkil etishning huquqiy asoslari va ularda qatnashish	53
3.2. Tashuvchi bilan buyurtmachi o'rtasida transport xizmatini ko'rsatish yuzasidan kontraktlar tuzish	66
3.3. Yo'lovchi tashuvchi korxonalar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish va tekshirishlarni o'tkazish tartibi	85
Ilova	88
Foydalanilgan adabiyotlar	126

Q-79 Qulmuhamedov J.R. va boshq. Xususiy avto-transport vositalarida yo'lovchilar tashishni tashkil etish (4-nashri). Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. T.: «ILM ZIYO», 2016. —128 b.

1. Muallifdosh.

UO'K: 629.34 (075)

KBK 39.335.5

ISBN 978-9943-16-353-9

QULMUHAMEDOV JASUR RAFIQOVICH,
ASOMIDDINOV SALOHIDDIN ZIYOVUDDINOVICH,
NAZAROV KARIMJON MAHKAMOVICH

**XUSUSIY AVTOTRANSPORT VOSITALARIDA
YO'LOVCHILAR TASHISHNI TASHKIL ETISH**

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

4-nashri

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2016

Muharrir *K. Bo'ronov*

Badiiy muharrir *Sh. Odilov*

Texnik muharrir *F. Samadov*

Musahhah *T. Mirzayev*

Noshirlik litsenziyasi AI № 275, 15.07.2015-yil.

2016-yil 30-sentabrda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi 60×90¹/₁₆.

«Times» harfida terilib, ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i 8,0.

Nashr tabog'i 7,0. 1354 nusxa. Buyurtma № 88.

«ILM ZIYO» nashriyot uyi, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Shartnoma № 29 — 2016.

«PAPER MAX» xususiy korxonasi chop etildi.

Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.